

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 45
Часть-10_ Май -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Май - 2024 год

ЧАСТЬ - 10



DORIVOR O‘SIMLIKLARDAN FOYDALANISH VA ULARNI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Po‘latov Sarvar Mustafoyevich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD)*

Zayniddinova Sarvinoz Xamza qizi

*Dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Sayfiddinov Sahobiddin Faxriddin o‘g‘li

Agronomiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ta’lim, ilmfan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4670-sonli qarori qabul qilindi.

Farmasevtika sanoati va aholini dorivor o‘simlik xom-ashyosiga bo‘lgan talabini qondirish va o‘simlik xom-ashyosi asosida zamonaviy dori-darmonlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 5-avgustdagi 222-sonli majlisi bayonining 3-bandida ko‘rsatilgan – “Dorivor o‘simlikshunoslik va yangi dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarini tashkillashtirish uchun dorivor o‘simliklarni sanoat miqyosida plantatsiyalarini yaratish” va 2015-yil 20-yanvardagi 5-sonli “2015-2017 yillarda o‘rmon ho‘jaliklari tizimini rivojlantirish, dorivor va oziqabop o‘simliklar xom-ashyosini yetishtirish, tayyorlash va qayta ishlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi majlis bayonomasining 1.12-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Respublikaning turli tuproq-iqlim sharoitlarida *Asteraceae* oilasiga mansub istiqbolli dorivor o‘simliklarga barcha agrotexnik tadbirlar hamda mineral o‘g‘itlarning turli xil me‘yorlarini qo‘llash o‘simliklarning bo‘yiga o‘sishi, tana diametri, biomassasi, shoxlanishi, barg sathi, xom ashyosi va urug‘ hosildorligiga ta’sirlari o‘rganilgan.

B.Y.To‘xtayevning ma’lumotlarida introduksiyaning asosiy vazifasi tabiiy florada mavjud bo‘lgan manzarali, dorivor, oziq-ovqat, efir moyli, asal beruvchi va yem-xashak o‘simliklarni aniqlash va ularni madaniylashtirishdir.

Dorivor o‘simliklar introduksiyasi – import hisobiga keltirilayotgan xom ashyo sarf xarajatlarini kamaytiribgina qolmay, mahalliy sharoitimizdagi bioxilma-xillikni boyitib, aholining dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talabini qisman qondiradi. Shunday indrodusentlar qatoriga kiruvchi *Salvia officinalis* L.–yasnotkaguldoshlar oilasiga mansub bo‘lgan mavrak o‘simligi xalq tabobatida qadimdan ma’lum bo‘lib, shifobaxsh o‘simlik sifatida qo‘llanib kelinmoqda.

Dorivor o‘simliklarning xalq tabobati sohasida keng qo‘llanilishi keltirib o‘tilgan. Undan tashqari kitobda dorivor o‘simliklarning 600dan ortiq turlari, shuningdek, 150ga yaqin dorivor o‘simliklar to‘plami tasvirlangan. Unda dorivor o‘simliklarning dorivorlik xususiyatlari, ularni yig‘ish va quritish, har bir o‘simlik turiga qisqacha botanik tavsifi, geografik tarqalishi va hududlari, o‘simlikning foydalaniladigan qismi va yig‘ish vaqti hamda kimyoviy tarkiblari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Tuproq va o‘g‘itning oziqa elementlarini o‘zlashtirish koeffitsiyenti tuproq turiga, haroratga, yog‘ingarchilik miqdoriga, o‘g‘it turiga, shakliga, sug‘orish tizimiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi”ga kiritilgan o‘simliklar 48 oilaga mansub 313 turdagi o‘simliklarni o‘z ichiga oladi, shular jumlasidan mavrak (*Salvia* L.) o‘simligining 6 turi “Qizil kitobi”ga kirgan bo‘lib, ayrimlari madaniylashtirilgan, ammo bu turlar tabiiy va antropogen omillar sabab yo‘qolib ketgan. Zebo marmarak (*Salvia insignis* Kudr.), Korolkov marmarak (*Salvia korolkovii* Regel et Schmalh.), Margarita marmarak (*Salvia margaritae* Botsch.), Tyan-shan (*Salvia tianschanica* Makhm.), to‘mtoq marmarak (*Salvia submutica* Botsch. Et Vved.), havorang marmarak (*Salvia lilacinocaerulea* Nevski.) o‘simliklari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Dorivor o‘simliklarning shifobaxshligi – bu ularning tarkibida inson organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi kimyoviy moddalar: alkaloidlar, flavoidlar, glikozinlar, vitaminlar va boshqalar mavjudligi bilan baholanadi. Dorivor o‘simliklarning organizmga ta’siri ularning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Bu birikmalar o‘simliklarning vegetativ va generativ organlarida turli miqdorda to‘planadi. Dori tayyorlash uchun o‘simliklarning kerakli qismlari turli muddatlarda yig‘ishtirilib olinadi. Masalan, po‘stlog‘i, kurtagi, erta bahorda, barglari o‘simlik gullashi oldidan yoki gullaganda, meva va urug‘lari pishganda, ildiz, ildiz poyasi bahorda yoki kech kuzda olinadi.

O‘simlikdan yuqori hosil olish mo‘ljallangan vaqtda eng avvalo o‘simliklarning biologik xususiyatlarini bilish muhim ahamiyatga ega. O‘simlikning tashqi muhitda bo‘lgan talabi o‘rganilganda, bunda uning issiqlikka, yorug‘likka, suvga, ozuqaga va tuproqqa bo‘lgan talabi hisobga olinadi. O‘simlik turlari ma’lum bir tuproq va iqlim sharoitida shakllanadi va shu jarayonda o‘simlikda ma’lum bir biologik xususiyatlar vujudga keladi.

Meksika bangidevonasi o'simligi ekiladigan maydonlarga qanday o'tmishdosh ekin ekilishidan qat'iy nazar, o'tmishdosh ekindan bo'shagan maydon kuzda 30-35 sm chuqurlikda shudgor qilinib, kuzgi shudgor ostiga gektariga 20-30 tonnagacha yarim chirigan qora mol go'nggi, sof holda 70-80 kg/ga fosforli o'g'itlar bilan oziqlantirish lozim bo'ladi.

O'simlikning o'suv davri 160-170 kungacha boradi. Yetishtirilgan hosil yig'ishtirib olingandan so'ng uning ildiz va ang'iz qismi daladan tashqariga chiqarilishi va yoqib yuborilishi lozim. Shu tadbirlar amalga oshirilgandan so'ng kelgusi yil uchun dala shudgor qilinishi kerak.

Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligini ekishda o'tmishdosh ekinlarga e'tibor berish lozim. Chunki ituzumdoshlar oilasiga mansub bo'lgan o'simliklardan so'ng ekish tavsiya etilmaydi. O'simlik urug'i o'rtacha 4-5 sm chuqurlikda ekiladi. Odatda uning urug'i ekilgandan so'ng 5-6 kunda unib chiqadi. Uning maysalari unib chiqib to gullaguncha bo'lgan davr 100 kun atrofida bo'lishi kuzatilgan.

Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligining yosh nihollari begona o'tlarga unchalik bardosh berolmasligi sababli maysa hosil qilishi bilan qator oralariga ishlov barilishni kuchaytirish lozim. Bu ishlov davri Meksika bangidevonasini shonalash davrigacha davom ettiriladi. O'simlik 3-4ta chin barg chiqargandan keyin yagonalab, har bir uya orasini 60 sm.dan qilib 2tadan sog'lom ko'chat qoldirish mumkin. Qator oralariga keyingi ishlov berishda va begona o'tlarni yo'qotishda tuproqning zichlanishiga qarab davom ettirish lozim bo'ladi.

Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligining yaxshi o'sishi va rivojlanishi, hosilining ko'p bo'lishi eng avvalo unga berilgan o'g'itlar miqdoriga ham bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari o'g'itlar o'simlikning kimyoviy tarkibini o'zgarishiga ham ta'sir etadi. Shu sabab o'g'it miqdorini ham to'g'ri tanlay bilish kerak.

Yovvoyi holda o'sadigan yoki o'stiriladigan shifobaxsh o'simliklardan aholiga gazaklar hamda salatlar tayyorlash uchun yordam beradi. Bundan tashqari dorivor o'simliklarni foydalanishda albatta ularning kimyoviy tarkibi bilan birga uni o'stirish agrotexnologiyasini ham chuqur o'rganish kerak.

Meksika bangidevonasi o'g'itlash uning butun o'suv davri mobaynida, ayniqsa oziq moddalarga yuqori talab bo'ladigan davri: shonalash va gullash davrida oziq elementlari bilan ta'minlash uchun qo'llaniladi. Asosiy o'g'itlarni rejalashtirilgan o'g'it me'yorining asosiy qismi tuproqqa kiritiladi. O'simlik ekilgan joyning tuproq-iqlim sharoitlari va ayrim iqtisodiy-tashkiliy muammolaridan kelib chiqqan holda asosiy o'g'itlash ko'proq kuzda, ba'zi hollarda esa bahorda amalga oshiriladi.

Kaliy va fosfor yetishmagan maydonlarda to'la chiritilgan, so'ngra quritilgan go'ngni g'o'zani o'suv davrida mineral o'g'itlar bilan birga qo'shib ishlatish ham yaxshi samara beradi. Shunday qilinganda g'o'za hosildorligi 2-3 s/ga oshadi.

Agar umumiy biomassani chirindiga aylantirish koeffitsiyenti 0,3 % bo'lganda tuproqning haydov qatlamidagi chirindi balansi ortishiga olib keladi, shuningdek yarim chirigan qoramol go'ngini haydashdan oldin yerga solish ham ijobiy natija beradi. Go'ngning samaradorligi uni qo'llash usullariga ko'proq bog'liq bo'ladi. Masalan, go'ngni sochma usulda qo'llashga nisbatan lokal usulda berilganda hosildorlik 14-20 % gacha oshadi.

Dorivor o'simliklarning ko'pchiligi Yevropa davlatlarida va Rossiya Federatsiyasi hududlarida o'stirilganligi sababli ayrim o'simliklarning biologiyasi va o'g'itlash tizimi O'zbekistonda keng o'rganilmagan. O'zbekistonda dorivor o'simliklar dehqonchiligi bir muncha yangi yo'nalish bo'lganligi sababli barcha dorivor o'simliklar kabi Meksika bangidevonasi o'simligining biologiyasi va o'g'itlash tizimi bizning sharoitda hali deyarli o'rganilmagan.

Agrokimyoviy xaritanoma ko'rsatkichlari asosida tuzilgan tavsiyanomalar asosida o'g'itlar bilan oziqlantirilgan qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi 10-12, iqtisodiy samaradorlik 40-50 % ga ortadi va atrof-muhitning kimyoviy moddalar bilan ifloslanish darajasi kamayadi hamda yetishtirilgan mahsulot sifat ko'rsatkichlarini yaxshilanishiga erishiladi.

Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini oshirishda kaliyli o'g'itlarni azotli, fosforli va organik o'g'itlar bilan birgalikda qo'llaganda samaradorligi yanada yuqori bo'lishi ko'pchilik ilmiy tadqiqotlarda aniqlangan.

Ekinlar hosilini oshirishda fermerlar azotli o'g'it me'yori va qo'llash muddatlarini o'simliklarning azotga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda amalga oshirishi maqsadga muvofiq. Odatda o'simlikning azot o'g'itiga talabini tuproq va o'simlik tashxisi, ya'ni ularning namunalarini kimyoviy tahlili orqali aniqlashga asoslangan. Bularni amalga oshirishga esa juda mukammal kimyoviy tahlil laboratoriyasi, mablag' va vaqt talab qilinadi. Shu bilan birgalikda tuproq va o'simlik namunalarini olish va laboratoriyaga keltirish, tahlil qilishga ham vaqt sarflanadi. Bunday kimyoviy tahlillar asosida o'simlikning azotli holatini aniqlashni kamdan kam fermerlar amalga oshiradi. Shu sababli ham ular o'suv davrida azotli o'g'itlarni o'simlikning azotga bo'lgan talabini aniqlamasdan ham qo'llashadi. Ortiqcha me'yorda qo'llanilgan azotli o'g'it sarf xarajatlarni oshirishi bilan birga havoni ifloslantiradi, yer osti suvlari va hosil sifatiga ham tasir qiladi.

Ko'p yillar davomida surunkali o'simlik o'stirish va uning hosildorligi ortishi, shuningdek, yuqori me'yorlarda azotli va fosforli o'g'itlarni qo'llash natijasida tuproqlar tarkibidagi o'simliklarga layoqatli bo'lgan K_2O zahirasi kamayib ketadi. Bu esa, tuproqlar sharoitida o'simlik o'stirishda yuqori me'yorlarda kaliyli o'g'itini qo'llashni taqoza etmoqda.

Kaliy tuproqdagi harakatchanligi bo'yicha azot va fosfor oralig'ida bo'ladi. Shuning uchun ham kaliyli o'g'itlarni shudgor ostiga solinganda ham, oziqlantirishda

qo'llaganda ham yaxshi samara beradi. Kaliyli o'g'itlarni har qanday qo'llash muddatlarida ham, uni tuproqni nam bilan yetarli ta'minlangan chuqur qatlamlariga solish, qo'llanilgan o'g'itlar tarkibidan K_2O ni o'simliklar tomonidan ko'plab o'zlashtirilishiga olib keladi.

Kaliy yetarli miqdorda qo'llanilmaganda, NPK nisbatlari buziladi. Natijada, kaliy bilan yetarlicha ta'minlanmagan tuproq o'simlikni eng qulay oziqlanishini ta'minlay olmaydi. Shuning uchun kaliyli o'g'itlar me'yorini belgilashda tuproqlarni almashinuvchan kaliy bilan ta'minlanganligini hisobga olish kerakligini va shu asosda o'simlik uchun zarur bo'lgan kaliy me'yorini belgilash kerak

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1 Ataboyeva X.N. "O'simlikshunoslik" Toshkent, "Mehnat", 2000. – B. 22.
- 2 Atabayeva X.N., Umarova N.S. Шалфей мускатный. В книге Растениеводство. Ташкент, 2014. – С. 309-310.
- 3 Aliqulov S., Rasulov I., Abdullayev F., Nazarmetov X. Dorivor o'simliklar – xalqimizning tabiiy boyligidir. Academic Research in Yeducational Sciences, volume-3, issue-5. 2022, 984-990 betlar.
- 4 Gubanov I.A. Datura stromonium L. Дурман обыкновенный или вонучий// Иллюстрированный определитель растений Средней России. В 3т. М., Т-во науч. изд. КМК, Ин-т технолог. иссл., 2004. Т.3. s.164.
- 5 Korenkov D.A. Агрехимиуа азотных удобрение. М.: «Наука» 1976. S. 128.
- 6 Maxlayuk V.P. Лекарственные растениуа в народной медицине. Саратов, 1967. S. 560
- 7 Nazarov R. Intensiv texnologiya asosida g'o'zani o'g'itlash.// O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 2014. -№ 4. –B. 9.
- 8 Ruzmetov U.I., Safarova N.K., Muxsimov N.P., Ulugova S.F., Xayitov J.T. Tavsiyanoma. "Asteraceae oilasiga mansub istiqbolli dorivor o'simliklarni (tirnogul, moychechak, exinaseya) jadal etishtirish agrotexnikasi". Toshkent, 2021. B. 45.
- 9 To'xtayev B.Y., Allaberdiyev R. Botanika bog'i – O'zbekistonda o'simliklar genofondini saqlash va boyitishga yo'naltirilgan ilmiy maskan //O'simliklar introduksiyasi: yutuqlari va istiqbollari. Respublika anjuman materiallari. 2013. B. 10-12.
- 10 Qurbonaliyeva M.B., Turdiboyev O.A. O'zbekiston florasida *Salvia* L. turkumi turlari. O'simliklar introduksiyasi: yutuqlari va istiqbollari ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2018. - B. 277-278.

- 11 O‘zbekiston Respublikasi ekologiyasi va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining “Qizil kitobi” I jild, O‘simliklar. Toshkent, 2019. B. 4, 258-263.
- 12 Sharipova F.O. Dorivor o‘simliklarning shifobaxshlik xususiyatlari// “Biologiya va q.x. yutuqlari, muammolari va istiqbollari” mavzusida Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami – Urganch . UrDU. 2018 B. 67-68.
- 13 Dorivor va ozuqabop o‘simliklar plantatsiyalarini tashkil etish va xom ashyosini tayyorlash bo‘yicha yo‘riqnoma, Toshkent, 2015, - B. 35-37.
- 14 Schieder O. Somatic hybrids of *Datura innoxia* Mill// Molecular and General Genetics MGG. -2008. –T. 162. –C.112-119.
- 15 Schieder O. somatic hybrids of *Datura innoxia* Mill. *Datura discolor* Bernh and of *Datura innoxia* Mill. *Datura stramonium* L. var *tatula* L. // Molecular and General Genetics MGG.-2008. –T.162. –C 131-139.

DORIVOR O‘SIMLIKLAR INTRODUKSIYASI VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Po‘latov Sarvar Mustafoyevich,

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD)*

Zayniddinova Sarvinoz Xamza qizi,

*Dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi
yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Sayfiddinov Sahobiddin Faxriddin o‘g‘li,

Agronomiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Respublikamiz hududida dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish, xorijiy davlatlarning ilg‘or ilmiy ishlanmalarini o‘rganib borish, yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o‘rnatish hamda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikaga joriy etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2020-yil 26-noyabrdagi PQ-4901-sonli qarori qabul qilindi.

Farmasevtika sanoati va aholini dorivor o‘simlik xom-ashyosiga bo‘lgan talabini qondirish va o‘simlik xom-ashyosi asosida zamonaviy dori-darmonlar ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 5-avgustdagi 222-sonli majlisi bayonining 3-bandida ko‘rsatilgan – “Dorivor o‘simlikshunoslik va yangi dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarini tashkillashtirish uchun dorivor o‘simliklarni sanoat miqyosida plantatsiyalarini yaratish” va 2015-yil 20-yanvardagi 5-sonli “2015-2017 yillarda o‘rmon ho‘jaliklari tizimini rivojlantirish, dorivor va oziqabop o‘simliklar xom-ashyosini yetishtirish, tayyorlash va qayta ishlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi majlis bayonnomasining 1.12-bandi ijrosini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, eramizdan oldingi VI asrda yunon faylasufi Anaksimandr yer kurrasini havo o‘rab turganligini isbotladi. Ammo havoning tarkibida qanday moddalar borligini aniqlash uchun olimlar 24 asrdan keyin jazm etdilar. Shisha qalpoq ichiga qamalgan sichqonlar undagi kislorodni sarf qilib bo‘lgach halok bo‘ladi. Havoning qolgan qismini karbonat angidridan tozalagach u nafas olish uchun mutlaqo yaroqsiz ekanligini kuzatgan ingliz olimi Daniel Rezerford bu gazga “zaharli havo” deb nom berdi. Keyinchalik bir nechta olimlar bu tajribani boshqacha uslubda tekshirib

hosil bo'lgan gazga turlicha nom berishdi. 1776-yili fransuz olim Lavuaze bu tajribalarning hammasini tekshirib ko'rib, turli nomlar bilan atalgan gazlar aslida bir moddaning o'zi ekanligini isbotladi va uni azot deb atadi.

Ilmiy tadqiqotlarda mineral o'g'itlarning eng to'liq o'zlashtirilishi uchun ularni berish me'yorlarini muayyan sharoitlarga muvofiq holda to'g'ri aniqlash juda muhimdir. Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda o'simlik mineral o'g'itlarning har xil ta'sir etishi shuni ko'rsatadiki, mazkur tuproqlar o'zining unumdorligi bo'yicha turlichadir. Bu tuproqlarda mineral o'g'itlarni berish me'yorlari tuproq unumdorligi va olinadigan hosil o'lchamini hisobga olgan holda farqlanishi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekiston florasida mavjud bo'lgan *Salvia L.* turkumining 22 turi borligi tanqidiy tahlili asosida aniqlandi. U o'z tadqiqotlarida mazkur turkumning O'zbekiston florasidagi mavjud turlarining sistematikasi, geografiyasi, tabiiy populyatsiyalarining zamonaviy holati, xaritalash kabi izlanishlarini olib borgan.

O'simliklar introduksiyasi sohasida o'tkaziladigan tadqiqotlar flora tarkibini yanada boyitish, tabiiy o'simliklar resurslaridan samarali foydalanish, respublikamiz aholisi va ishlab chiqarishi uchun kerakli bo'lgan foydali o'simlik turlarini tanlab olish va madaniylashtirish, seleksiya ishlarini yanada kengaytirish, istiqbolli yangi o'simlik navlarini yaratish, pirovard natijada, vatanimizning oziq-ovqat va ekologik xavfsizligini ta'minlanishiga zamin yaratadi.

Muskat mavragi tarkibidagi efir moyi (0,35 %) bo'lib, parfyumeriya, oziq-ovqat va qandolat sanoati hamda vinochilikda ishlatiladi. Krasnodar o'lkasida o'stiriladi. Gullari hosildorligi esa 0,3-0,4 t/ga.ni tashkil etadi. O'simlikning bo'yi 70-130 sm. Gullari asosan pushti yoki oq rangda bo'ladi. 1000 ta urug'ining vazni 3-4 g. Urug'larni keng qatorlab (45 sm) ekilganda 2 mln, oddiy qatorlab (15 sm) ekilganda esa 3-4 mln gektariga urug' sarflanadi. Urug'lar 2-3 sm chuqurlikka ekilib, urug'lar 10-12 °C da unib chiqishni boshlaydi. Mavrak o'simligi issiq va namlikni yaxshi ko'radi. Mavrakni almashlab ekilmaydigan joyga ekilib, 2-3 yil davomida yetishtiriladi. Gektariga 20-25 tonna go'ng beriladi. Hosildorlikni terib olishning eng qulay muddati bu – urug'larning qizarishi bilan boshlanadi.

O'zbekiston hududida tabiiy holda 4500 turga yaqin yuksak o'simliklar tarqalgan, ularning 1200 ga yaqin turlari dorivorlik xususiyatlariga ega. Hozirgi paytda Respublikamizda 112 turdagi dorivor o'simliklar rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan bo'lib, ularning 80 %ini tabiiy holda o'suvchi o'simliklar tashkil etadi.

O'zbekistonda dorivor o'simliklarni turli tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirish, ularning bioekologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ham tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi florasida mavjud dorivor o'simliklar zahirasini asrash va introduksiya hisobiga boyitish mutaxassislar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Keyingi yillarda Respublikamizda farmasevtika sanoati jadallik

bilan rivojlanmoqda va dorivor o'simliklarga bo'lgan talab kun sayin ortmoqda. Bu esa, yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklarni madaniylashtirishni taqozo etmoqda. Shu sababdan tabiatda uchraydigan hamda chet el florasiga mansub dorivor o'simliklarni introduksiya qilish, introduksiya sharoitida ularning bioekologik xususiyatlari, ko'paytirish usullarini o'rganish hamda yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda fanga ma'lum bo'lgan o'simliklar nav va shakllari uzun kun o'simliklari bo'lishi bilan birga barcha shakllarning yorug'likka bo'lgan talabi bir-biridan farq qiladi. O'suv davrida kunlik yorug'likning 9-10 soatdan kam bo'lganda o'simlikning butunlay gullamasligi yoki juda kech gullashi kuzatiladi. Ko'p hollarda yorug'lik yetishmaganda o'simlik barglari asta-sekin sarg'ayadi yoki qizaradi va nihoyat kasallanib, nobud bo'ladi.

Qo'llanilayotgan o'g'it me'yor va turiga qarab Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligining hosildorligini o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ o'g'iti gektariga 100 kg/ga miqdorida qo'llanilganda o'simlikning bargi, guli, urug'i va poyasi tarkibidagi skopolamin moddasi maksimal darajada bo'lishi aniqlangan. Xuddi shu miqdorda $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$ o'g'iti qo'llanilganda bitta o'simlikdagi mevalar soni 28 tadan 36tagacha, har bir mevaning og'irligi 60,5 g.gacha bo'lishi aniqlangan. Fosforli o'g'itlarni me'yor ham 100 kg/ga bo'lganda N va P ni miqdorini 120 kg/ga oshirilishi bitta o'simlikdagi mevalar soni 26-38 dona, har bir mevaning og'irligi 58,5-59,3 g bo'lishi aniqlangan.

Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligi rivojlanishining nisbatan kechroq muddatlarida oziqa elementlariga bo'lgan talabi kuchayadi. Shundan so'ng o'simlik tomonidan oziqa moddalarning maksimal darajada o'zlashtiriladigan davri deb yuritiladi. Bu esa o'z navbatida o'simlikning ko'p hollarda quruq biomassa to'playdigan davriga to'g'ri keladi.

Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill) o'simligini oziqlanishini ko'pgina o'simliklar singari uning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqarish mumkin.

Tadqiqotlar asosida Meksika bangidevonasi o'simligida azot va fosforga nisbatan tanglik davri paydo bo'lgandan keyingi 10-15 kunlarda kuzatilishi aniqlangan. Rivojlanishning ilk davrlarida K yetishmovchiligi kuzatilsa hosildorligi keskin kamayib ketadi. N va P yetishmovchiligi odatda erta bahorda, mikroorganizmlar faoliyati sust bo'lganda namoyon bo'ladi.

Meksika bangidevonasi (*Datura innoxia* Mill)ning ekish muddatlaridan keyin o'g'it bilan ishlov berish uning kimyoviy tarkibini har xil bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Xususan, bargining tarkibida 0,26-0,46 %gacha alkaloidlar bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Asosiy alkaloidi skopolamin. Bargida skopolaminning miqdori 0,19-0,36

%gacha bo'radi. Skopolamin moddasini tinchlantiruvchi xususiyati mavjudligi tufayli farmasevtikada foydalaniladi. Bu alkaloidlar tarkibidagi atropindan farqi hisoblanadi.

Ekish me'yorini va muddatini to'g'ri belgilash shuning uchun ham muhimki, bunda o'simlikning morfobiologik rivojlanishi mo'tadil bo'lib o'simlik o'zining barcha imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi va hosildorligi eng yuqori bo'ladi. Uzoq yillik laboratoriya va amaliy kuzatishlardan shu narsa aniqlanganki, ekish muddatlaridagi o'zgarishlar o'simlikning vegetatsiya davriga va hosildorligiga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan.

Yovvoyi holda o'sadigan yoki o'stiriladigan shifobaxsh o'simliklardan aholiga gazaklar hamda salatlar tayyorlash uchun yordam beradi. Bundan tashqari dorivor o'simliklarni foydalanishda albatta ularning kimyoviy tarkibi bilan birga uni o'stirish agrotexnologiyasini ham chuqur o'rganish kerak.

Qo'llaniladigan azotli va fosforli o'g'itlar me'yorini ortib borishi bilan, mexanik tarkibi og'ir tuproqlarda o'simliklar tomonidan K_2O ni o'zlashtirishi 14 %dan 49 %gacha, qumoq tuproqlarda esa 26 %dan 37 %gacha ortganligi aniqlangan.

Azotli o'g'itlar odatda bo'lib-bo'lib solinadi: ekish bilan birga va o'sish davrida. Ekish bilan birga solinadigan azotning samaradorligi o'zgarib turadi va zonaning iqlim, tuproq va agrotexnik sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Ekish bilan birga azotning yillik me'yorining 20 %gacha miqdori solinishi tavsiya etiladi.

Bir dalada surunkali bitta o'simlik yetishtirish va yetarli miqdorda mineral va organik o'g'itlarni qo'llamaslik, tuproqlar tarkibidagi almashinuvchan NPK zahirasini kamayishiga va o'simlik hosilini pasayishiga olib keladi.

Ekinlar har yili o'zining hosili bilan tuproqdan ma'lum miqdordagi ozuqa elementlarni olib ketadi. Shu sababdan, tuproqda ayrim ozuqa elementlarining miqdori kamayib boradi. Tuproqdan har yili hosil bilan olib chiqilgan moddalarning miqdori o'simlik turi, hosilning miqdori, tabiiy iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Bu jarayon tuproq unumdorligiga ta'sir etadi. Tuproq unumdorligini yuqori darajada saqlash va ekinlardan mo'l hosil olish uchun tuproqqa o'g'it solish tavsiya etiladi. O'g'itlardan samarali foydalanish hisobiga marjumak hosildorligini bir necha barobar oshirish mumkinligi olimlar tomonidan ilmiy asoslangan.

Azot o'simliklar uchun muhim oziqa manbai hisoblanib, u azotli o'g'it sifatida dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham keng qo'llaniladi. Azotli o'g'itlarni ortiqcha qo'llash atrof muhitni ifloslantirishi ko'pchilikka ma'lum. Tadqiqotchilar azotdan foydalanish samaradorligini oshirish, sarf xarajatlar va noyob yer osti suvlarini ifloslanishini kamaytirish maqsadida ekinning amal davrida o'simliklarni talabiga binoan azot me'yorlarini aniqladilar.

Ekinlar hosilini oshirishda fermerlar azotli o'g'it me'yori va qo'llash muddatlarini o'simliklarning azotga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda amalga oshirishi maqsadga muvofiq. Odatda o'simlikning azot o'g'itiga talabini tuproq va o'simlik

tashxisi, ya'ni ularning namunalarini kimyoviy tahlili orqali aniqlashga asoslangan. Bularni amalga oshirishga esa juda mukammal kimyoviy tahlil laboratoriyasi, mablag' va vaqt talab qilinadi. Shu bilan birgalikda tuproq va o'simlik namunalarini olish va laboratoriyaga keltirish, tahlil qilishga ham vaqt sarflanadi. Bunday kimyoviy tahlillar asosida o'simlikning azotli holatini aniqlashni kamdan kam fermerlar amalga oshiradi. Shu sababli ham ular o'suv davrida azotli o'g'itlarni o'simlikning azotga bo'lgan talabini aniqlamasdan ham qo'llashadi. Ortiqcha me'yorda qo'llanilgan azotli o'g'it sarf xarajatlarni oshirishi bilan birga havoni ifloslantiradi, yer osti suvlari va hosil sifatiga ham tasir qiladi.

Ko'p yillar davomida surunkali o'simlik o'stirish va uning hosildorligi ortishi, shuningdek, yuqori me'yorlarda azotli va fosforli o'g'itlarni qo'llash natijasida tuproqlar tarkibidagi o'simliklarga layoqatli bo'lgan K_2O zahirasi kamayib ketadi. Bu esa, tuproqlar sharoitida o'simlik o'stirishda yuqori me'yorlarda kaliyli o'g'itini qo'llashni taqoza etmoqda.

Kaliy tuproqdagi harakatchanligi bo'yicha azot va fosfor oralig'ida bo'ladi. Shuning uchun ham kaliyli o'g'itlarni shudgor ostiga solinganda ham, oziqlantirishda qo'llaganda ham yaxshi samara beradi. Kaliyli o'g'itlarni har qanday qo'llash muddatlarida ham, uni tuproqni nam bilan yetarli ta'minlangan chuqur qatlamlariga solish, qo'llanilgan o'g'itlar tarkibidan K_2O ni o'simliklar tomonidan ko'plab o'zlashtirilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1 Ataboyeva X.N. "O'simlikshunoslik" Toshkent, "Mehnat", 2000. – B. 22.
- 2 Gubanov I.A. *Datura stramonium L. Дурман обыкновенный или вонучий// Иллюстрированный определитель растений Средней России. В 3т. М., Т-во науч. изд. КМК, Ин-т технолог. иссл., 2004. Т.3. s.164.*
- 3 Ismoilova S. Farmasevtika sanoati uchun noyob dorivor o'simliklarni etishtirish. "Science and Education" Scientific Journal, 2020, volume-1, issue-3. 111-115 betlar.
- 4 Kalandarov B. "Sholi navlarini o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga urug' ekish me'yori va ma'dan o'g'itlarning ta'sirini o'rganish mavzusida"gi dissertatsiyasi. Toshkent 2020-yil, 15-bet.
- 5 Nasriddinova M.R. Satureja Montana L-istiqbolli dorivor o'simlik// "Проблемы ратционного исползованиуа и охрана биологических ресурсов ужногo приаралуа". VI-Межд. науч. практ. конф. – Nukus, 2016. S. 12-13.
- 6 Nuriddinov H. Azot – tiriklik sharti. Qishloq hayoti gazetasi, 2023 yil 23 yanvar. 1-3 betlar.
- 7 To'xtayev B.Y., Safarov A.S., Eshonkulov B.I. Buxoro vohasining sho'r tuproqlarida dorivor o'simliklar introduksiyasi va xususiyatlari. //O'simliklar

- introduksiyasi: muammolari va istiqbollari: Ilmiy-amaliy koferensiyasi materillari. Xiva, 2003. B. 96-98.
- 8 Utiniyazov P. Organik o'g'itlarni lokal solish texnologiyasi // AGRO ILM. 2016. -№ 1 (39). –B. 70-71.
 - 9 O'rinov D., Ismoilova Z., Mineral o'g'itlardan foydalanishning o'simliklarining o'sib rivojlanishiga ta'siri. Международный научный журнал, "Новости образования: исследование в XXI веке" 2022 г, 4 (100), chast-1, 153-155 betlar.
 - 10 Qarshiboyev X.Q., Abduxoliqov F., Tog'ayeva D. Manzarali va dorivor o'simliklarni introduksiya qilish sohasidagi muammolar. O'simliklar introduksiyasi: yutuqlari va istiqbollari ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2018. - B. 16-19.
 - 11 Krimbiegel G., Schieder O., Selection of Somatik hubrids after fusion of protoplasts from *Datura innoxia* Mill.// Journal Planta. 1999. T. 145. №4. P. 371-375.
 - 12 King J., Horsch R.B., Sarage A.D. "Partial characterization of two stable auxotrophic cell strains of *Datura innoxia* Mill// Planta. -2000.-T 149. –C480-484.
 - 13 Robinzon N.J. Plant Science -2008 Vashington S 197-204.
 - 14 Schieder O. Molecular and General Genetics MGG. 1996. Vashington S 251-254

INVESTIGATION OF THE CHARACTERISTICS OF HEPATIC ENCEPHALOPATHY OCCURRING IN VIRAL ETIOLOGY LIVER CIRRHOSIS IN RELATION TO INTESTINAL DYSBIOSIS

*Sultonova Gulruh Yunusaliyevna
Po'latova Niginabonu O'tkir qizi
Yo'ldashova So'g'diyona O'tkirjon qizi
Tashkent Medical Academy, Uzbekistan*

Keywords: liver cirrhosis, hepatic encephalopathy, intestinal dysbiosis.

Abstract: This experimental article aimed to assess the clinical and laboratory characteristics of liver encephalopathy arising in the context of viral etiology liver cirrhosis, with consideration given to intestinal dysbiosis. A significant positive correlation between the severity of hepatic encephalopathy and the degree of intestinal dysbiosis was found during our research.

As the severity of intestinal dysbiosis increases, it leads to an increase in the number of pathogenic microorganisms in the intestines, which leads to an increase in serum ammonia levels in the bloodstream of patients. This increased ammonia concentration is associated with increased hepatic encephalopathy. In particular, when the amount of ammonia is 1.5 times higher than the norm, symptoms of minimal hepatic encephalopathy appear.

Introduction. Hepatic encephalopathy (HE) manifests in both acute and chronic liver conditions, presenting with cerebral dysfunction and encompassing neurocognitive alterations. Clinical severity is assessed through the West Haven scale, categorizing it into four levels. Minimal hepatic encephalopathy, also known as latent HE, lacks obvious clinical manifestations, necessitating additional diagnostic measures for confirmation [1, 3]. Despite retaining temporal and spatial accuracy at level 1, patients exhibit various cognitive and behavioral disruptions. Level 2 signifies impaired temporal precision. Level 3 indicates the loss of both temporal and spatial accuracy, resulting in a Glasgow scale score of > 8 . At level 4, patients are unresponsive to pain and score < 8 on the Glasgow scale [4,5].

Minimal hepatic encephalopathy represents the mildest manifestation of HE, marked by the absence of evident cognitive and mental deficits. The prevalence of minimal hepatic encephalopathy ranges from 20% to 80%, with various studies indicating that hepatic encephalopathy can emerge in cirrhotic patients over time. The variability in these figures is attributed to variations in diagnostic criteria and testing methods employed for detection. Numerous theories regarding the development of hepatic encephalopathy exist, yet their underlying mechanisms remain to be definitively validated [2, 6]. However, there is consensus around the notion of compromised detoxification of neurotoxins in the bloodstream due to liver dysfunction and/or the existence of portosystemic shunts, resulting in alterations in brain neurotransmission. Ammonia NH_3 /ammonium NH_4^+ system is recognized as a pivotal neurotoxin implicated in the pathogenesis of hepatic encephalopathy.

Patients in advanced stages of liver cirrhosis frequently encounter clinical decompensation accompanied by compromised intestinal motility and portal hypertensive vasculopathy. Moreover, alterations in bile acid flow lead to a reduction in the bacteriostatic activity of bile salts, exacerbating endotoxemia and elevating the likelihood of liver disease complications. The intestinal dysfunction observed in cirrhosis patients, marked by shifts in motility and permeability, bacterial overgrowth, and bacterial translocation, heightens the susceptibility to cirrhosis-related complications like bacterial peritonitis and hepatic encephalopathy [4, 5].

However, according to a 2007 survey by the American Association for the Study of Liver Diseases, the majority of physicians acknowledged minimal hepatic encephalopathy as a significant yet inadequately researched issue. Surprisingly, only half of the physicians actively screened for minimal hepatic encephalopathy in individuals with liver cirrhosis, and nearly 40% never conducted a psychometric assessment on these patients [3].

The purpose of the study is to evaluate the clinical and laboratory features of hepatic encephalopathy in viral liver cirrhosis in relation to intestinal dysbiosis.

Materials and Methods. Throughout our study, we observed 115 patients ranging in age from 19 to 66 years who had initially been diagnosed with liver cirrhosis. Initially, all patients were categorized as A, B, or C based on the Child-Pugh scale. The mean age of the observed patients was 36.7 ± 3.3 years. The distribution between males and females was 60% and 40% (62 and 42 patients, respectively). According to the analysis of etiological factors of patients with liver cirrhosis, liver cirrhosis caused by HDV-42 (36.5%) prevailed over others. 33 (28.7%) liver cirrhosis patients with HBV etiology. Based on the Child-Pugh scale, 51 (44.3%) patients diagnosed with liver cirrhosis were classified as class A, 37 (32.2%) as class B, and 27 (23.5%) as class C.

To confirm the clinical diagnosis, comprehensive patient history, clinical examination, and standard laboratory methods were conducted. Objective assessments involved anthropometric measurements such as patients' height, weight, and body mass index calculated using the Ketel formula.

Hematological analysis was conducted using hematological analyzers to determine parameters such as hemoglobin, leukocyte, erythrocyte, thrombocyte counts, and erythrocyte sedimentation rate.

Biochemical blood analysis, which included assessing total bilirubin, total protein, and albumin levels, as well as the activity of enzymes such as aspartate aminotransferase (AST) and alanine aminotransferase (ALT), was performed using photometric methods on the Mindray BA 88 Semi-Auto Chemistry automatic biochemical analyzer.

To identify the causative factor, immunoenzyme analysis was conducted using a range of diagnostic test systems. Molecular-biological analysis was employed to detect the RNA or DNA of the virus qualitatively, along with assessing viral load quantitatively in blood serum through polymerase chain reaction (PCR) utilizing TaqMan and FRET technology. The Rotor-Gene Q QIAGEN kit was utilized for time-mode amplification.

For early detection of minimal hepatic encephalopathy symptoms, several tests were performed. These included the corridor test to assess fine motor skills, a number-

dialing test (1 to 25) to evaluate concentration levels, the "10 words" test to gauge short-term memory, speech assessment, and observation for the presence of asterixis. The test was timed for 40 seconds. Achieving a completion rate of 90-100% within this time frame is considered normal. A completion rate of 75-85% suggests the presence of minimally active hepatic encephalopathy, while a rate of 70% or below indicates marked hepatic encephalopathy. The patient is presented with a set of 10 simple, unrelated words and asked to repeat them after they are read slowly. This process is repeated until the patient successfully recalls all 10 words, but no more than 5 times. Standard evaluation criteria include memorizing 4-5 words on the first attempt and recalling all 10 words between 3-5 repetitions. If the patient cannot memorize the words even after 5 repetitions, it indicates encephalopathy of minimal activity, speech disorder checked, the presence of asterixis was determined.

Results and Discussion. All 115 participants in the study were categorized into three groups based on the Child-Pugh scale. Patients in Group 1 were classified as class A, those in Group 2 as class B, and individuals in Group 3 as class C. In the study, we assessed the risk of liver encephalopathy development and the clinical progression of liver cirrhosis among patients with viral etiology cirrhosis, categorized by stages of liver encephalopathy: stage 0 for minimal, stage 1 for mild, stage 2 for moderate, stage 3 for severe, and stage 4 for severe (see Figure 1).




Figure 1. Rate of detected hepatic encephalopathy in patients with liver cirrhosis during follow-up (n=115,%)

Subsequently, an examination was conducted to assess the degree of intestinal dysbiosis among patients stratified into groups based on the Child-Pugh classification of liver cirrhosis, with the intensity of intestinal dysbiosis correlating to the severity of liver cirrhosis classes.

The statistical analysis revealed a significant correlation between the Child-Pugh classification of intestinal dysbiosis or liver cirrhosis and the severity of hepatic encephalopathy ($r=1.0$) ($P<0.05$). According to the findings, it was observed that

minimal hepatic encephalopathy was present in 44.2% of cases within Class A of the Child-Pugh scale for liver cirrhosis and the first level of intestinal dysbiosis. Moreover, the severity of hepatic encephalopathy was found to escalate with the progression of intestinal dysbiosis. In instances where patients were classified as Class C in the Child-Pugh scale of liver cirrhosis or exhibited the third level of intestinal dysbiosis, 63.0% experienced hepatic encephalopathy of the first degree, while 37.0% experienced the second degree (see Figure 2).




Figure 2. The association between the degree of intestinal dysbiosis and the severity of liver encephalopathy identified in patients undergoing follow-up for liver cirrhosis.

To ascertain the correlation between the severity of hepatic encephalopathy and intestinal dysbiosis, the microbiological findings of patients in the study cohorts were scrutinized. According to the collected data, there was a concurrent rise in the prevalence of pathogenic microorganisms in the intestines with the escalation of intestinal dysbiosis severity. Consequently, this increase in pathogenic microorganisms contributed to the exacerbation of hepatic encephalopathy symptoms. A statistically significant correlation was observed between the escalation in the quantity of pathogenic microorganisms within the intestines and the severity level of hepatic encephalopathy ($r=0,98$) ($P<0,05$).

To elucidate the causal relationship between pathogenic microorganisms within the intestines and hepatic encephalopathy, we conducted a comparative analysis of the serum ammonia levels among patients within the observational research groups with varying degrees of hepatic encephalopathy.

When the incidence of intestinal dysbiosis was studied according to the Child-Pugh scale of liver cirrhosis, the severity of intestinal dysbiosis was related to the

grades of liver cirrhosis. In the majority of patients (37.4%) diagnosed with class A liver cirrhosis, the first degree of intestinal dysbiosis was identified, with only 6.9% diagnosed with the second degree of dysbiosis. Among those with class B liver cirrhosis, the majority (29.5%) exhibited the second degree, while 1.8% displayed the third degree of dysbiosis. All patients classified under class C liver cirrhosis presented with the third degree of intestinal dysbiosis (23.5%). Thus, a significant positive correlation was observed between the severity of dysbiosis and the class of liver cirrhosis according to the Child-Pugh scale ($r=0.82$; $P<0.01$). These findings indicate that as the severity of liver cirrhosis increases, there is a corresponding decrease in the normal intestinal biocenosis, coupled with an increase in the presence of opportunistic and pathogenic microorganisms detrimental to human health.

According to the analysis, the mean ammonia level in patients without hepatic encephalopathy was $36.9\pm 0.78 \mu\text{mol/l}$, closely approximating the value observed in healthy volunteers ($37.6\pm 0.12 \mu\text{mol/l}$). Conversely, in patients with minimal hepatic encephalopathy, the ammonia concentration increased by 1.5 times compared to healthy volunteers, averaging $53.7\pm 0.4 \mu\text{mol/l}$. For patients diagnosed with grade 1 hepatic encephalopathy, the ammonia level was $58.8\pm 0.08 \mu\text{mol/l}$ (increased by 1.6 times), while for those with grade 2, it rose by 1.8 times, with an average of $66.2\pm 0.53 \mu\text{mol/l}$. A statistically significant moderate correlation was identified between the serum ammonia level and the severity of hepatic encephalopathy ($r=0.958$), underscoring the significance of this association ($P<0.05$) (see Figure 3).




Figure 3. The correlation between serum ammonia levels and the severity of hepatic encephalopathy among patients within the observation group ($\mu\text{mol/l}$).

Upon analysis of clinical manifestations of hepatic encephalopathy within the observational research groups, it was noted that even among patients without evident hepatic encephalopathy, 2.9% exhibited symptoms of memory impairment and attention deficits, 17.6% displayed affective symptoms, and 29.4% reported sleep disturbances. No clinical signs of disorientation, depression, apathy, or behavioral abnormalities were observed in this subgroup. However, in cases of minimal hepatic

encephalopathy, the prevalence of these symptoms increased, with rates of 37.5%, 25.0%, 38.3%, and 64.6% for memory impairment, attention deficits, affective symptoms, and sleep disturbances, respectively. Additionally, rates of disorientation, depression, apathy, and behavioral abnormalities were recorded at 4.2%, 4.2%, 12.6%, and 39.5%, respectively (See Figure 4).




Figure 4. Incidence of signs of hepatic encephalopathy in patients under observation

According to the findings depicted in Figure 4, attention deficits were prevalent in nearly all patients diagnosed with grade 2 hepatic encephalopathy, occurring in 90% of cases. Patients experiencing grade 2 hepatic encephalopathy exhibited disorientation and depression at a rate 12 times higher (50.0%) than those with minimal hepatic encephalopathy. Similarly, apathy and behavioral abnormalities were observed at a rate 5 times higher (60.0%) in patients with grade 2 hepatic encephalopathy compared to those with minimally active hepatic encephalopathy.

Based on the data obtained, it can be inferred that within class A of liver cirrhosis with concurrent intestinal dysbiosis, minimal hepatic encephalopathy manifests in 44.2% of instances. There exists a significant positive correlation between the severity of hepatic encephalopathy and the extent of intestinal dysbiosis. As the severity of intestinal dysbiosis escalates, it induces an elevation in the abundance of pathogenic microorganisms within the intestines, subsequently leading to an increase in serum ammonia levels in patients' bloodstreams. This heightened ammonia concentration correlates with the exacerbation of hepatic encephalopathy. Specifically, an ammonia level 1.5 times higher than the norm triggers the onset of minimal hepatic

encephalopathy symptoms. Moreover, a 1.8-fold increase in ammonia levels precipitates disorientation and depression symptoms in 50.0% of cases, as well as apathy and behavioral abnormalities in 60.0% of cases.

Conclusion.

1. A robust positive correlation exists between the severity of liver cirrhosis according to the Child-Pugh scale and the extent of disruption in intestinal microflora ($r = 0.83$).

2. In 44.6% of cases involving class A liver cirrhosis or the first degree of intestinal microflora disturbance, minimal hepatic encephalopathy was identified, characterized by a 1.5-fold increase in serum ammonia levels compared to the norm. Furthermore, a significant positive correlation was established between the severity of liver cirrhosis or intestinal microflora disturbance and the degree of hepatic encephalopathy ($r=0.93$). Additionally, 37.0% of patients diagnosed with class C liver cirrhosis or the third degree of intestinal microflora disturbance exhibited grade II hepatic encephalopathy.

Conflict of interest. The authors declare no conflict of interest.

References:

1. Akhmedova M. D., Sultonova G.Yu., Bektimirov A.M.-T. The state of intestinal microflora in patients with cirrhosis of the liver of viral etiology and the correction of its treatment. HIV infection and immunosuppression–2021–June–. Vol. 13, No.1– P. 97-105.
2. Bajaj, J.S.; Pinkerton, S.D.; Sanyal, A.J.; Heuman, D.M. Diagnosis and treatment of minimal hepatic encephalopathy to prevent motor vehicle accidents: A cost-effectiveness analysis. *Hepatology*. –2012, – Sept– T. 55. – P. 1164–1171.
3. Carrat F. Clinical outcomes in patients with chronic hepatitis C after direct-acting antiviral treatment: a prospective cohort study. *Lancet (London, England)*, vol. –2019, – Mar. – T. 393. № 10179. – P.1453–1464.
4. Fukui, H. Gut-liver axis in liver cirrhosis: How to manage leaky gut and endotoxemia. *World J. Hepatol.* 2015. – N 7. – P. 425–442.
5. Younossi ZM, Golabi P, Henry L. A Comprehensive Review of Patient-reported Outcomes in Patients with Chronic Liver Diseases. *J Clin Gastroenterol.* 2019. – N53(5). –P. 331-341
6. Zhou J., Zhou F., Wang W., Zhang X.J., Ji Y.X., Zhang P. et al. Epidemiological feature of NAFLD from 1999 to 2018 in China. *Hepatology.* 2020. 71. 5): 18 – P.51–64.
7. Sharma, B.C.; Lunia, M.K.; Sharma, P.; Sachdeva, S.; Srivastava, S. Probiotics prevent hepatic encephalopathy in patients with cirrhosis: A randomized controlled trial. *Clin. Gastroenterol. Hepatol.* 2014, 12, 1003–1008.

FUNKSIONAL FAZOLAR

*Xakimjonova Sarvinoz
Rahmatjonov Mirzohidjon
Solijonov Ibrohimjon*

*Amaliy matematika (sohalar bo'yicha) yo'nalishi 1-kurs
magistratura talabalari Farg'ona davlat universiteti*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola funksional fazolar masalasining qo'yilishini o'rganish, xatoligini baxolash va olingan bilimlarni mustahkamlab amaliyotda qo'llay bilish, turli fazolar formulalarini o'rganib, bilimlarni amaliyotda qo'llashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Funksional fazolar, integral formalar uchun fazolar, integral formalar.

АННОТАЦИЯ

Данная статья направлена на изучение проблемы функциональных пространств, оценку ее ошибок и закрепление полученных знаний и применение их на практике, изучение формул различных пространств и применение знаний на практике.

Ключевые слова: Функциональные пространства, пространства для целостных форм, интегральные формы.

ABSTRACT

This article is aimed at studying the problem of functional spaces, assessing its errors and strengthening the acquired knowledge and applying it in practice, studying the formulas of different spaces and applying knowledge in practice.

Key words: Functional spaces, spaces for integral forms, integral forms.

Funksional fazolar bu amallar bilan birgalikdagi funksiyalar majmuasidir. Masalan,

$$C(\Omega) = C^0(\Omega) = \{u(x), \Omega \text{ da uzluksiz funktsiya}\}, \quad (2.1)$$

bu Ω da uzluksiz bo'lgan funksiyalarni o'z ichiga oladi, bunda Ω funksiyalar aniqlangan soha, ya'ni $\Omega = [0, 1]$. Bu fazo chiziqli, chunki ixtiyoriy haqiqiy α va β sonlar va $u_1 \in C(\Omega)$ va $u_2 \in C(\Omega)$ lar uchun $\alpha u_1 + \beta u_2 \in C(\Omega)$ ga ega bo'lamiz.

Bir o'lchovli holda birinchi tartibli hosilasi bilan uzluksiz funksional fazo bu

$$C^1(\Omega) = \{u(x), u'(x), \Omega \text{ da uzluksiz funktsiyalar}\}, \quad (2.2)$$

va huddi shunday

$$C^m(\Omega) = \{u(x), u'(x), \dots, u^{(m)}(x), \Omega \text{ da uzluksiz funktsiyalar}\}. \quad (2.3)$$

Malumki,

$$C^0 \supset C^1 \supset \dots \supset C^m \supset \dots \quad (2.4)$$

U holda $m \rightarrow \infty$ da quyidagini aniqlaymiz

$$C^\infty(\Omega) = \{u(x) \text{ функция } \Omega \text{ da cheksiz differentsiallanuvchi}\} \quad (2.5)$$

Masalan, e^x , $\sin x$, $\cos x$ va ko'phadlar $C^\infty(-\infty, \infty)$ ga tegishli, ammo $\log x$, $\tan x$, $\cot x$ kabi ba'zi boshqa elementar funksiyalar agar $x=0$ nuqta sohaga tegishli bo'lsa u fazoga tegishli emas.

Ko'p o'lchovli fazolar va ko'p indeksli belgilashlar. Endi ko'p o'lvhovli $u(x) = u(x_1, x_2, \dots, x_n)$, $x \in R^n$ funksiya va hususiy hosilalar uchun ifodalarni soddalashtiradigan mos ko'p indeksli belgilashlarni qaraymiz. Biz R^n dagi butun vektor uchun $\alpha = (\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n)$, $\alpha_i \geq 0$ deb yozishimiz mumkin. Masalan, agar $n = 5$, u holda $\alpha = (1, 2, 0, 0, 2)$ -bu mumkin bo'lgan vektorlardan biri. Hususiy hosilalarni quyidagicha oson ko'rsatish mumkin.

$$D^\alpha u(x) = \frac{\partial^{|\alpha|} u}{\partial x_1^{\alpha_1} \partial x_2^{\alpha_2} \dots \partial x_n^{\alpha_n}}, \quad |\alpha| = \alpha_1 + \alpha_2 + \dots + \alpha_n, \quad \alpha_i \geq 0 \quad (2.6)$$

Bu ko'p indeksli deb aytiladigan yozuvdir.

Misol 2.1. $n = 2$ va $u(x) = (u_1(x), u_2(x))$ lar uchun $|\alpha| = 2$ bo'lganda barcha mumkin bo'lgan $D^\alpha u$ hususiy hosilalar quyidagiga teng.

$$\alpha = (2, 0), \quad D^\alpha u = \frac{\partial^2 u}{\partial x_1^2},$$

$$\alpha = (1, 1), \quad D^\alpha u = \frac{\partial^2 u}{\partial x_1 \partial x_2},$$

$$\alpha = (0, 2), \quad D^\alpha u = \frac{\partial^2 u}{\partial x_2^2}.$$

Ko'p indeksli yozuvda C^m fazoni $\Omega \in R^n$ sohada quyidagicha aniqlash mumkin.

$$C^m(\Omega) = \{u(x_1, x_2, \dots, x_n), D^\alpha u (|\alpha| \leq m), \Omega \text{ da uzluksiz}\} \quad (2.7)$$

Ya'ni m – tartibligicha barcha mumkin bo'lgan hosilalari Ω da uzluksiz.

Misol 2.2. $n = 2$ va $m = 3$ uchun, agar $u \in C^3(\Omega)$ bo'lsa barchasi Ω da uzluksiz bo'lgan u , u_x , u_y , u_{xx} , u_{xy} , u_{yy} , u_{xxx} , u_{xxy} , u_{xyy} va u_{yyy} ga ega bo'lamiz, yoki oddiygina $|\alpha| \leq 3$ uchun $D^\alpha u \in C^3(\omega)$. $C^m(\Omega)$ cheksiz o'lchovli ekanligini ta'kidlaymiz.

$C^0(\Omega)$ da masofa quyidagicha aniqlanadi

$$d(u, v) = \max_{x \in \Omega} |u(x) - v(x)|$$

U quyidagi hossalarga ega (1), $d(u,v) \geq 0$; (2), $d(u,v) = 0$ faqat va faqat $u \equiv v$ bo'lsa: va (3), $d(u,v+w) \leq d(u,v) + d(u,w)$ uchburchak tengsizligi. Chiziqli fazo unda aniqlangan masofa bilan metrik fazo deyiladi.

$C^0(\Omega)$ da norma bu uning quyidagi shartni qanoatlantiruvchi manfiymas funksiyadir

$$\|u(x)\| = d(u, \theta) = \max_{x \in \Omega} |u(x)|, \text{ бу ерда } \theta \text{ ноль элемент}$$

Ushbu xossalalar bilan birga (1), $\|u(x)\| \geq 0$, va $\|u(x)\| = 0$ faqat va faqat $u \equiv 0$ bo'lganda:

$$(2), \|\alpha u(x)\| = |\alpha| \|u(x)\|, \text{ бу ерда } \alpha - \text{сон};$$

$$(3), \|u(x) + v(x)\| \leq \|u(x)\| + \|v(x)\|, \text{ учбурчак тенгсизлиги.}$$

Aniqlangan norma bilan birgalikda chiziqli fazo normalangan fazo deyiladi.

$C^m(\Omega)$ da masofa va norma quyidagicha aniqlanadi.

$$d(u,v) = \max_{0 \leq \alpha \leq m} \max_{x \in \Omega} |D^\alpha u(x) - D^\alpha v(x)|,$$

$$\|u(x)\| = \max_{0 \leq \alpha \leq m} \max_{x \in \Omega} |D^\alpha u|.$$

ИНФОРМАТИКА ФАНИНИНГ RIVOJLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*Amirova Zuvayda Shodmonovna,
Xoldorova Ma'mura Zarifovna
Termiz shahar kasb-hunar maktabi
Informatika va axborot texnologiyasi fani o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Informatika fanining rivojlanish tarixi, kompyuter texnologiyalarining bugungi kunda har qaysi sohadagi o'rni, va informatika fanining rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritildi.

Kalit so'zlar: EHM (Elektron hisoblash mashinasi), Eniac, Microsoft, sun'iy intellekt, IBM, Intel.

Kirish. Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyotining asosi bo'lmish hisoblash texnikasidan ishlab-chiqarishning turli iqtisodiy vazifalarini hal etish va har xil murakkab masalalarni echishda keng foydalanilmoqda, chunki juda ko'p faktorlarni hisobga olish, ulkan hajmdagi axborotlar bilan ishlash zaruriyati- elektron mashinalarsiz hal etishga imkon bermaydi. Hisoblash texnikasi yordamida mashinasozlik, transport ishlab-chiqarishini rejalashtirish, loyihalash, hisoblash hamda tahlil ishlari keng hal qilinmoqda. SHuning uchun ham hisoblash texnikasi keng joriy etilishi munosobati bilan bu texnikalardan mustaqil foydalana oladigan mutaxassislariga talab oshib bormoqda.

Asosiy qism: Informatika fanning asosiy maqsadi ham talabalarga zamonaviy kompyuterlarda ishlashni o'rgatishdan iboratdir. Bu fanni o'rganish mobaynida talabalar kompyuterlarning ichki va tashqi qurilmalari va ularning ishlash prinsiplari bilan tanishish bilan bir qatorda aniq yo'nalishdagi masalalarni echishga qaratilgan dastur mahsulotlari bilan ishlash qoidalarini ham o'rganib boradilar. Umuman bu fan orqali talaba kompyuterda mustaqil ishlay oladigan foydalanuvchiga aylanadi.

2. Ma'lumki moddiy-texnika vositalaridan va mavjud rezervlardan o'z vaqtida foydalanishni optimal tashkil etish uchun hisob ishlarini to'g'ri olib borish zarurdir. Bu har qanday korxonada faoliyati ravnaqi uchun hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari hisob ishlarini to'g'ri olib borish ishlab-chiqarish korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda katta yordam beradi. Biroq ishlab-chiqarish rivojlanishi bilan hisob ishlarining hajmi ham ortib bormoqda. Natijada korxonani boshqarish uchun zarur bo'lgan texnik-iqtisodiy axborotlarni o'z vaqtida tayyorlash murakkab ishlardan biri bo'lib qolmoqda. SHuning uchun ham bunday ishlarni avtomatlashtirish zaruriyatlari paydo bo'lmoqda. Vaholanki bir necha asrlardan buyon insoniyat hisob ishlarini mashinalar yordamida bajarishga o'rinib kelgan. Pirovard

natijada 1642 yili buyuk frantsuz fizigi Paskal matematikaning ikki amalini (qo'shish va ayirish) bajaradigan dastlabki mexanik hisoblash mashinasini yaratdi.

Birinchi elektromexanik hisoblash mashinasi amerika olimlari tomonidan 1937 ishlab chiqildi. Ushbu hisoblash mashinasi elektromexanik relelardan tashkil topgan bo'lib, 5 ot kuchiga ega bo'lgan elektrodvigatel orqali ishga tushirilardi.

Hisoblash texnikasining elektron davri 1945 yildan boshlanadi. Chunki shu yili dunyoda birinchi bo'lib, Amerika Qo'shma Shtatlarida ENIAC nomli elektron hisoblash mashinasi yaratilgandir. Uning xotira qurilmasi elektron lampalarga asoslangan bo'lib, boshlang'ich, oraliq hamda dasturlarni saqlash uchun xizmat qilgan. Dastur va ma'lumotlarni kiritish uchun perfokartalar, natijalarni olish uchun esa alifbosonli bosma qurilmasi ishlatilgan. Shundan so'ng izlanishlar natijasida 1971 yili INTEL firmasi tomonidan birinchi 4004 integral mikrosxema ya'ni mikroprotssessor yaratilgan. Bu mikroprotssessor mikrokalkulyatorlarda ishlatishga muljallangan edi. INTEL firmasining 8080 mikroprotssessoriga asoslangan birinchi kompyuter ALTAIR-8800 nomi bilan MITS firmasi tomonidan ishlab chiqarildi. Bu kompyuterlarning xotira hajmi va ish bajarish koeffitsienti chegaralangan edi. Shunga qaramasdan bu kompyuter boshqa keng imkoniyatli kompyuterlarning yaratilishiga asos bo'lib qoldi. 1981 yili IBM firmasi tomonidan katta EHMLardan qolishmaydigan darajadagi 16 razryadli mukammal kompyuter yaratildi. IBM PC apparaturasi va dastur mahsulotlari loyihalari e'lon qilingandan so'ng kompyuterlarni takomillashtirish ustida izlanishlar kengaydi. Bu esa o'z navbatida IBM firmasining mashhurligini oshirib yubordi. 1984 yili IBM firmasi INTEL firmasining 80286 mikroprotssessori bazasida yangi kompyuter yaratdi.

Dastur mahsulotining asosiy qismini MICROSOFT firmasi ishlab chiqarmoqda. Keyingi yillarda IBM tipidagi kompyuterlarning ko'pchiligi Tayvan, Singapur va Janubiy Koreya mamlakatlarida ishlab chiqarilmoqda. Eng qimmatbaho va sifatli kompyuterlar AQSH va Evropa mamlakatlarida yig'ilmoqda, lekin ularning ham ehtiyot qismlari Osiyo mamlakatlarida tayyorlanmoqda.

Hozirgi kungacha IBM tipidagi 80086, 80286, 80386, 80486 hamda 80586 yoki Pentium I, Pentium II, Pentium III, Pentium IV deb ataluvchi mikroprotssessorli kompyuterlar ishlab chiqarilgan.

3. EHMLar bir-biridan texnik xarakteristikalarini, mantiqiy tashkil etilishi, elementlar bazasi hamda programma ta'minoti bilan farqlanadi. EXMLarning rivojlanish jarayonida asosiy omillardan biri, mashinalarning foydali ish koeffitsientini oshirishga harakat bo'lgan.

Yuqorida qayd etilgan va boshqa xarakteristikalariga asoslangan holda EHMLarni shartli ravishda avlodlarga bo'lish qabul qilingan.

EHMlarning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarib turishi ularning qurilmalarida ishlatiladigan elektron sxemalarga va ishlash tezligiga bog'liq bo'lib, EHMlarning elementlar bazasi, avlodlarning kriteriyasi bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi avlod – EHMlarning elementlar bazasi asosan elektron lampalardan tashkil etilgan. Bunday mashinalarning paydo bo'lishi 50-yillarga to'g'ri keladi. Bu avlod mashinalariga misol qilib, BESM-1, Minsk-1, Ural-1, Ural-2, M-1, M-2, Strela mashinalarini keltirish mumkin. Ularning operatsiya bajarish tezligi sekundiga 2-3 ming operatsiyani tashkil qilib, operativ xotira hajmi 4 Kbayt bo'lgan.

Ikkinchi avlod mashinalarining elementlar bazasi sifatida tranzistorlar xizmat qilgan. YArim o'tkazgichlarning ishlatilishi EHMlarning operativ xotira hajmi va ish bajarish tezligini sezilarli darajada oshirdi. EHMlarning og'irligi, ulchami va elektr manbaiga extiyoji kamaydi. EHMning nporramma ta'minoti rivojlanishi hisobidan ularning qo'llanilish doirasi kengaydi. Ikkinchi avlod mashinalariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: Ural-14, Ural-16, Minsk-22, BESM-b, BESM-3, BESM-4, M-222, MIR-2, Nairi va boshqalar. Ularning ish bajarish tezligi sekundiga 30 ming operatsiya, operativ xotira hajmi 8 Kb, 16 Kb va 32 Kb ni tashkil etardi.

Uchinchi avlod EHMlari elementlar bazasi mikro elektronikaga asoslangan bo'lib, ular integral sxemalarning qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Uchinchi avlod mashinalariga ES tipidagi ES-1010, ES-1020, ES-1030, ES-1040, ES-1050, ES-1066, Elektronika 60, SM-3, SM-4 va boshqa tipdagi mashinalarni misol qilib olish mumkin. Ularning operatsiya bajarish tezligi 500 mingdan 1 mln. operatsiyagacha bordi. Operativ xotira hajmi esa 64 Kb dan 1204 Kb etdi.

To'rtinchi avlod mashinalarining elementlar bazasi katta integral sxemalarga asoslangan bo'lib, qurilma sifatida kremniy plastiklaridan foydalanildi. Bu avlod mashinalariga Elbrus tipidagi mashinalarni misol qilib keltirish mumkin. Uning operatsiya bajarish tezligi sekundiga 5 millionni tashkil etib, 64 Mbaytgacha operativ xotira hajmiga ega bo'ldi.

Mikroprotssessorlarning paydo bo'lishi hisoblash texnikasi rivojlanish tarixida revolyutsion bosqich bo'ldi. Mikroprotssessor-lar asosida kompyuter davri boshlandi.

Beshinchi avlod mashinalari elementlar bazasi ulkan katta integral sxemaga asoslangan bo'lib, sun'iy intellekt asosida ishlaydi. Ma'lumotlarni kiritish va chiqarish tovush va tasvirlar orqali amalga oshiriladi.

Xulosa

Zamonaviy kompyuter hozir faqat hisoblash ishlari uchun emas, balki boshqa maqsadlar uchun: informatsion tizimlar va axborotni saqlash vositalari sifatida; turli jarayon va ob'ektlarni boshqarishni avtomatlashtirishda; har xil xususiyatli ob'ektlar va jarayonlarni matematik modellashtirishda ham keng qo'llanmoqda.

Bularning hammasi hisoblash texnikasini hamma joyda, ishlab chiqarishda, transportda, aloqa va xalq ho`jaligining boshqa sohalarida amalda joriy qilishga sharoit yaratdi.

Biz hozir ishonch bilan aytishimiz mumkinki, EHMni ishlata bilish har bir kishi uchun kasbiy faoliyatining ko`pchilik sohalarida bo`lganidek, turmushda ham zarur bo`lib qoladi, yangi umumiy ma'lumotga oid bo`lib qoldi.

Kompyuterlarni qo`llanishi ko`pchilik mutaxassislarning fikrlash tarzi va ish uslubini jiddiy o`zgartirdi. Informatika keng ma'noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida asosan kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlashi bilan bog`liq fan, texnika va ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlari birligini o`zida namoyon etadi. Informatikani tor ma'noda uch qism—texnik vositalar (hardware), dasturiy vositalar (software) va algoritimli vositalar (brainware) sifatida tasavvur etish mumkin. Informatikada fundamental tadqiqotlarning maqsadi-istalgan axborot tizimlari haqida umumlashtirilgan axborotni olish, ularning qurilishi va ishlashining umumiy qonuniyatlarini aniqlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ABDURAZZOQOV, I. (2024). vUMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *News of UzMU journal*, 1(1.3. 1), 61-65.
2. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O'QITISH USULLARI. *World scientific research journal*, 25(1), 86-90.
3. METODLAR. *World scientific research journal*, 8(1), 123-126.
4. Rustamovich, A. I. (2022). RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYASI FANINING O'RNI. *PEDAGOGS Jurnal*, 20(1), 58-61.
5. ABDURAZZOQOV, I. (2024). vUMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *News of UzMU journal*, 1(1.3. 1), 61-65.
6. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O'QITISH USULLARI. *World scientific research journal*, 25(1), 86-90.
7. Shuxratovich, E. U., & Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA "BULUTLI TEXNOLOGIYALAR" ORQALI O'QITISH (XORIJIY DAVLATLAR MISOLIDA). *World scientific research journal*, 25(1), 79-85.

ZAMONAVIY KOMPYUTER GRAFIKASI VA GRAFIK MUHARIRLARI HAQIDA TUSHUNCHA

Shuxrat Xolmurodov Okboyevich

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Abdurazzoqov Ilhom Rustamovich

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Abumo'minov Burxon Sunnatillo o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Grafik muharrirlar, kompyuter grafikasi turlari, qo'llanilish sohalari haqida fikr yuritildi.

Kalit so'zlar: *Rastrli grafika, vektorli grafika, froktal grafika, piksel, videokamera, fotoapparat, fotokamera.*

Kirish. Kompyuter grafikasi ilm-fanga, tijoratga, san'at va sportga ham tegishli bo'lib, barcha sohalarda keng qo'llaniladi. Kompyuter grafikasi bo'yicha har yili ko'plab konferensiyalar o'tkaziladi, ilmiy jumallar va o'quv qo'llanmalar chop etiladi, dissertatsiyalar himoya qilinadi. Har yili bir necha yuz milliard dollarlik kompyuter grafikasi mahsulotlari ishlab chiqariladi va sotiladi. San'at durdonalari yaratiladi.

Axborotning asosiy qismini inson ko'rish a'zolari orqali oladi. Ko'rgazmali axborotning o'zlashtirilishi oson bo'ladi. Inson tabiatining ana shu xususiyati grafik operatsion tizimlarda ishlatiladi. Ularda axborot grafik ob'ektlar: znachokar (belgilar), oynalar va rasmlar ko'rinishida tasvirlanadi.

Kompyuter grafikasi — grafik displey (monitor) ekranida tasviriy informatsiyani vizuallashtirish (ko'rinadigan qilish) jarayonidir. Tasvirni qog'ozda, fotoplyonkada, kinolenta va boshqalarda aks ettirish usulidan farqli ravishda kompyuter grafikasida kompyuterda hosil qilingan tasvirni darhol o'chirib tashlash, unga tuzatish kiritish, istalgan yo'nalishda toraytirish yoki cho'zish, yaqinlashtirish va uzoqlashtirish, burish, harakatlantirish, rangini o'zgartirish va boshqa amallarni bajarish mumkin. Kitoblarni bezash, rasm va chizmalarni tayyorlashda buyumlarni loyihalash va modellarini yasashda, telereklamalar yaratishda, multfilmlarni yaratishda, kinofilmlarda qiziqarli kadrlar hosil qilish va boshqa ko'p sohalarda qo'llaniladi.

Kompyuter grafikasi bilan ishlovchi dasturlar qatoriga bir qancha dasturlarni sanab o'tish mumkin. Jumladan, Microsoft Paint, Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, Corel Draw, Adobe Freehand, Adobe InDesign, Adobe ImageReady, Adobe Flash, Discreet, Cinema 4d, Alias, Autodesk Maya, LightWave, Adobe Brush

va hokazolardir. Ushbu dasturlarda kompyuter grafikasiga oid ishlarni amalga oshirish mumkin. Ba'zilarida oddiy rasm chizish mumkin bo'lsa, ba'zilarida uylar proyektleri, ba'zilarida esa uch o'lchamli modellashtirish va hattoki to'rt o'lchamli modellashtirish mumkin bo'ladi. Inson tashqi dunyo haqidagi axborotning asosiy qismini ko'zlari yordamida qabul qiladi. Ko'rish tizimi turli obyektlarning tasvirini qabul qilib oladi. Ular yordamida insonda tashqi muhit va undagi obyektlar haqida tasavvur paydo bo'ladi. Obyektlarning tasvirini yaratish, ularni saqlash, qayta ishlash va tasvirlash qurilmalarida tasvirlab berish kompyuterning eng qiyin va asosiy masalalaridan biridir. Kompyuterga hech qanday topshiriq berilmaganda, ya'ni bekor turganida ham ekranida ko'rinishi kerak bo'lgan tasvirni sekundiga o'nlab marta qayta ishlab ko'rsatadi. Kompyuterning ekranida paydo bo'ladigan tasvirlar uning videokarta deb ataluvchi qurilmasi yordamida yaratiladi va ekranga chiqariladi.

Operatsion tizimning barcha grafik ob'ektlari, shuningdek, boshqa barcha tasvirlar qandaydir yo'l bilan kompyuterda xosil qilinishi yoki unga kiritilishi kerak. Grafik tasvirlarni kompyuterga kiritish uchun maxsus tashqi (atrof) qurilmalari ishlatiladi. Ular bilan siz 3-bobda tanishib chiqqansiz. Eng ko'p tarqalgan qurilma — bu skanerdir. So'nggi paytda raqamli fotokameralarning ham qo'llanish ko'lami kengayib bormoqda. Ularning oddiy fotoapparatlardan farqi shundaki, tasvir kimyoviy yo'l bilan fotoplyonkaga tushirilmaydi, balki fotokamera xotirasining mikrosxemalariga yozib qo'yiladi. U erdan axborotni kabel orqali kompyuterga uzatish mumkin. Ayrim raqamli fotoapparatlar ma'lumotlarni fayl sifatida egiluvchan diskka yozib quyish imkoniyatiga ham ega. Diskdagi axborotni esa kompyuterga o'tkazish unchalik qiyin emasligini siz yaxshi bilasiz.

Tasvirni kompyuterga videokameradan ham kiritish mumkin. Videoning ketma-ketlikdagi biror kadri tanlashi va uni kompyuterga kiritishi tasvirni ushlab olish deyiladi.

Kompyuterga tasvirni kiritish uchun uni albatta skanerlash, rasmga olish yoki uni ushlab olish shart emas. Tasvirni kompyuterning o'zida ham xosil qilish mumkin. Buning uchun grafik muharrirlar deb ataluvchi maxsus dasturlar sinfi ishlab chiqilgan.

Axborotni grafik shaklda ishlab chiqish, taqdim etish, ularga ishlov berish, shuningdek, grafik ob'ektlar va fayllarda bo'lgan nografik ob'ektlar o'rtasida bog'lanish o'rnatishni Informatikada kompyuter grafikasi deb atash qabul qilingan. Kompyuter grafikasi uch turga bo'linadi: **rastrli grafika, vektorli grafika va fraktal grafika**. Ular o'rtasidagi asosiy farq nurning displey ekrandan o'tish usulidan iborat. Eslab qoluvchi elektron-nurli trubka (ENT)larga ega vektorli qurilmalarda nur berilgan traektoriya bo'ylab bir marta chopib o'tadi, uning izi esa ekranda keyingi buyruq berilgungacha saqlanib qoladi. Demak, **vektorli** grafikaning asosiy elementi — **chiziqdir**.

Векторли графика bilan ishlovchi dasturiy vositalar birinchi navbatda tasvirlarni yaratishga mo'ljallangan. Bunday vositalar reklama agentliklarida, dizaynerlik byurolarida va nashriyotlarda qo'llaniladi.

Rastrli qurilmalarda esa tasvir ularni tashkil etuvchi nuqtalar majmuasidan vujudga keladi. Bu nuqtalar piksellar (pixels) deb ataladi. Rastr — bu ekranning butun maydonini qoplovchi piksellar matritsasidir. Demak, rastrli grafikaning asosiy elementi nuqtadan iborat.

Rastrli grafika vositalari bilan tayyorlangan tasvirlar kompyuter dasturlar yordamida kamdan - kam xoldagina yaratiladi. Ko'pincha ushbu maqsadda rassom tayyorlagan tasvirlar yoki rasmlar skanerlanadi. Rastrli tasvirlar bilan ishlashga mo'ljallangan ko'pgina grafik muharrirlar asosan tasvirlarga ishlov berishga mo'ljallangan. Internet tizimida ko'proq rastrli tasvirlar qo'llanilmoqda.

Fraktal badiiy kompozitsiyani yaratish — bu tasvirni chizish yoki jixozlash emas, balki uni dasturlashdir, ya'ni bunda tasvirlar formulalar yordamida ko'riladi. Fraktal grafika odatda o'yin dasturlarida qo'llaniladi.

Kompyuterning ma'lumotlarni elektron ko'rinishda tasvirlash qurilmasi monitor (monitor - kuzatish, nazorat) deb ataladi. Kompyuterda bo'layotgan jarayonlarni monitor orqali kuzatish mumkin. Monitoring tasvirlar ko'rsatiladigan qismi, ya'ni ekrani display (display - tasvirlamoq) deb ataladi. Hozirgi paytda alohida korpusda yig'ilgan tasvirlash qurilmalari kompyuter monitori, kompyuter bilan birga joylangan tasvirlash qurilmalari (masalan, noutbuk, planshet hamda telefonlarda) display deb atalmoqda.

Display to'g'ri to'rtburchak ko'rinishida bo'lib, uning tomonlari nisbati odatda 16 ga 9 kabi bo'ladi. Bundan tashqari, display tomonlari nisbati 16 ga 10, 4 ga 3, 5 ga 4 kabi bo'lishi ham mumkin. So'nggi paytda 21 ga 9 nisbatdagi displeylar ishlab chiqarila boshlandi. 16x9 va 16x10 nisbatli displeylar keng, 21x9 nisbatlilari o'ta keng, 5x4 nisbatlilari kvadrat displeylar deb ataladi. Piksellar soni bo'yicha displeylardan keng tarqalganlari va ularning nomlari quyida keltirilgan:

320x240 CGA (Color Graphic Adapter - rangli grafik qurilma); 640x480 VGA (Video Graphic Adapter - video grafik qurilma); 800x600 SVGA (Super VGA);

1024x768 XVGA (extended VGA - kengaytirilgan VGA); 1280x720 HD (High Definition - yuqori aniqlik); 1280x800 HD+ (HD dan ko'proq);

1366x768 WXVGA (Wide XVGA - keng XVGA);

1440x900 HD++ (HD dan yanada ko'proq); 1600x900 HD+++ (HD dan yanada ko'proq); 1920x1080 FHD (Full HD - to'liq HD); 2560x1440 QHD (Quadra HD - to'rtlangan HD);

3840x2160 4K (4 kilo - to'rt ming ustun) yoki UHD (Ultra HD - o'ta HD)

Display ekrani satrlarga va ustunlarga ajratib chiqilgan bo'lib, har bir qator va ustun kesishgan joyda piksel deb ataluvchi juda kichik tasvir bo'laklari joylashgan. Piksellarning har biri alohida manzilga ega va mustaqil boshqarilishi mumkin. Har bir piksel uchun xotirada bir baytdan to'rt baytgacha joy ajratilishi mumkin. Demak, har bir piksel 256 tadan 4 milliardgacha bo'lgan ranglardan birida bo'lishi mumkin. Ekrandagi har bir pikselning o'zi uchga bo'linadi. Ulardan biri qizil, ikkinchisi yashil, uchinchisi ko'k rangda porlaydi. Bu ranglar asosiy ranglar deb ataladi va turli nisbatda qo' shilib, tabiatda uchraydigan ranglarning deyarli barchasini yarata oladi.

Xulosa. Kompyuter grafikasi ilm-fanga, tijoratga, san'at va sportga ham tegishli bo'lib, barcha sohalarida keng qo'llaniladi. Kompyuter grafikasi bo'yicha har yili ko'plab konferensiyalar o'tkaziladi, ilmiy jumallar va o'quv qo'llanmalar chop etiladi, dissertatsiyalar himoya qilinadi. Har yili bir necha yuz milliard dollarlik kompyuter grafikasi mahsulotlari ishlab chiqariladi va sotiladi. San'at durdonalari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. ABDURAZZOQOV, I. (2024). vUMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *News of UzMU journal*, 1(1.3. 1), 61-65.
2. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O'QITISH USULLARI. *World scientific research journal*, 25(1), 86-90.
3. Kholmurodov S. A. Mechanisms for improving the professional and creative activity of a computer science teacher // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*. – 2022. – T. 12. – №. 1. – C. 153-157.
4. Kholmurodov S. O. DIGITAL INFORMATION AS A MEANINGFUL ELEMENT OF DIGITAL INDUSTRY COMPONENTS // *Thematics Journal of Business Management*. – 2021. – T. 10. – №. 7.
5. Abdumo'Minov, B. S. O. G. L., Musurmonov, Y. X. O., & Qambarov, B. P. O. (2023). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH – DAVR TALABI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1017-1019.

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TEXNIK VA DASTURIY VOSITALARI.

*Amirova Zuvayda Shodmonovna,
Xoldorova Ma'mura Zarifovna
Termiz shahar kasb-hunar maktabi
Informatika va axborot texnologiyasi fani o'qituvchilari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy axborot texnologiyalarining qo'llanilish sohalari va bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *Axborot texnologiyalari, Telekommunikatsiya, Mutimediya, faks, Telematn, Videomatn, Videokonferensiya.*

Kirish. Axborot texnologiyasi biror obyekt, jarayon yoki hodisaning holati haqidagi axborotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshiruvchi jarayondir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari—shaxsiy kompyuterlar va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanilgan holdagi zamonaviy muloqotni o'rnatuvchi axborot texnologiyasi hisoblanadi.

Har bir turdagi axborot bilan ishlash uchun har xil texnik tavsifnomalarga ega bo'lgan axborot qurilmalari kerak bo'ladi. Bu axborot qurilmalari zamonaviy axborot texnologiyalarining texnik ta'minotini tashkil qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining asosiy texnik vositalari sifatida hozirgi kunda kompyuterlar, hisoblash vositalari, audio va video qurilmalar, aloqa vositalari, teletayplar, telefakslar, telekslar, kseroks va boshqalar qo'llaniladi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining dasturiy ta'minoti axborot texnologiyalari ishini tashkil qilish va boshqarishni amalga oshiradi.

Asosiy qism. Zamonaviy telefon vositasining funksiyalari ko'p: avtojavob beruvchi, qo'ng'iroq qilayotgan abonentning raqamini aniqlovchi, telefon raqamini bilib olishdan himoyalash va x.k.z,... Qog'ozli xujjatning normativ qiymati-adolatning muxim tarkibiy qismidir. Qog'ozli xabarlarini uzatish vositalari ko'p. Bunda oddiy telegraf aloqasi teletayp aloqasiga aylangan. Rivojlangan vositalardan biri-telefaks aloqasidir.

Faks (lotincha - faxsimile, uxshashini yarat) - xujjat originalini xuddi uziday aks ettiradi. Bunda, uzatishda xabar elementlarini skanerlash yuli bilan uzgartiriladi. Kabul kilish apparati katordagi ketma-ket signallarni kabul kilib, kogozdagi tasvirga aylantiradi. Matnni kogozli tashuvchidan ajratib olish uchun ukish kurilmasi ishlatiladi.

Ofisdagi xujjatlarni kseroks yordamida nusxalash ommaviy tusga kirdi.

Elektron ofisga uzoq va yaqin bo'lgan turli manbalardan juda ko'p xabarlar keladi. O'z navbatida ofis xodimlari ham tashqi dunyoga o'zining axborot oqimlarini uzatadilar. Telefaks tarmog'i orqali qog'ozdagi xabarlar keladi. Lokal yoki global tarmoq vositalari orqali elektron xabarlar kompyuterga modem yordamida kiritiladi yoki chiqariladi. Ofisda kompyuterlar axborot oqimlariga ishlov berib, birlashtirish vazifalarini bajaradi.

Elektron pochta kompyuterlar yordamida olingan korrespondensiyani yuborish va ishlov berishda elektron usullarni ishlatadi. U orqali xujjatlar, jadvallar, grafiklar, chizmalar, rasm va fotografiyalar, ro'znoma og'zaki xabarlar olish mumkin. Elektron pochta—bu qog'ozsiz pochta, u telefon tarmog'i bilan kompyuterga ulangan. Elektron pochta-pochta, telegraf, faksimil aloqa imkoniyatlarning bir qismini o'ziga olib, o'zining tezkorligi tufayli yangi axborot xizmatlarini taklif etadi.

«Teleks» - axborot tizimi axborotning ulkan oqimlarini ham xil abonentga avtomatik ravishda tayyorlash va uzatish imkonini beradi. Matn tayyorlashning bu tizimida yuqori sifatli displeylar bilan jixozlangan terminallar yordamida uzatilayotgan axborot massivi kompyuter xotirasida saqlanib qoladi. Keyin maxsus ma'lumotlarni uzatish apparatlari yordamida tayyorlangan massiv abonentga jo'natiladi yoki undan qabul qilinadi.

Televideniye xayotga uzokdan kurish sifatida kirib keldi va ommaviy xodisaga aylanib koldi. Dunyoda 4 mlrd.dan ortik telepriyomniklar ishlatiladi. Televizor bu juda murakkab axborot kurilmasidir. Televizorni kurish goyasi kuyidagicha:

- tasvir elementlarini uzgartirish yuli bilan elektr signallar ketma ketligiga aylantiradi (tasvir analizi);
- ularni aloka kanallari orkali nuqtalardan kimirlaydigan rasmga teskari aylantirish (tasvir sintezi) amalga oshiriladigan kabul kilish punktiga uzatiladi.

Bu nazariya XX asr oxirida portugaliyalik olim A. Di. Payva va rus olimi P. N. Bexmetvev tomonidan ishlab chikilgan. Amaliy karorlarni ishlab chikish va foydalanishni boshlash V. K. Zvorkin va F. Fransuorti (AKSh) bilan boglik.

Televideniye orkali siyosiy, madaniy, ilmiy, ijtimoiy, iktisodiy axborotlar beriladi.

Televideniye ning keyingi boskichi rakamli televizion texnologiyalar asosidagi interaktiv televideniye dir.

“Telematn” axborot tizimi.

“**Telematn**” axborot tizimi foydalanuvchilarning kup guruxlari uchun doimo kizikarli bulgan dolzarb axborotni uzatish uchun yaratilgandir. “Telematn” - bu gazeta, jurnal, agentlik xizmatlaridan olingan matn varaklarini uzluksiz utkazib beradigan “elektron gazeta” yoki “elektron byulleten”.

Bu tizimning xususiyatlari:

- axborot varaklarini uzluksiz va ketma - ket ravishda utkazuvchi stansiya tomonidan tuplanadi, efirga oddiy televizor signallari bilan yoki kabel orkali uzatiladi;
- “telematn” axboroti uzluksiz yangilanib boriladi;
- kerakli axborotning varagini belgilash uchun televizorga kushimcha kurilma kerak;
- foydalanuvchi elektron gazeta varaklarini varaklash, bulimlardan sakrab utishi, ukigan varaklarga kaytib borish, videomagnitofonga yozib olishi mumkin. Lekin u matn mazmunini uzgartira olmaydi.

“Videomatn” axborot tizimi.

Bu axborot tizimi axborot kabul kilish va tanlash erkinligi imkoniyatini kengaytiradi, xamda telefon, kompyuter, televizor imkoniyatlarini birlashtiradi.

Telefon chakirigi tufayli telefon tarmogiga ulangan kompyuter va televizor orasida aloka urnatiladi.

Ma'lumotlar bazasi menyusi va bu ma'lumotlarni ishlov berish algoritmlari orkali foydalanuvchi (boshka kompyuterga) birovning axborotini shakllantirish, uzining telepristavkasi xotirasiga kuchirish buyrugini beradi. Foydalanuvchilar telematn menyusiga boglab kuyilgan emas.

Videokonferens aloka va videokonferensiyalar.

Insoniyat jamiyati ba'zi bir murakkab masalalarni yechish, odamlarni ma'lum bir jamoaga tuplanishini talab etadi. Bu maksadda mukammalrok tizimlar inson mulkotining urnini bosa olmaydi, lekin ular ishtirokining samarasini tashkil kilishga va ijodiy faoliyatni avtomatlashtirishga imkon yaratadi. **Videokonferensiyalar** masofadagi vizual gurux mulkotini tashkil etishda, majlis, ta'lim utkazishlarning eng yangi axborot texnologiyasidir. Bu texnologiya muassasa devorlari va masofalar bilan bir - biridan bulingan kuplab shaxslarni bir vaktning uzida mulkotiga imkon beradi.

Kundalik hayotimizda turli ko'rinishdagi axborotlar masalan, matnli, grafikli, jadvalli, ovozli(audio), rasmlil, tasvirli(video) va boshqa axborotlar bilan ishlashga to'g'ri keladi.

Jamiyatimizda axborotlarni uzatish, kabul kilish, xamda axborotlarni tarkatish uchun turli xil kurilmalar kullaniladi. Bu kurilmalarga Xisoblash texnikasi, telegraf, gramyozuv, magnitafon yozuvi, televideniye va radioni misol kilib olishimiz mumkin.

Bu kurilmalarda axborotlarni saklashda va uzatishda ma'lum bir kurinishidagi signallar yordamida amalga oshiriladi. Bu signallar uzluksiz va diskret signallarga bulinadi.

Radio va televideniyeidagi, xamda gramyozuvdagi, magnitafon yozuvidagi kullaniladigan signallarning grafik kurinishi uzluksiz kiyshik chizik xolatida uzgaruvchan shaklda bulib, bunday signallarni uzluksiz yoki analog signallar deyiladi. Bunga karama-karshi telegraf va va xisoblash texnikasidagi signallar impuls shaklida buladi va bunday signallarni diskret yoki rakamli signal deyiladi.

Biz xar bir texnikalaridan, ularda kanday signal kullanishidan kat'iy nazar imkoniyat darajasida foydalanishni istaymiz.

Informatika soxasida ishlayotgan xodimlar xech bulmaganda axborot vositalarida bir turdagi signalni kullanilishini istaydilar.

Shuning uchun sifatli bir shakldagi, uzluksiz yoki diskret signal kurilmalarini tanlash va yaratish muammosi payda buldi.

Uzluksiz va diskret signallarni uzaro takkoslash uchun ularning kuyidagi aloxida axamiyatli farqlari: Uzluksiz signal katta uzgaruvchan kiymatlar tumlamidan iborat balsa, diskret signallar esa ikkita kiymatga ega bulib "0" va "1" sonlari orkali ifodalanadi. Bundan kurinib turibdiki diskret signalning uzluksiz signalga nisbatan farki va imkoniyati katta.

Xulosa. Xulosa kilib aytadigan bulsak, birinchidan diskret signalda poydo bulgan xatoliklarni tugirlashning osonligi balsa, ikkinchidan bu signal turida ishlovchi texnik vositalarning kulayligidir.

Shuning uchun xamma turdagi axborot texnikalarining diskret signalni kayta ishlovchi kurilmalarini yaratish va ulardan keng foydalanish zamon talabi bulib koldi. Natijada barcha rivojlangan davlatlarda axborotlarni diskret signal shaklda uzatuvchi va kabul kiluvchi radioperedatchik va radiopriyomnik, televizorlar xamda televizion uzatuvchi vositalar yaratilib, ulardan keng foydalanilmokda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ABDURAZZOQOV, I. (2024). vUMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *News of UzMU journal*, 1(1.3. 1), 61-65.
2. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O'QITISH USULLARI. *World scientific research journal*, 25(1), 86-90.
3. METODLAR. *World scientific research journal*, 8(1), 123-126.
4. Rustamovich, A. I. (2022). RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYASI FANINING O'RNI. *PEDAGOGS Jurnal*, 20(1), 58-61.
5. ABDURAZZOQOV, I. (2024). vUMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *News of UzMU journal*, 1(1.3. 1), 61-65.
6. Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA FANIDAN INNOVATSION O'QITISH USULLARI. *World scientific research journal*, 25(1), 86-90.
7. Shuxratovich, E. U., & Rustamovich, A. I. (2024). INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA "BULUTLI TEXNOLOGIYALAR" ORQALI O'QITISH (XORIJIY DAVLATLAR MISOLIDA). *World scientific research journal*, 25(1), 79-85.

ТА'LIMNI BOSHQARISH TIZIMLARI UCHUN MONOLIT VA MIKROSERVIS ARXITEKTURASINI BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

Tohirjon Murodbek o'g'li Xudayberganov

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Urganch filiali

4-kurs talabasi

xudayberganovtohirjon2727@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu mustaqil ishining asosiy maqsadi ta'limni boshqarish tizimlari ishlab chiqishda monolit va mikro servis arxitekturalarini baholash va tahlil qilishdan iborat. Maqolada monolit va mikro servis arxitekturalarining afzalliklari va kamchiliklari, ularning amaliy qo'llanilishi, samaradorligi va ta'lim tizimlarida qo'llanish imkoniyatlari o'rganilishi maqsad qilib olingan.

Kalit so'zlar: Monolit arxitektura, mikro servis arxitektura, tizim arxitekturasi, ta'limni boshqarish tizimlari.

KIRISH


Monolit va mikro servis arxitektura bu dastur yaratishdagi ikki xil yondoshuv bo'lib har ikkala arxitekturaning o'ziga yarasha yutuq va kamchiliklari mavjud. Bu arxitekturalarning ba'zi bir asosiy farqlari, qiyinchiliklari va afzalliklarini ko'rib chiqamiz.

Oxirgi yillarda mikro servis arxitektura ancha ommalashdi, ko'p loyihalar mikro servisdan yaratilishni boshladi. Mikro servis yaxshi yechim, lekin notog'ri foydalanilgan arxitektura bu kompaniya uchun tuzatib bo'lmaydigan qiyinchilik bo'lishi mumkin. Shuning uchun arxitekturani to'g'ri tanlash juda muhim hisoblanadi. Ba'zi loyihalar noto'g'ri tanlangan arxitektura sabab muvaffaqiyatsiz bo'ladi. Qaysi holatlarda qanday arxitekturani tanlashni yaxshilab bilib olish kerak.

MONOLIT ARXITEKTURA

Monolit arxitektura an'anaviy va eng ko'p ishlatilgan arxitekturalardan biri bo'lib, odatda dasturning yagona kod bazasi asosida yaratilgan bo'ladi. Misol uchun siz spring frameworkda dastur yaratsangiz, barcha yechimlar ilova ichidagi fayllarda bo'ladi va yagona bazaga ulanadi. Shuning uchun yagona kodli asosiy dasturlarni tushunish anchayin oson. Bu arxitekturadan deyarli barcha kompaniyalar foydalanadi yani yangi yaratilayotgan startuplar yoki yangi ish boshlayotgan kompaniyalar shu arxitekturani ishlatadi. Chunki bu usul mikro servislarga qaraganda boshqarish va ishlab chiqish ancha oson va ortiqcha resurs talab qilmaydi.

Monolit Arxitektura



1- Rasm.Monolit arxitektura asoslangan tizimlar

Asosiy qatlamlar taxminan shunday bo'ladi, balki qatlamlar soni ham ko'p bo'lishi mumkin lekin ma'lumotlar bazasiga ulanish doim o'xshash bo'ladi.

Monolit arxitekturaning ba'zi bir abzalliklari

- **Oddiylik** — Barcha kodlar bitta yechimda. Agar sizga biror bir o'zgarish kerak bo'lsa hamma kodlar bitta joyda joylashgan bo'ladi. Agar ilovani ishga tushurmoqchi bo'lsangiz faqat bitta ilovani ishga tushurasiz.

- **Oson deploy** — Oson joylashtirish bo'ladi chunki siz faqat bitta ilovani deploy qilish kerak xalos. Har doim yangi qo'shimchalar qo'shilsa yoki xatoni tuzatish qilinganda yagona ilovani deoplay qilinadi.

- **Tushunish oson** — Deyarli barcha dasturchilar monolit ilova bilan ishlagan, shuning uchun loyihaga tez kirishib, boshlab keta oladi.

- **Oson debug** — Debug (nosozlikni tuzatish) qilish oson barcha biznes mantiqlar bitta ilovada joylashganligi sabab qo'shimcha konfiguratsiyalarsiz oson dubug qilish mumkin

- **Test qilish oson** — hamma kodlar va konfiguratsiyalar bitta ilovada bo'lganligi sabab qo'shimcha konfiguratsiyalar, boshqa servislarni holatini(ishlayotganligini) va boshqa qo'shimcha ishlarni bajarish shart emas. Qo'shimchasiga oxirigacha testlarni oson implementatsiya qilinadi.

- **Oson Monitoring** — tizimda qandaydir xatoliklar yoki nosozliklar yuzaga kelsa aniqlash juda oson bo'ladi.

Monolit arxitekturaning kamchiliklari:

• **Tizim kattalashganda xizmat ko'rsatish qiyinlashishi** — Loyiha boshlanganida uni boshqarish anchayin oson bo'ladi lekin yillar o'tib kattalashgani sari uni boshqarish qiyinlashib boradi. Monolit ilovalar kichik va o'rta tizimlar uchun ideal yechim hisoblanadi.

• **Deploy payti ishlaymay turishi** — Ilova yangilash paytida butun boshli tizim ishlaymaydi, toki tizimi ishga tushmagunicha.

• **Jamoa kattalashgan sari ishlash qiyinlashib boradi** — Tasavvur qiling, katta jamoada bitta Monolit ilova bilan ishlayapti, har bir kichik jamoa o'ziga biriktirilgan turli xil vazifalarni yoki xatolarni tuzatish qiladi.

• **Qisman Mahstablash (scalability) imkoni yo'q** — Bilamizki, Monolitni ham mashtablash mumkin. Lekin aynan ko'p talab bo'layotgan qisminigina mashtablay olmaymiz, faqatgina to'liq mashtablashimiz mumkin. Bundan tashqari har doim ham gorizontal mashtablashdan foydalana olmaymiz. Natijada vertikal masshtabdan foydalanishga majbur bo'lamiz. Bu esa qimmat va chegaralangan masshtab hisoblanadi.


• **Texnologiyalarni cheklangaligi** — Monolit ilova bitta texnologiyada yaratilganligi uchun boshqa bir texnologiyani yoki tilni qo'shish juda qiyin. Misol uchun javada yaratilgan ilovaga python ni qo'shish juda qiyin.

• **Butun tizimni o'chib qolishi** — Ilova o'chib qolsa mikroservisdan farqli o'laroq butun tizim o'chib qoladi. mikroservisda esa bitta qisimgina ishlaymay turishi mumkin bo'ladi.

MIKROSERVIS ARXITEKTURA

Mikroservis arxitektura, ilovani kichik servislarga ajratib, har bir servis bir-biridan mustaqil bo'lgan, texnologik agnostik va har bir servisning o'zining mustaqil ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan servis hisoblanadi. Ushbu turdagi arxitektura juda ko'p afzalliklarga ega va yuqorida aytganimizdek yutuqlar bilan birga ko'plab kamchiliklar va murakkabliklarga ega. Mikroservislar bilan ishlash jamoadan ko'proq tajriba talab qiladi. Agar jamoa yetarlicha mikroservis bilan tajribaga ega bo'lmasa, kelajakda ko'plab muammolar kelib chiqishi mumkin.

Mikroservislar arxitekturasi kichik, avtonom xizmatlar to'plamidan iborat. Har bir xizmat o'z-o'zidan mavjud va cheklangan kontekstda yagona biznes qobiliyatini amalga oshirishi kerak. Cheklangan kontekst biznes ichidagi tabiiy bo'linish bo'lib, domen modeli mavjud bo'lgan aniq chegarani ta'minlaydi.



2-rasm. Mikroservice asosida qurilgan tizimlar

Mikroservis arxitekturasi ba'zi afzalliklari:

- **Oson yangilanish** — Mikro servis katta ilova bo'lmaganligi sabab servisini o'zgartirish, yoki butun boshli frameworkni almashtirish oson bo'ladi.
- **Tushunish oson** — Kichik ilova bo'lganligi sabab tizimni tushunish uchun katta vaqt talab qilmaydi.
- **Mustaqil ravishda tarqatish** — Har bir servis bir biridan mustaqilligi uchun biror bir mikro servisini deploy (yangilash) qilish uchun butun boshli ilovani o'chirib turish shart emas.
- **Ilovani o'chib qolish xavfini kamaytiradi** — Agar biror bir mikro servis qandaydir nosozlik bo'lsa, bu holat boshqa servislarga ta'sir qilmaydi. Ilovani boshqa qismlari ishlashda davom etadi.
- **Turli xil jamoalar bilan ishlash oson** — Biz bilamizki, har bir til va texnologiyani qulaylik va kamchiliklari mavjud. Agar biz mikro servislardan foydalansak qo'yilgan masalaga qarab qulay til va frameworkni ishlatishimiz va turli xil jamoalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.
- **Bitta muvaffaqiyatsizlik nuqtasini yo'q qilish** — Ilovani ko'plab kichik servislarga bo'lish, ilovadagi "yagona nosozlik nuqtasini" yo'q qiladi.
- **Moslashuvchan masshtablash** — Har bir mikro servis boshqa servislardan mustaqil ravishda masshtablanishi mumkin. Shunday qilib, ilovaning bir qismi ko'p so'rovlarni qabul qilganda, masalan, butun dasturni masshtablash o'rniga, faqat ma'lum bir mikro servisini masshtablash mumkin. mikro servislar ilovaning yuqori darajada mavjudligi (ishlab turishi) zarur bo'lgan hollarda qulaydir.
- **Turli ma'lumotlar bazalariga ega bo'lishi mumkin** — Har bir mikro servis uchun alohida ma'lumotlar bazasini tanlash mumkin. Bitta mikro servisdan relyatsion ma'lumotlar bazasi eng yaxshi variant bo'lishi mumkin, boshqa mikro servis uchun esa NoSQL ma'lumotlar bazasi yaxshiroq mos keladi va mikro servis bilan ishlash orqali bunga erishish mumkin. Har bir jamoa qaysi ma'lumotlar bazasi mikro servis uchun eng yaxshi variant ekanligini aniqlashi mumkin.

• **Texnologik agnostik** — Har bir mikroservis turli texnologiyalarda yaratilish mumkin, masalan .NET , Java, Node.js, Go. Shunday qilib, har bir jamoa mikroservisda qaysi texnologiyadan foydalanishni o'zlari hal qilishlari mumkin.

Mikroservislarining ba'zi kamchiliklari:

• **Rivojlanish samaradorligi** — Tasavvur qiling: 20 ta mikroservingiz bor, ulardan birida o'zgarish qilishingiz kerak. Boshqa mikroservislariga ulanish uchun local servislarni yoqish kerak yoki serverdagi dev versiyasiga ulanish kerak bo'ladi.

• **Disk raskadrovka qilish qiyin bo'lishi mumkin** — Mikroservis arxitekturani disk raskadrovka qilish qiyin bo'lishi mumkin. Tasavvur qiling servisga yangi future qo'shyapsiz va qilingan ishni test yoki xatolikni topish uchun boshqa servislarni ham ishga tushirish kerak bo'ladi.

• **Mikroservislar o'rtasidagi aloqa** — Mikroservislar o'rtasidagi aloqa ham ushbu turdagi arxitektura bilan ishlashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan narsadir. Sinxron aloqadan foydalanishi mumkin bo'lgan ba'zi mikroservislar mavjud (masalan, foydalanuvchi autentifikatsiyasi), lekin boshqalarda RabbitMQ, Kafka, Azure Service Bus yoki boshqalar kabi ba'zi turdagi xabar brokeri texnologiyasidan foydalangan holda asinxron aloqadan foydalanish yaxshiroqdir. Bu ham ilovaning murakkabligini oshiradi.

• **Xatolar bilan ishlov berish** — Mikroservis arxitekturasida xatolar bilan ishlash monolit ilovaga qaraganda ancha murakkab. Tasavvur qiling, ikki yoki undan ortiq mikroservislar yordamida so'rov qayta ishlanadi, agar birinchi mikroservisda so'rov muvaffaqiyatli bo'lsa, lekin ikkinchi mikroservisga so'rovda biror narsa noto'g'ri ketsa, jarayonni avvalgi holatga qaytarilishi kerak bo'ladi.

• **Avtomatlashtirilgan joylashtirish** - Mikroservisni deploy (joylashtirish) qilish monolit arxitekturadan farq qiladi. Ya'ni monolitda bitta servisni deploy qilinsa Mikroservisda ko'plab servislarni deploy qilinadi. Shuning uchun Mikroservis arxitekturada joylashtirishni avtomatlashtirilmasa joylashtirish juda murakkablashib ketadi.

• **Monitoring** — Monitoringga ega bo'lish uchun jurnallarni tekshirish va mikroservisda sodir bo'lgan barcha xatolar yoki muammolarni kuzatish mumkin bo'lgan markazlashtirilgan joyga ega bo'lish yaxshi yondashuvdir. Bu ilovada qandaydir error/bug sodir bo'lganligini aniqlashni biroz osonlashtiradi.

Xulosa

Demak xulosa o'rnida aytish mumkinki monolit arxitektura kichik va o'rta loyihalar uchun mos keladi.

Monolit arxitekturadan quyidagi hollarda foydalanish to'g'ri yechim bo'ladi.

- Loyihamiz katta bo'lmasligini bilsangiz,
- Loyiha qanday bo'lishini bilmasangiz masalan talablar aniq ko'rsatilmagan bo'lsa yoki qilinayotgan ish jamoa uchun yangilik bo'lsa, yani (Startup) loyiha bo'lsa,
- Loyiha konsepsiyalari aniq bo'lsa ,
- Jamoa kichik bo'lsa yoki jamoa yangi bo'lsa ,
- Loyiha kichik biznes logikalardan iborat va CRUD dan iborat bo'lsa, shu hollarda ishlatish to'g'ri yechim bo'ladi.

Xulosamiz shuki **mikroservis arxitekturasi**ni shu hollarda qo'llash albatta to'g'ri yechimdir.

- Ilova juda ko'p o'sishini va haqiqatan ham katta bo'lishini bilsangiz,
- Agar siz dasturiy ta'minot domeni va biznes qoidalari haqida bilsangiz yoki talablar aniq belgilangan bo'lsa va bu murakkab dastur bo'lishini aniqlash mumkin bo'ladi,
- Jamoa katta va murakkab eski ilovani qayta yozayotganda,
- Ilova uchun yuqori mavjudlik talab qilinganda,
- Moslashuvchan masshtablash dastur uchun talab bo'lganda,
- Bir nechta jamoalar bilan ishlashda va domen yaxshi ma'lum, bo'lganda
- Ilovani yaratish uchun bir nechta texnologiyalar kerak bo'lganda (ya'ni turli dasturlash tillari va turli framework bilan ishlaydigan bir nechta jamoalar)

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Software Engineering", by Ian Sommerville, 2015, pages – 790.
2. Holdener, A. T. (2008). Ajax: The Definitive Guide. Sebastopol, Ca.: O'Reilly and Associates.
3. Abrial, J. R. (2005). The B Book: Assigning Programs to Meanings. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
4. <http://www.Medium.com>

ZIYORAT TURIZMI

Mahina Nigmatova Bahodir qizi
Mahliyo Nigmatova Alisher qizi
Toshkent Davlat Xalqaro Kimyo Universiteti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda ziyorat turizmining o'ziga xosligi omillari keltirilgan va madaniy, tarixiy va tabiiy meros toifalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistonning tarixiy, madaniy merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va boshqarish sohasidagi mavjud vaziyat tahlil qilinmoqda. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va muhofaza qilish sohasida mavjud bo'lgan bir qator vazifalar va hal etilmagan muammolar ko'rsatiladi. Xususan, ziyorat turizmini targ'ib qilish orqali tashrif buyuruvchilarning katta oqimini jalb qilish, chunki O'zbekistonning qadimiy shaharlari Islom dunyosining markazlari sifatida tan olingan. Asrlar davomida bu er buyuk olimlar, faylasuflar, davlat arboblari va Islom ilohiyotchilarining beshigiga aylandi, ularning ismlari insoniyat tarixida oltin harflar bilan yozilgan.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, dam olish, madaniy boyitish, ma'naviy etuklik, poklanish, muqaddas joylar.

Аннотация: В статье представлены факторы уникальности паломнического туризма в Узбекистане и рассмотрены категории культурного, исторического и природного наследия. Также анализируется текущая ситуация в сфере охраны и управления объектами историко-культурного наследия Узбекистана. Показан ряд существующих задач и нерешенных проблем в области сохранения и защиты объектов культурного наследия. В частности, привлечь большой поток посетителей за счет развития паломнического туризма, поскольку древние города Узбекистана признаны центрами исламского мира. На протяжении веков эта земля стала колыбелью великих ученых, философов, государственных деятелей и исламских богословов, имена которых золотыми буквами вписаны в историю человечества.

Ключевые слова: паломнический туризм, рекреация, культурное обогащение, духовная зрелость, очищение, святые места.

Abstract: The article presents the uniqueness factors of pilgrimage tourism in Uzbekistan and examines the categories of cultural, historical and natural heritage. The current situation in the field of protection and management of historical and cultural heritage sites of Uzbekistan is also analyzed. A number of existing tasks and unsolved problems in the field of conservation and protection of cultural heritage sites are shown. In particular, to attract a large flow of visitors through the development of pilgrimage tourism, since the ancient cities of Uzbekistan are recognized as centers of the Islamic world. Over the centuries, this land has become the cradle of great scientists,

philosophers, statesmen and Islamic theologians, whose names are inscribed in golden letters in the history of mankind.

Key words: pilgrimage tourism, recreation, cultural enrichment, spiritual maturity, purification, holy places.

KIRISH

O'zbekistonda turizm biznesining rivojlanishi madaniy meros va madaniy ob'ektlarni tiklash va himoya qilish bilan bog'liq. O'zbekistonda sayyohlik biznesi rivojlanib borar ekan, asosan Buxoro, Samarqand, Xiva va Toshkent kabi tarixiy va qadimiy shaharlarda yangi tarixiy qimmatli tumanlar va yangi madaniy obidalar paydo bo'lmoqda. [1]

Islom dunyosida so'fiylikning taniqli ustalari Abu Ismoil Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali at-Termiziy; Buxoroning mashhur etti avliyosi, tasavvufchilar-Xo'jay Jahon-Abdulhalik G'ijduvoni, Xo'ja Muhammad Arif revgari, Mahmud anjir Fagnaviy, Xo'ja Ali Romitani, Muhammad bobo samosi, Said Mir Kulol va Bahauddin Naqshbandiya. [4] Bizga ma'lumki, Yevropa, Osiyo va Amerika sayyohlik bozorlarida sayyohlik ob'ektlari va resurslaridan foydalanish keng ko'lamliligi va cheklanmagan, shuning uchun so'nggi paytlarda sayyohlik sotuvchilari va provayderlari O'zbekistonga e'tibor qaratmoqda. Bundan kelib chiqadiki, sayyohlik infratuzilmasini yaratishda eng muhim narsa mamlakatning tarixiy, madaniy va o'ziga xos imidjiga putur etkazmaslikdir. [3]

Har bir madaniy, tarixiy, arxeologik, sayyohlik markazi va ob'ekti o'zining milliy o'ziga xosligi va tarixiy qiyofasiga mos kelishi kerak, bu esa sayyohlik xizmatlari xaridorlarining qiziqishini oshiradi. Natijada, tarixiy-tabiiy bog'larni yaratish milliy, mahalliy madaniy-tarixiy yodgorliklar va ob'ektlarni yagona tarixiy-ma'rifiy, me'moriy-landshaft va ijodiy-madaniy majmua sifatida saqlashga xizmat qilishi kerak.

Tadqiqot metodlari

Ziyorat tarixi A. Y. Aleksandrov, M. B. Birjakov, P. Giro, A. A. Romanov, R. G. Saakyants, M. V. Sokolova, diakon A. Musin tomonidan ko'rib chiqiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, aksariyat hollarda ziyorat sayohatlari ijtimoiy-tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan o'rganiladi. Ziyorat va turizmning nisbati A. yu. Aleksandrova, M. B. Birjakov, episkop M. Yegoryevskiy, T. T. Xristov va boshqalar. K. V. Chistov va N. A. Krinichnaya ijtimoiy va mifopoetik kontekstlarni xalq pravoslav an'analarida ziyorat sayohatlari (Belovodye, Kitej shahriga sayohatlar) mavjudligini o'rganadilar. Falsafiy va psixologik muammolar tahlil qilinadi (3. Bauman, K. G. Jung, J. Urri) deb nomlangan. Ziyorat sayohatlarini tasniflash va tipologizatsiya qilish masalalari hal qilinmoqda (M. Myuller, T. T. Xristov, D. Orekov). X. V. poplavskaya o'z asarlarini pravoslav ziyorat sayohatlarining asosiy belgilarini aniqlashga bag'ishlaydi. XX asrning 90-yillarida ko'rib chiqish mavzusi yangi dunyoviy

"muqaddas joylar" bo'lib, ular dunyoviy ibodat obyektlari, shu jumladan "haj" shaklida ham (S. B. Adonyeva, T. S. Shchepanskaya).

Tahlil va natijalar.

Hozirgi vaqtda tarixiy milliy boylikni, madaniy-tarixiy qadriyatni, madaniy merosni saqlash, qadimiy va zamonaviy o'zbek xalqining hayoti haqida tushuncha beradigan tarixiy, tabiiy va mahalliy landshaftlarni tiklash va himoya qilish zarur. [3] Islom olamining muhim ziyoratgohlari jamlangan Buxoro va Samarqand shaharlari tufayli O'zbekistonda ziyorat turizmi muhim rivojlanish salohiyatiga ega. Buni Buxoro misolida ko'rib chiqing. Muqaddas va olijanob Buxoroning mafkuraviy asosi so'fiylik ta'limotidir (ma'naviy rivojlanishda balandlikka erishishga imkon beradigan fan). Eng ko'p masjid (360) va madrasa (80) bo'lgan shahar "Islom dunyosi yulduzi" unvoniga sazovor bo'ldi. Bu Makka, Madina, Bag'dod, Damashq, Quddus va Mazari Sharif bilan birga dunyodagi ettita muqaddas shaharlardan biridir. [2, c. 41]

Qadimgi me'morchilikning eng yorqin, xilma-xil va ko'plab durdonalari ushbu shaharda to'plangan. Xususan, Buxoroda Markaziy Osiyo tasavvufining so'fiy monastirlari namoyish etilgan. Bu erda "Xo'jagon-Naqshbandiya" so'fiy ordeni keng tarqaldi, bu uning izdoshlaridan kundalik tashvish va qiyinchiliklardan voz kechmasdan Xudo bilan birlashish yo'lidan borishni, har doim o'zini takomillashtirish orqali Xudoga intilishni, ish bilan shug'ullanishni va kasbiy mahoratini rivojlantirishni talab qiladi. [1] Ta'limot Salmon Fars, Abu Bakr Siddiq, Muhammad Payg'ambar (sollallohu alayhi vasallam) ga asoslangan. Ushbu birodarlikning qirqaqa yaqin rahbarlari ma'lum, ulardan sakkiztasi buxoroliklar. Va ularning ettitasi Buxoro va uning atrofida dafn etilgan. Etti "muqaddas yuz" qabrlari bugungi kunda dunyoning turli burchaklaridan kelgan musulmonlar uchun ziyoratgoh bo'lib, ziyorat yo'li sifatida tanilgan — "Muqaddas Buxoroning etti bayrami" (1-jadvalga qarang). Makka va Madinaga haj qilishdan oldin, ziyoratchilar avval Imom Al Buxoriy va "yetti bayram" qabrini ziyorat qilishlari kerak. [1] Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik muhim va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda.

Xulosa

Turizmning rivojlanishi, xususan, ziyoratchilarning rivojlanishi tufayli biz diniy turizmga qiziqqan sayyohlarning ulkan oqimini jalb qilishimiz mumkin. [5] O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo' mitasi butun dunyodan tashrif buyuruvchilarni qabul qilishi mumkin bo'lgan ziyoratgohlarni ro'yxatdan o'tkazdi. Ularning 100 ga yaqini ziyoratgohlardan iborat bo'lib, ular nafaqat musulmonlar, balki nasroniylar, buddistlar va yahudiylar ham tashrif buyurishlari mumkin. [2, c.42] O'zbekiston noyob mamlakat bo'lib, uning hududida eng qadimgi sivilizatsiyalar va madaniyatlar vujudga kelgan va rivojlangan.

Adabiyot:

1. Navro'z-Zoda Z. B., Navro'z-Zoda Sh. B. Islomning barqaror sayyohlik asosi sifatida ziyorat qilish // http://nbisu.moy.su/ld/5/522_Navruz-Zoda_ISU.pdf
2. Tojibayev Shohruh Maqsudovich O'zbekistonda ziyorat turizmining xususiyatlari / / fan va ta'lim yutuqlari. 2020. № 8 (62). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-palomnicheskogo-turizma-v-uzbekistane>
3. Farmanov Erkin Alimovich, Qodirov Davronbek Xashimovich, Xo'jaeva Fotima Nabihonovna turizmni rivojlantirishda O'zbekiston madaniy merosining o'rni // fan va ta'lim Byulleteni. 2020. № 2–3 (80). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-kulturnogo-naslediya-uzbekistana-v-razvitiiturizma>
4. Imom Al-Buxoriy. Islomning Solihlari. https://zen.yandex.ru/media/islam_ihlas/imam-albuhari-pravedniki-islama-5fd2260c11774679764d4ec2
5. Dokashenko Lyudmila Vladimirovna Rossiya Federatsiyasida turizm sohasini rivojlantirish yo'nalishlari to'g'risida // Osu gazetasi. 2014. № 14 (175). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-napравleniyah-razvitiya-industrii-turizma-v-rossiyskoy-federatsii>
6. Misrbekova, M. M. O'zbekistondagi madaniy, me'moriy yodgorliklar / M. M. Misrbekova. - Matn: to'g'ridan-to'g'ri // tarixiy tadqiqotlar: IV xalqaro materiallar. ilmiy. konf. (Qozon shahri, 2016 yil may). Qozon: Buk, 2016 Yil. 21-24 betlar. — URL: <https://moluch.ru/conf/hist/archive/169/10275/>

ABSTRACT WORDS AND THEIR TRANSLATION PROBLEMS

Jumayeva Ilmira Yoqub qizi

O'zbekiston davlat Jahon tillari Universiteti

1-bosqich magistranti

Abstract: Language serves as a powerful tool for communication, allowing us to express thoughts, emotions, and abstract concepts through words. Abstract words, which represent intangible ideas, qualities, or states, pose unique challenges when it comes to translation. Translating abstract words involves more than just finding equivalent terms in another language; it requires an understanding of cultural nuances, context, and the subjective nature of these concepts. Abstract words encompass a wide range of concepts such as love, justice, freedom, happiness, and beauty. These words convey meanings that go beyond the physical realm and are deeply rooted in human experiences and emotions. While concrete words refer to tangible objects or actions that can be easily visualized, abstract words deal with feelings, beliefs, values, and philosophical ideas.

Key words: Cultural nuance, metaphorical language, target language, collaboration, complexity, linguistic boundary, tone, cultural norm.

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY:

Abstract nouns refer to intangible concepts, qualities, or ideas that cannot be perceived through the five senses. Translating abstract nouns from one language to another can be particularly challenging due to the inherent differences in linguistic structures, cultural nuances, and semantic meanings. Here are some common problems encountered in the translation of abstract nouns:

1. **Cultural Differences:** Abstract concepts often have cultural connotations that may not have direct equivalents in another language. Translators need to consider cultural nuances and context to accurately convey the intended meaning.

2. **Linguistic Variations:** Languages vary in their structures and expressions for abstract concepts. Some languages may have specific words for certain abstract nouns that do not exist in other languages, leading to difficulties in finding exact equivalents.

3. **Ambiguity and Subjectivity:** Abstract nouns are inherently subjective and open to interpretation. Translators may struggle to find precise equivalents that capture the full range of meanings and nuances associated with abstract concepts.

4. **Contextual Understanding:** Translating abstract nouns requires a deep understanding of the context in which they are used. Without proper context, translators may misinterpret or mistranslate the intended meaning of abstract terms.

5. **Idiomatic Expressions:** Abstract nouns are often used in idiomatic expressions that may not have direct translations. Translators need to be familiar with idiomatic usage in both languages to convey the intended meaning accurately.

6. **Loss of Emotional Impact:** Abstract nouns can carry emotional or poetic connotations that may be lost in translation. Translators must strive to preserve the emotional impact and tone of the original text when dealing with abstract concepts.

Cultural Nuances: Different cultures may have unique perspectives on abstract concepts, leading to variations in how these words are understood and expressed. Translators must consider cultural norms, beliefs, and values to accurately convey the intended meaning.

Linguistic Equivalents: Finding direct equivalents for abstract words in another language can be challenging due to linguistic differences. Some languages may lack precise terms for certain abstract concepts, requiring translators to use descriptive phrases or explanations instead.

Subjectivity: Abstract words are subjective and open to interpretation, making it difficult to capture their full depth and complexity in translation. Translators must navigate the nuances of each word's meaning within its specific context.

Contextual Understanding: Translating abstract words requires a deep understanding of the context in which they are used. The meaning of an abstract word can vary depending on the situation, tone, and cultural background of the speaker.

Emotional Connotations: Abstract words often carry emotional connotations that may not easily transfer across languages. Translators must consider the emotional impact of these words and strive to preserve their intended sentiment.

Strategies for Translating Abstract Words:

1. **Cultural Adaptation:** Translators should adapt abstract words to suit the cultural context of the target language while preserving the original meaning and emotional tone.
2. **Contextual Clarification:** Providing additional context or explanations can help convey the nuances of abstract words that may not have direct equivalents in experts, or conducting research on cultural nuances can enhance the accuracy and effectiveness of translating abstract words.

CONCLUSION: Translating abstract words poses significant challenges due to their subjective nature, cultural nuances, and the target language.

3. **Creative Expression:** Translators may need to creatively rephrase or use metaphorical language to capture the essence of abstract words in translation.
4. **Collaboration and Research:** Working closely with native speakers, subject matter experts, and using translation tools can help overcome these challenges. To overcome these challenges, translators must approach each word with sensitivity, creativity, and a deep understanding of both languages and cultures. By navigating these complexities thoughtfully, translators can ensure that the richness and depth of abstract words are preserved across linguistic boundaries. To address these challenges, translators often rely on their linguistic skills, cultural knowledge, and context analysis to ensure accurate and meaningful translations of abstract nouns. Collaboration with subject matter experts, use of translation tools, and thorough research can also help overcome some of the difficulties in translating abstract concepts across languages.

IMOM G‘AZZOLIYNING "KIMYOYI SAODAT" ASARIDA KO‘NGIL FALSAFASI

Qo‘chqorova Nargiza

Sodiqova Zuhraxon

Farg‘ona Davlat Universiteti

Filologiya fakulteti: O‘zbek tili yo‘nalishi

3-kurs talabalari

Annotatsiya. Sharq Uyg‘onish davrining buyuk donishmandlaridan biri, diniy va dunyoviy bilimlar sohibi, tavhid, kalom, tafsir, hadis ilmining rivojiga xizmat qilgan, atoqli faylasuf Muhammad Abu Homid G‘azzoliy "Kimyoyi saodat" asarlarining mazmuni bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, ma’rifat, axloq, pedagogik qarash, qadriyat, integrasiya, yuksak axloqiy fazilat.

Abu Homid Muhammad Ibn Muhammad al-G‘azzoliy (1058-1111) Imom G‘azzoliy Eronning Tus qishlog‘ida tug‘ilib shu yerda vafot etganlar. Otalari Muhammad al-G‘azzoliy. Imom G‘azzoliy Nishopur shahrida ash‘ariy ulamo Juvayniy qo‘lida tahsil ko‘rdi. Saljuqiylar vaziri Nizomulmulk huzurida Bag‘dodda xizmat qildi, Nizomiya madrasasida faqih-mudarris sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Ismoililar Nizomulmulkni o‘ldirganidan so‘ng haj bahonasida Bag‘dodni tark etib, Damashqda 11 yil yashadi. Keyinchalik Nizomulmulk o‘g‘li Faxrulmulk taklifi bilan yana Nizomiya madrasasida mudarrislik qildi. U kishining zamondoshlari "Hujjatul islom" deb ulug‘lashgan.

Imom G‘azzoliy Sharqning dunyoga mashhur mutafakkirlaridan, Kalom ilmi, fiqh, tafsir, hadis, falsafa va tasavvuf masalalari bo‘yicha bir nechta jahonshumul ahamiyatga ega kitoblar muallifidir. Imom G‘azzoliy o‘z asarlarida islom ilohiyotini falsafiy jihatdan asoslashga harakat qilgan. G‘azzoliy xudoni aql orqali anglash mumkin emas, uni maxsus ruhiy, jismoniy harakatlar — sig‘inish va ibodatlar orqali anglash mumkin deb hisobladi. Sunniylik aqidalarini tasavvuf ideallari bilan birga qo‘shib talqin qilgan. G‘azzoliyning fikricha, insonning Alloh buyurgan amallardan o‘ziga maqbulini tanlab olishi o‘z ixtiyoridadir, shu bois mazkur xatti-harakatlari oldindan belgilab qo‘yilishiga qaramay ular uchun aynan insonning o‘zi mas‘uldir. G‘azzoliyning diniy tizimi tasavvufni an’anaviy islom bilan birlashtirdi. G‘azzoliy g‘oyalari islom tafakkuriga va o‘rta asr Yevropa falsafasiga ta’sir ko‘rsatdi.

Imom g‘azzoliyning falsafa va tasavvufga oid asarlari juda yorqin, ravon va tushunarli uslubda yozgan. Jumladan

Fiqhga doir “Bosit”, “Vojiz”, “Vosit”, Aqidaga doir “Qavoid al-Aqoid” (“Aqidalarning qoidalari”), “ar-Risolat al-qudsiya” (“Qudsiya risolasi”), Mutasavviflar uchun “Ihya ulum ad-din” (“Diniy ilmlarni tiriltirish”), “Mukoshafat ul-qulub” (“Qalblar kashfiyoti”) asarlari mashhur. Shuningdek, “Tahofut al-falasifa” (“Faylasuflarni rad etish”), “Kimyo-i-saodat” (“Saodat kimyosi”), “Maqosid al-falasifa” (“Faylasuflarning maqsadlari”) mazkur asarlar olim ijodida muayyan o‘rin egallaydi.

Bulardan tashqari “Ey farzan” “Oxiratnoma” “Qiyomat va Oxirat” “Qirq hadisi qudsiy” “Til ofatlari” Uylanish odobi” “Hidoyatning boshlanishi kabi asarlar Imom G‘azzoliyning eng mashhur asarlaridan biri hisoblanadi.

Mavlono Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy o‘z davrining mujaddidi bo‘lib, musulmon urf-odatlariga ko‘ra, bu islom taqvimining har bir asrning boshida islomni qayta tiklash, uni begona predmetlardan tozalash va uning pokligini tiklash uchun xizmat qilgan shaxslarga nisbatan ishlatilgan. Shu boisdan ham G‘azzoliy o‘z asarlarida islom ilohiyotini falsafiy jihatdan asoslash bilan birgalikda ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya masalariga alohida e‘tibor bergan. G‘azzoliy aql bilan dunyoni anglashni, islomiy ta‘lim-tarbiyani esa ruhiy, jismoniy harakatlar - toat-ibodatlar orqali anglash lozim, deb ta‘kidlaydi.

Muhammad al-G‘azzoliyning ilmiy merosidagi ma‘naviy-axloqiy qarashlari pedagogik ahamiyati beqiyosdir. Asarlarda axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me‘yorlar bilan birgalikda islomiy ta‘lim-tarbiya juda chiroyli bayon etilganki, uni o‘rgangan har bir yosh avlod ajodolar va mos voris bo‘lib yetishadi.

Ulug‘ allomaning ushbu asaridagi g‘oyalar ixchamlashgan tarzda "Kimyoyi saodat" nomi bilan fors tilida ham bayon qilingan. IX asrdan avj ola boshlagan islom ma‘rifatchiligi X — XI asrlar davomida mintaqa madaniyatiga islomgacha bashariyat yaratgan bu-tun ma‘naviy boylikni o‘sha davr imkoni darajasida olib kirib, uni chuqur o‘zlashtirish va yangicha ruhda qayta talqin qilishga erishdi. Ammo bu orada ushbu bosqichning noqis jihatlari ham ko‘rinib qola boshladi. Shuningdek asarda ollohga bo‘lgan muhabbatga alohida e‘tibor qaratgan.

Birinchiidan g‘oyalar xilma-xilligi nihoyatda kuchayib, ular orasida ba‘zan murosasiz kurash va ziddiyatlar avj olib ketdi. Islom dini ichida turli bid‘atlar beaded ko‘payib ketgan edi.

Ikkinchiidan, ko‘proq hukmdorlar saroyida va xos ziyolilar orasida yuqori darajalar-ga ko‘tarilgan ilm va mantiqiy tafakkur mevalari hanuz Sunna va shariat bosqichida qolib kelayotgan oddiy shahar va qishloq aholisi (avom) orasiga ko‘p singib bormagan va ma‘lum ma‘noda, keng xalq ommasi bilan xos ilmiy doiralar tafakkur darajasi orasida uzilish vu-judga kelgan edi. Sunna yo‘nalishi namoyandalari jamiyatni ushbu uzilish tug‘dirishi mumkin bo‘lgan ma‘naviy nomavzunlik holatidan himoya qilish niyatida moturidiya va ash‘ariya Kalomiga tayangan holda xalifa al- Qodir (991

— 1031) farmoni bilan imon asoslarini ishlab chiqdilar va joriy etdilar. Ammo bu bilan fikr rivoji to'xtab qolgani yo'qdir. Tavhid ta'limoti zaminida borliqni anglab yetish turli yo'nalishlarda davom eta berdi va tafakkur rivojini hech qanday farmon bilan ushlab turish mumkin emasligi borgan sari oydinlashib bordi.

Uchinchidan, Abbosiylar (750-1055), Somoniylar (874-999), G'aznaviylar (955-1048), Saljuqiylar (1040-1092) tomonidan takomil-lashtirilib, islomgacha davrga nisbatan butunlay yangilangan davlat tizimi va jamiyat tizimi ma'lum avj pallasiga ko'tarilib, XI asr oxir-lariga borganida uning muayyan ichki ziddiyatlari namoyon bo'la boshladi. Ismoiliya bid'atining yaratuvchilik faoliyati susayib, yashirin qotilliklar yo'liga o'tishi, ulug' vazir Nizomulmulkning o'ldirilishi (1092-yil) va buyuk saljuqiy hukmdori Malikshoh (1072-1092) vafotidan so'ng o'g'illarining toj-taxt janjallari shu ulg'ayib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy bo'hronning nishonalari edi.

To'rtinchidan, shahar aholisi, ayniqsa, hunarmand - kosiblar va o'rta hoi savdo ahlining ma'rifati va ijtimoiy mavqeyi yuksalib borar, ularning ma'naviy ehtiyojlari va bilim darajasi keskin oshib, ijtimoiy faolliklar har sohada sezila boshlagan edi. Futuvva va axiylik jamoalari borgan sari keng tarkib topib, tasavuf g'oyalari xonaqoh va huj-ralardan chiqib, xalq ichiga yoyildi. Xullas, XI asr oxiri - XII asr boshlarida jamiyatning ma'naviy ahvoli yangi bir bosqichda uyg'unlashuv va muvozanatni taqozo etardi. G'azzoliy ijodi ushbu ehtiyojga eng mukammal javob bo'ldi. O'zaro bans va nizolar o'rniga el ma'naviyatida shunday bir uyg'un muvozanat taklif etildiki, uning barcha toifa va yo'nalishlar, barcha ijtimoiy guruhlar va fikriy oqimlarga o'zaro yaqinlashuv imkonini beruvchi qudrati va mazmun boyligi yaqqol sezildi. G'azzoliy o'zining bosh asarida Sunna va tasavvuf qadriyatlarini o'zaro uyg'un ekanligini isbotlab qo'yaqolmay, imon, ilm va irfonning yaxlitligini mantiqiy asoslab berdi. Ko'plab tasavvuf namoyondalari singari G'azzoliy ham haqiqiy muhabbat faqat ollohga nasbat bo'lishini asarlarida yoritib bergan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zining benazir mehnatlari bilan butun dunyoda "Hujjatul Islom" unvoni bilan ulug'lanib kelayotgan Imom Abu Homid G'azzoliy asarlari islom dini mohiyatini barcha nozik jihatlarigacha e'tiborga olib, teran tafakkur va idrok etish, tushunish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Abu Homid G'azzoliyning asarlarida e'tiqod masalalarga alohida munosabat bildirilib, mehr-muhabbat bilan yo'g'rilgan sifatlar, shubhasiz, talabalarda insoniy sifatlarning shakllanishida va rivojida muhim rol o'ynab, ulug' maqsad hamda vazifalarini amalga oshirishda manbalardan biri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Homid G'azzoliy «AYYUHAL VALAD» ASARINING O'ZBEK TILIDAGI TARJIMASI (qayta nashr) T.: Movarounnahr 2005 yil.

2. Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy „IHYOU ULUMID-DIN" (Din ilmlarini jonlantirish) Ilm kitobi Birinchi kitob. T.: «Movarounnahr» 2005 yil

3. Ortiqov O. R. GLOBALASHUV JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI //Scientific progress. - 2021. - T. 1. - №. 5. - С. 160-165.

4. Ortiqov O. R. MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TALIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. -2022. - №. 3-2 (94). - С. 1130-1135.

5. Ortikov O. R. MUHAMMAD ABU HOMID IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA ILM-MA'RIFAT VA AXLOQ MASALALARI //MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, -С. 117-122

6. Ortiqov O. R. TALABALAR MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA "QOBUSNOMA" ASARIDAN FOYDALANISH //Conferencea. - 2023. - С. 1-5.

LOTIN TILINI O'QITISHDA PEDAGOGIK VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNI TADBIQ ETISH

Xafizova Muxarram Nematilloeyvna

Osiyo xalqaro universiteti Klinik fanlar kafedrasida

E-mail: hafizovamuharram98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada lotin tilini o'qitishda yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni tadbiiq etish haqida so'z yuritiladi. Ta'lim texnologiyasiga alohida e'tibor bilan qaralishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman, chunki ta'lim texnologiyalarida o'quvchi talaba yoshlarning ichki resurslarini hisobga olgan holda amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish, bilim, malaka va ko'nikmalarni yaxshiroq shakllantirishning samarali usullarini izlab topish darkorligi uqtiriladi.

Kalit so'zlar: metod, innovatsion texnologiyalar, tarqatma materiallar, ta'lim texnologiyasi

“Dunyoda qancha o'qituvchi bo'lsa, metodlar ham shuncha” degan ekan Konfusiy. Ma'lumki, ta'lim jarayoni murakkab va shaklan xilma-xildir. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida “Lotin tili va tibbiy terminologiya” amaliy mashg'ulotlarida yangi o'quv materialini prezentatsiya(taqdimot)si turli metodlar, uni turli-tuman mashq va topshiriqlar orqali tegishli muammoli vaziyatlarga mos qo'llash orqali kerakli nutqiy ko'nikma va malakalar hosil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Demak, lotin tilini o'qitishda yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni tadbiiq etish haqida o'ylar ekanmiz, ta'lim texnologiyasiga alohida e'tibor bilan qaralishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman, chunki ta'lim texnologiyalarida o'quvchi talaba yoshlarning ichki resurslarini hisobga olgan holda amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish, bilim, malaka va ko'nikmalarni yaxshiroq shakllantirishning samarali usullarini izlab topish darkor.

Amaliy mashg'ulotlarda yangi texnologik jarayon va o'qitishning eng yangi zamonaviy usullarini tadbiiq qilishga yangicha yondashuv lotin til o'qitishning maqsadini o'quvchi talabalarga bilim berish va ma'lum nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishda emas, shuningdek o'quvchi talabalarning qobiliyatini rivojlantirish, lotin tiliga nisbatan qiziqishini yanada kuchaytirish, ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'quvchi talabalardagi o'z kuchi va aqliga bo'lgan ishonchining shakllanishini ham o'z ichiga oladi.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida lotin tilini o'qitishda o'qituvchi o'zi o'tayotgan dars natijasining 50% o'z faoliyatiga, 50% o'quvchi talabalar faoliyatiga bog'liqligini unitmasliklari kerak, chunki o'qituvchi mavzuni to'liq bayon etgandan keyin mavzuni mustahkamlashda turli torshiriqlar, mashqlar, mavzuga oid savollar,

tarqatma materiallardan foydalanib darsni mustahkamlaydi. Dars jarayonida til o'rganishning quyidagi bosqichlari amalga oshiriladi:

1. Tinglab tushunish, lotin tilidagi o'quv materiallarini tinglab tushunish, bu til tovushlari yordamida amalga oshiriladigan ko'nikma hisoblanadi. Bunda ona tilida bo'lmagan til tovushlari, o'quvchi –talabalar aralashtirib yuboradigan lotin tilidagi tovushlar qiyinchilik tug'diradi. Bu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun bir qator mashqlarni bajarishni talab qiladi. **2. Yozuvni o'rganish**- harflardan so'zlar yasash, so'zlar orqali iboralar tuzishni o'rgatishdir. Yozma nutq hayotda keng foydalaniladi. Shu jumladan, bugun tibbiyot ta'lim muassasalarida yozma nutqni o'rgatish katta ahamiyat kasb etadi. **3. To'g'ri o'qishni o'rganish**- lotin tilida ayrim undosh harflar (c, h, x, y), diftong (ae, oe, au, eu), digraph (ph, ch, rh, th,) va harf birikmalari (qu, ngu, ti, su)ning talaffuzi va bu harflar ishtirokidagi terminlarni to'g'ri o'qiy olish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun talabalarga o'qish materiallarini ko'paytirish darkor. **4. Tarjima qila olish**- talabalarda anatomik terminlarni lotin tilidan o'zbek tiliga va aksincha o'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qila olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish o'qituvchidan katta ma'suliyat talab qiladi.

O'quvchi talabalarning amaliy mashg'ulotdagi faolligini oshirishda ko'pgina interfaol metodlardan foydalanish mumkin. Barcha oliy o'quv yurtlarida tadbiiq etilayotgan innovatsion kompyuter texnologiyalari, interfaol metodlar ancha ko'paygan. Ushbu metodlarning ko'plab xillari bo'lib, hozirgi kunda qo'llanilayotgan rolli o'yinlar, "Aqliy hujum", "Baliq skeleti", "Qorbo'ron", "Tezroq, sifatliroq", "Zanjir", "O'yla, izla, top", "Ishbilarmonlik o'yinlari", "Qarorlar shajarasi", "Savollar daraxti", "Kim chaqqon", klaster, sinkveyn, Veyn diagrammasidan foydalanish va boshqa shu kabi interfaol metodlarning barcha ko'rinishlari tabiiyki, ta'lim jarayonida o'quvchi talabalarning faolligini oshirishga qaratilganligi yaxshi. Asosiy maqsadimiz talabalar darsda zerikib qolmasin, balki lotin tilini o'rganishga qiziqtirish. Darsga qiziqib o'zi xoxlab kelsin, uni majburlab olib o'tirish kerak emas. Lotin tilini o'rganish zarurligini dildan his qilsin. Amaliy mashg'ulot jarayonidagi innovatsion texnologik faoliyat mazkur jarayonni oldindan rejalashtirishni, o'qitish, o'rgatish maqsadlarini aniq belgilashni, shuningdek o'quvchi talabalardan faol ishtirokini taqozo etadi. Bu faoliyat esa amaliy mashg'ulot darsini o'tishdan oldin uning har bir lazasini har tomonlama puxta o'ylab rejalashtirish, o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyati, berilayotgan bilim va uning o'quvchi talabalar tomonidan o'zlashtirish bosqichlari, metodlari, yordamchi vositalari, mashqlar, ularni bajarishning oldindan rejalashtirilgan ma'lum ketma-ketlikka ega bo'lgan va erishiladigan natijaning belgilab olinishini taqozo etadi. Bizda har bir amaliy mashg'ulot jarayonida o'qituvchi ko'plab metodlarni birin-ketin qo'llab dars samaradorligiga erishadi. Shuning uchun ham mashg'ulot birgina metoddan iborat deb bilmaymiz. Har bir metod o'tkazishda qo'llaniladigan o'quv usullarini ishlab chiqish talabalarda o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini

rivojlantirish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini rag'batlantiradi, talabalar tibbiyot til- lotin tilini ongli ravishda chuqur o'zlashtirishlariga motivatsiyani oshiradi. Shu bilan birga, talabalarning so'z boyligi oshadi, grammatika bo'yicha bilimlari yaxshilanadi, ta'lim darajasi oshadi.

Metodlar borki, o'quvchi talabalarni o'z shaxsiy qarashiga ega bo'lishga va turli-tuman muammoli sharoitlarda eng ma'qul yechimni topishga o'rgatadi. Bunday samarali metodlardan biri "klaster" bo'lib, bu usul talabiga ko'ra o'qituvchi tayanch so'zni doskaga yozib qo'yadi. Lotin tili amaliy mashg'ulotlarida masalan **OS** (suyak) atamasi doska o'rtasida yoziladi va talabalar ketma-ket shu atama bilan maksimum 15 ta atama yozishi kerak bo'ladi va o'zbekcha varianti qolgan talabalardan ketma-ket so'raladi yoki **OSSA CRANII** (kalla suyaklari) yoki **OSSA FACIEI** (yuz suyaklari) rasmiga qarab kalla suyaglarini ko'rsatib sanab beradi. So'ng shu so'zlar bilan birikishi mumkin bo'lgan so'zlar ham yoziladi. Bu faoliyat o'qituvchi o'quvchi talabalar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi talabalarning mashg'ulot jarayonidagi faolliklarini pasayishiga olib kelmasligi kerak. Bunday ishning o'quvchi talabalar bilan darajasiga mos olib borilishi esa ularda o'zlashtirilayotgan mavzuga va fanga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Ushbu tayanch so'zlar yordamida o'quvchi talabalar tibbiy terminlarni tuzadilar, o'qituvchi esa yordamchi savollar bilan ularni qo'llab-quvvatlab turib o'quvchi talabalarning passiv ishtirokchilarga aylanib qolmasliklarini oldini oladi. O'quvchi talabalar o'ylashi uchun berilgan vaqtda qancha fikr yuritsa, ularning barcha harakatlarini hisobga olib borish kerak. Bu esa passiv talabalarni qo'rqmasdan tez va sifatli fikr bildirishga undaydi. Ushbu ish shakli talabalarning ilmiy adabiyotlar, lug'atlar, Internet-resurslar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, barcha atamalar (anatomik, farmatsevtika va klinik) uchun asosiy bilimlarni kengaytirish va fanlararo integratsiyani chuqurlashtiradi va talabalarga anatomiya bo'yicha asosiy bilimlarni tizimlashtirish va chuqurlashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakayev, N. B., Shodiev, S. S., Khafizova, M. N., & Ostonova, S. N. (2020). SHAKESPEARS LEXICON: REASON WORD AS A DESIGN OF THE CONCEPT OF THE ABILITY OF THE HUMAN MIND TO ABSTRACTION, CONCLUSION. *Theoretical & Applied Science*, (6), 162-166.
2. Nematilloeyvna, K. M. The Easy Ways of Learning Medical Plants (Phytonyms) in the Department of Pharmaceutical Terminology. *JournalNX*, 7(06), 274-277.
3. Хафизова, М. (2023). ТРИ ЧАСТИ МЕДИЦИНСКИХ ТЕРМИНОВ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12 Part 2), 134-138.
4. Хафизова, М. (2023). ПРОСТЫЕ СПОСОБЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ (ФИТОНИМОВ) В РАЗДЕЛЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ

- ТЕРМИНОЛОГИИ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11 Part 2), 193-198.
5. Nematilloeyvna, X. M. (2024). ANATOMIK TERMINOLOGIYA VO'LIMIDA LOTIN TILI SIFATLARINING MA'NO JIHLTLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(5), 47-54.
 6. Nematolloeyvna, X. M. (2024). LOTIN TILI OT SO'Z TURKUMINING O'ZBEK GURUHLARDA O'RGANILISHI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 104-110.
 7. Hafizova, M. (2024). LOTIN TIL AMALIY MASHG'ULOTLARIDA TERMIN, ATAMA VA IBORA SO'ZLARINING QO'LLANILISHI. *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 1(1), 132-136.
 8. Хафизова, М. Н. (2024). УПОТРЕБЛЕНИЕ ЛАТИНСКИХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В РАЗДЕЛЕ АНАТОМИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 16(2), 256-265.
 9. Nematilloeyvna, X. M. (2024). LOTIN TILI MODULIDA SANOQ VA TARTIB SONLARNING QO'LLANILISH JIHLTLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 16(2), 249-255.
 10. Khafizova, M. (2024). STUDING MEDICINAL PLANTS (PHYTONYMS) IN THE SECTION OF PHARMACEUTICAL TERMINOLOGY. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 4-7.
 11. Nematillaevna, K. M. (2024). Aspects of the Usage of Cardinal and Ordinal Numerals in the Latin Language Module. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(3), 278-283.
 12. Хафизова, М. Н. (2024). ПРИМЕНЕНИЯ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ В МЕДИЦИНСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *TADQIQOTLAR. UZ*, 34(3), 116-122.
 13. Nematilloeyvna, X. M. (2024). TIBBIYOT TERMINOLOGIYASIDA MA'NODOSH SO'ZLARINING QO'LLANILISH ASPEKTLARI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 6(2), 202-212.
 14. Nematolloeyvna, X. M. (2024). LOTIN TILI VA TIBBIYOT TERMINOLOGIYASI MODULIDA OT, SIFAT, SON VA FE'L SO'Z TURKUMLARINING LUG'ATDA BERILISH SHAKLLARINI O'RGANISH. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*, 3(4), 314-319.
 15. Хафизова, М. Н. КРИТЕРИИ ОБУЧЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ.
 16. Qilichovna, A. M., & Nematilloeyvna, X. M. (2024). TIBBIYOT TILI HISOBLANMISH LOTIN TILINI SAMARALI O'RGANISH OMILLARI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 197-206.
 17. Nematilloeyvna, X. M. (2024). UCH ASOSIY TERMINOLOGIK LUG'ATLARNING TILI. *PEDAGOG*, 7(1), 184-187
 18. Qilichovna, A. M. (2024). CLINIC FOR PATIENTS WITH DENTURES COMPARATIVE DIAGNOSIS AND PATHOGENESIS. *TADQIQOTLAR*, 30(3), 127-135.
 19. Ahmedova, M. (2023). COMPARATIVE ANALYSIS OF NUTRITIONAL DISPARITIES AMONG PEDIATRIC POPULATIONS: A STUDY OF CHILDREN WITH DENTAL CAVITIES VERSUS THOSE IN OPTIMAL HEALTH. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(12), 68-72.

20. Ahmedova, M. (2023). DIFFERENCES IN NUTRITION OF CHILDREN WITH DENTAL CARIES AND HEALTHY CHILDREN. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(12), 42-46.
21. Axmedova, M. (2023). TISH KARIESINING KENG TARQALISHIGA SABAB VO'LUVCHI OMILLAR. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12), 200-205.
22. Ахмедова, М. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ КОМПЬЮТЕРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЭТАПАХ ДИАГНОСТИКИ И ПЛАНИРОВАНИЯ ОРТОПЕДИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЭНДОССАЛЬНЫХ ИМПЛАНТАТОВ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(11 Part 2), 167-173.
23. Axmedova, M. (2023). USE OF COMPUTER TECHNOLOGY AT THE STAGES OF DIAGNOSIS AND PLANNING ORTHOPEDIC TREATMENT BASED ON ENDOSSEAL IMPLANTS. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(11), 54-58.
24. Ахмедова, М. (2020). НАРУШЕНИЯ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ФУНКЦИИ ПРИ РАЗВИТИИ АФТОЗНОГО СТОМАТИТА. *Достижения науки и образования*, (18 (72)), 65-69.
25. Axmedova, M. (2023). THE IMPACT OF SOCIOCULTURAL FACTORS ON THE PERVASIVENESS OF DENTAL CARIES AS A COMPLEX HEALTH CONDITION IN CONTEMPORARY SOCIETY. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(9), 24-28.
26. Ахмедова, М. К. (2024). ОБЩИЕ ПРИЧИНЫ КАРИЕСА ЗУБОВ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 77-85.
27. Qilichovna, A. M. (2024). CLINICAL SIGNS WHEN ACCOMPANIED BY DENTAL DISEASES AND METABOLIC SYNDROME. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 116-24.
28. Ахмедова, М. К. (2024). Профилактика Стоматологических Заболеваний У Беременных. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 3(3), 66-72.
29. Ахмедова, М. К. (2024). ОСНОВНЫЕ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ТКАНЕЙ ПАРОДОНТА У ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 254-260.
30. Qilichovna, A. M. (2024). PREVENTION OF PERIODONTAL DISEASES IN CHILDREN AND TEENAGERS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 234-239.
31. Qilichovna, A. M. (2024). PREVENTION OF PERIODONTAL AND GUM DISEASES IN PREGNANT WOMEN. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 240-245.
32. Qilichovna, A. M. (2024). HOMILADOR AYOLLARDA TISH VA PARADONT KASALLIKLARINING OLDINI OLIISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 246-253.
33. Ахмедова, М. К. (2024). ИЗУЧЕНИЕ ПРИЧИННЫХ ФАКТОРОВ ПАРОДОНТИТА. *Journal of new century innovations*, 49(3), 47-53.
34. Qilichovna, A. M. (2024). TO STUDY THE FACTORS THAT CAUSE PERIODONTITIS. *Journal of new century innovations*, 49(3), 40-46.

35. Qilichovna, A. M. (2024). THE ROLE OF PATHOGENESIS IN THE GROWTH FACTORS OF PERIODONTITIS DISEASE. *Journalofnewcenturyinnovations*, 49(3), 25-32.
36. Qilichovna, A. M. (2024). TISH KARIYESI BO'LGAN BOLALAR VA SOG'LOM BOLALARNING OVQATLANISHIDAGI FARQLAR. *Ta'limningzamonaviytransformatsiyasi*, 6(2), 213-223.
37. Ахмедова, М. К. (2024). РАЗЛИЧИЯ В ПИТАНИИ ДЕТЕЙ С КАРИЕСОМ ЗУБОВ И ЗДОРОВЫХ ДЕТЕЙ. *Ta'limningzamonaviytransformatsiyasi*, 6(2), 224-234.
38. Qilichovna, A. M., Nematilloevna, X. M., &Ergashevich, I. I. (2024). THE ROLE OF CARIOGENIC AND PROTECTIVE FACTORS IN THE PREVENTION OF CARIES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(8), 45-51.
39. Qilichovna, A. M., Nematilloevna, X. M., &Ergashevich, I. I. (2024). KARIYESNING OLDINI OLISHDA KARIOGEN VA HIMOYA OMILLARNING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 43(8), 52-59.
40. Qilichovna, A. M. (2024). FACTORS CAUSING THE WIDE SPREAD OF DENTAL CARIES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(4), 154-160.
41. Nematilloevna, X. M., &Qilichovna, A. M. (2024). MORPHO-FUNCTIONAL CHANGES IN ACUTE FORMS OF APHTHOUS STOMATITIS: Yangi O'zbekiston taraqqiyotidatadqiqotlarnio'rnivarivojlanishomillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotidatadqiqotlarnio'rnivarivojlanishomillari*, 6(4), 177-186.
42. Qilichovna, A. M., &Nematilloevna, X. M. (2024). METABOLIK SINDROMI VA QON BOSIMI BOR BEMORLARDA O'ZGARISH XUSUSIYATLARI BAHOLASH: Yangi O'zbekiston taraqqiyotidatadqiqotlarnio'rnivarivojlanishomillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotidatadqiqotlarnio'rnivarivojlanishomillari*, 6(4), 187-196.
43. Qilichovna, A. M., &Nematilloevna, X. M. (2024). TIBBIYOT TILI HISOBLANMISH LOTIN TILINI SAMARALI O'RGANISH OMILLARI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotidatadqiqotlarnio'rnivarivojlanishomillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotidatadqiqotlarnio'rnivarivojlanishomillari*, 6(4), 197-206.
44. Saloxiddinovna, X. Y. (2024). Current Views of Vitamin D Metabolism in the Body. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 235-243.
45. Saloxiddinovna, X. Y. (2024). MORPHOFUNCTIONAL FEATURES OF THE STRUCTURE AND DEVELOPMENT OF THE OVARIES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(4), 220-227.
46. Saloxiddinovna, X. Y. (2024). Modern Views on the Effects of the Use of Cholecalciferol on the General Condition of the Bod. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 3(5), 79-85.
47. Togaydullaeva, D. D. (2022). ARTERIAL GIPERTONIYA BOR BEMORLARDA KOMORBIDLIK UCHRASHI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 32-35.
48. Togaydullaeva, D. D. (2022). Erkaklarda yurak ishemik kasalligining kechishida metabolik sindrom komponentlarining ta'siri. *Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya*, 1(4), 29-34.
49. Dilmurodovna, T. D. (2023). MORPHOLOGICAL ASPECTS OF THE THYROID GLAND IN VARIOUS FORMS OF ITS PATHOLOGY. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149)*, 1(8), 428-431.

50. Dilmurodovna, T. D. (2023). Morphological Signs of the Inflammatory Process in the Pancreas in Type I and II Diabetes Mellitus. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(11), 24-27.
51. Dilmurodovna, T. D. (2023). КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЕ ВОСПАЛИТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЕ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ I И II ТИПА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(1), 173-177.
52. Khafiza, J., & Dildora, T. (2023). Frequency of Comorbid Pathology among Non-Organized Population. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(4), 260-266.
53. Dilmurodovna, T. D. (2023). Clinical and Diagnostic Features of the Formation of Arterial Hypertension in Young People. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 41-46.
54. Dilmurodovna, T. D. (2024). DIABETES MELLITUS IN CENTRAL ASIA: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 204-213.
55. Тогайдуллаева, Д. Д. (2024). ОБЩИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЕ САХАРНОГО ДИАБЕТА В СРЕДНЕЙ АЗИИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 193-204.
56. Tog'aydullaeva, D. D. (2024). GIPERTENZIYA BOR BEMORLARDA MODDALAR ALMASINUVINING BUZULISHI BILAN KELISHI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 130-137.
57. Dilmurodovna, T. D. (2024). FACTORS CAUSING ESSENTIAL HYPERTENSION AND COURSE OF THE DISEASE. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 14(4), 138-145.
58. Dilmurodovna, T. D. (2024). PREVALENCE INDICATORS OF ARTERIAL HYPERTENSION IN THE POPULATION. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(4), 78-87.
59. Тогайдуллаева, Д. Д. (2024). ИШЕМИЧЕСКАЯ БОЛЕЗНЬ СЕРДЦА, МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЛЕЧЕНИЯ СТЕНОКАРДИИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 107-115.
60. Dildora, T. (2021, June). CHRONIC RENAL FAILURE. In *Archive of Conferences* (pp. 85-89).
61. Tog'aydullayeva, D. D. (2024). MORPHOLOGICAL ASPECTS OF ANEMIA IN SOMATIC DISEASES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 4(4), 212-219.
62. Nematilloevna, X. M., & Qilichovna, A. M. (2024). MORPHO-FUNCTIONAL CHANGES IN ACUTE FORMS OF APHTHOUS STOMATITIS: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 177-186.
63. Qilichovna, A. M., & Nematilloevna, X. M. (2024). METABOLIK SINDROMI VA QON BOSIMI BOR BEMORLARDA O'ZGARISH XUSUSIYATLARI BAHOLASH: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 187-196.
64. Qilichovna, A. M., & Nematilloevna, X. M. (2024). TIBBIYOT TILI HISOBLANMISH LOTIN TILINI SAMARALI O'RGANISH OMILLARI: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(4), 197-206.

MURAKKAB ANATOMIK TERMINLARNI TARJIMA QILISHDAGI E'TIBORLI JIHATLAR

Xafizova Muxarram Nematilloevna

Osiyo xalqaro universiteti

Klinik fanlar kafedrası

E-mail: hafizovamuharram98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada lotin tilida sifat so'z turkumi va uning grammatik kategoriyalari: 2 guruhi, 3 darajalari, 3 xil turlanishi, lug'at shakli haqida so'z yuritiladi. Anatomik terminlarning ko'pchiligi sifatlarga to'g'ri keladi. Murakkab anatomik terminlarni sifatli tarjima qila olish uchun sifat va uning kategoriyalarini puxta o'rganish zaruriyati yuzaga keladi.

Kalit so'zlar: sifat, turlanish, guruhlar, darajalar, rod qo'shimchalari, anatomik terminlar

Anatomik terminlarning asosiy hissasi sifatlarga to'g'ri keladi, chunki ular terminlarning ko'pchiligini tashkil qiladi. Lotin tili sifatlari quyidagi kategoriyalarga ega: ikki katta guruhlar, 3 ta turlanishi, 3 ta darajalari, lug'at shakllaridan iborat. Ikki guruhlaridan boshlasak, birinchi guruh sifatlari 3 qo'shimchali sifatlardan hisoblanadi, ya'ni ular 3 ta rod qo'shimchalari bilan kelgan sifatlardir. Lotin tili otlarida rodlar bo'lganidek lotin tili sifatlari rod qo'shimchalari bor. Mujskoy rod qo'shimchasi - **us, er**, jenskiy rod qo'shimchasi -**a**, sredniy rod -**um** hisoblanadi. I guruh sifatlari tushuntirish uchun rus tiliga murojaat qilamiz. Masalan: *longus* sifatini olsak. Bu sifat talabalarga ingliz tilidagi **long** sifatidan tanish bo'lganligi uchun shu sifatni misol tariqasida olamiz. Demak, shu yerdan ma'lumki, ingliz tilidagi **long** so'zi lotincha *longus* sifatidan olingan. *Longus* o'zbek tiliga uzun deb tarjima qilinadi. Rus tilida esa *longus*- **длинный**, *longa*-**длинная**, *longum*-**длинное** deb tarjima qilinadi, rus tilida biz bilamizki, **-ый, -ой** sifatlarning mujskoy rod, **-ая, яя-** jenskiy rod va **-ое** sredniy rod qo'shimchalari hisoblanadi. Yana bir misolni olsak. Masalan: *dexter* va *sinister* sifatlari o'zbek tilida o'ng va chap sifatida tarjima qilinadi. Rus tilida esa *dexter*-**правый**, *dextra*-**правая**, *dextrum*-**правое**; *sinister*-**левый**, *sinistra*-**левая**, *sinistrum*- **левое**, ya'ni 3 ta rod qo'shimchalari bilan tarjima qilinadi. Bunday sifatlarni ko'plab keltirish mumkin. Endi 2 so'zdan iborat anatomik terminlarni, masalan *uzun mushak* termini lotinchaga **musculus longus** tarzida tarjima qilinadi. O'zbek va rus tillarida birinchi o'rinda sifat va unga ergashib ot keladi. Lotin tilida esa aksincha, **HAR DOIM** ot va unga ergashib sifat keladi, buni talabalarga doim uqtirib kelamiz, chunki 2 yoki 3 so'zli anatomik atamalarda ham ot ergashtiruvchi hisoblanadi. Buning

formulasi: **OT+SIFAT**. Masalan: *foramen* vertebrale - umurtqa *teshigi*, *canalis* vertebralis - umurtqaga oid *kanal*, *processus* spinosus - qirrali *o'simta*, *processus* transversus - ko'ndalang *o'simta*, *processus* articularis inferior- pastki bo'g'im *o'simtasi*, *fissura* horizontalis pulmonis dextri- o'ng o'pkaning gorizontal yorig'i, *musculus* tensor fasciae latae- keng fastsiyaning taranglovchi mushagi, *paries* tympanicus ductus cochlearis – nog'ora parda devorining chig'anoqqa tegishli oqimi kabi 3 yoki 4 so'zdan iborat anatomik terminlarda asosiy so'zning boshida turgan *foramen*, *canalis*, *processus*, *fissura*, *musculus*, *paries* lar nima? so'rog'iga javob beradigan o'tdir. Faqat *pia mater*, *dura mater* va *arachnoidea* mater (*qattiq*, *yumshoq* va *to'rsimon miya pardasi*) terminlari istisno tarzida keladi, chunki bu terminlarda sifat otdan oldinda turibdi. Men har doim tarjimini so'z oxiridan qilish kerakligini eslataman. *Musculus* atamasi mujskoy roddagi ot bo'lganligi uchun biz *longus* sifatini bu otga moslashtiramiz yoki *uzun vena* atamasida *vena* jenskiy roddagi ot bo'lganligi uchun *vena longa* va *uzun suyak* atamasini *os longum* tarzida tarjima qilamiz va sifatlarni otning rodiga moslashtiramiz. Demak, sifat o'zidan oldinda turgan otning rodiga moslashadi va bu moslashgan aniqlochi deb yuritiladi. Sifat bu yerda *aniqllovchi*, ot esa *aniqlanmish* hisoblanadi. Masala shundaki, o'zbek tilida rod kategoriyasi bo'lmaganligi uchun o'zbek guruhlarda o'zbek tilidagi anatomik terminlarni tarjima qilishda rod qo'shimchalarini otning rodi bilan moslashtirishda xatoliklarga yo'l qo'yishadi. Lotinchadagi anatomik terminni o'zbek tiliga tarjima qilish oson, bunda berilgan so'zning ma'nosini bilsa yetarli, ammo o'zbek tilidagi anatomik terminlarni lotinchaga tarjima qilishda rus tilidan bilimi past talabalar moslashtirilmaydi. Shuning uchun talabalarga ko'proq o'zbek tilida bo'lgan anatomik terminlarni lotin tiliga tarjima qilishga undasak yaxshi natijalarga erishamiz, deb o'ylayman. Bunday tarjimada talabalar ham rus tili sifatlarini o'rgana bolshlaydi.

Sifatlarning yana bir kategoriyasi lug'at shaklida I guruh sifatleri mujskoy rod shaklida yoziladi va so'zning yonida jenskiy hamda sredniy rod qo'shimchasi ko'rsatiladi. Masalan: *albus*, **a, um-** oq; *rectus*, **a, um-** to'g'ri; *palatinus*, **a, um-** tanglayga oid va h. **-er** qo'shimchasi bilan tugaydigan ba'zi sifatlar jenskiy va sredniy rodlarni hosil qilishda **-e** harfini yo'qotadi, ba'zilar esa saqlab qoladi. Masalan: *qora rang* lotinchada **niger** tarzida tarjima qilinadi va lug'atda **niger, gra, grum-** qora holda yoziladi. Chap tomon - **sinister, tra, trum;** erkin- **liber, era, erum** va h.

Sifatlar 3 ta turlanishdan iborat bo'ladi. Birinchi guruh muskoy va sredniy roddagi sifatlar II turlanish bo'yicha, jenskiy rod esa I turlanish bo'yicha turlanadi. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin:

	M	f	n	m	f	N
Nom.Sing	albus	alba	album	ruber	rubra	rubrum
Gen.Sing	I	ae	i	bri	brae	bri
Nom.Pl.	I	ae	a	bri	brae	bra
Gen.Pl.	orum	arum	orum	orum	arum	orum
	II turlanish	I turlanish	II turlanish	II turlanish	I turlanish	II turlanish

Lotin tilida sifatlarni o'rganishda mana shu jadvaldan foydalanib sifat qatnashgan terminlarni tarjima qilish oson. II guruh sifatlari tibbiy terminlogiyada juda ko'pchiligini tashkil qiladi, chunki bunday sifatlarning otning negiziga *-alis* yoki *-aris* sifat yasovchi qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi va II guruh sifatlari III turlanish bo'yicha turlanadi. Masalan: *vertebra- umurtqa* so'zida *vertebr* so'zning negizi bo'lsa, *-alis* sifat yasovchi qo'shimchasini qo'shsak, shu a'zoga tegishlilik yoki taalluqlilikni anglatadi va *umurtqaga oid* tarzida tarjima qilinadi. Agar otning negizi *l-* harfi bilan tugasa, *- aris* sifat yasovchi qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan: *scapula – scapularis – kurakka oid, clavicula-clavicularis- o'mrovga oid.*

2 so'zdan iborat II guruh sifatlari qatnashgan anatomik terminlarni tarjima qilish jarayonida masalan: *columna vertebralis - umurtqa pog'onasi* terminini aslida *umurtqaga oid pog'ona* tarzida tarjima qilishimiz kerak, ammo bunday holatda o'zbek tilida chiroyli va sifatlilikni tarjima chiqmaydi. Rus tilida esa *позвоночный столб*, ko'rinib turibdiki, *позвоночный* какой? so'rog'iga javob beradigan sifatlilikdir. 4 so'zdan iborat anatomik terminlar: *incisura ischiadica* major et minor- katta va kichik *quymich* o'yigi tarzida tarjima qilinsa, rus tilida *большой и малый седалищный бугор* tarzida tarjima qilinadi.

Sifatlarning keying kategoriyasi 3 ta darajalariga to'xtalsak. Bular: oddiy daraja (*gradus positivus*), qiyosiy daraja (*gradus comparativus*) va orttirma daraja (*gradus superlativus*)lar. Darajalarga asliy sifatlilik qo'yiladi va darajalarning ham boshqa tillarda bo'lganidek o'z qo'shimchalari bor. Oddiy darajada sifatlilik ikki guruhga bo'linadi: I-II turlanish va III turlanish. Birinchi guruhga III darajali sifatlilik kiradi. Qiyosiy darajada sifat negiziga *-ior* (m n) va *-ius* (n) qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: *longior, longius*, ala *major-* katta qanot, *concha nasalis inferior-* pastki burun chig'anog'i tarzida tarjima qilinadi. Sifatlarning orttirma darajasi esa *-us* bilan tugaydigan sifatlilik negiziga *-issim* va *-er* bilan tugaydigan sifatlilik negiziga *-rim* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Masalan: *musculus latissimus* dorsi- orqaning eng serbar mushagi deb tarjima qilinadi. Shuningdek, lotin tilidagi sifatlilik boshqa tillaridagi kabi asliy va nisbiy turlarga bo'linishi, asliy sifatlilik predmetning xususiyatini to'g'ridan to'g'ri, ya'ni boshqa predmetlarga aloqador bo'lmagan holda bildirishi misollar yordamida tushuntiriladi: katta suyak *-os brevis*; qisqa mushak *-musculus brevis*; sariq boylam *-ligamentum flavum*; ko'ndalang o'simta *-processus*

transversus; katta teshik –*foramen magnum* kabi. Nisbiy sifatlar predmetning belgisini bevosita emas, balki boshqa predmet bilan munosabati orqali bildirilishi ham yoritib beriladi: umurtqaga oid kanal –*canalis vertebralis*; peshonaga oid suyak –*os frontale*; bo‘g‘imga oid yuza –*facies articularis* va boshqalar. Anatomik nomenklaturadagi sifatlarning asosiy massasi -bu anatomik butun organga yoki boshqa anatomik shakllanishga tegishli ekanligini ko‘rsatuvchi nisbiy sifatlar ekanini o‘rganuvchilar bilishi lozim. Shuningdek, sifatlarning turlanishiga alohida e‘tibor qaratiladi. 1-guruh sifatlari 1 va 2 turlanish bo‘yicha (*longus*, *a*, *um* –uzun) 2-guruh sifatlari esa 3 turlanish bo‘yicha turlanishini hamda ularning lug‘at shaklini aniq ajrata olishlari kerak (*vertebralis*, *e* –umurtqaga oid).

Bizning miyamiz hislar, harakatlar, fikrlar, his-tuyg'ular va hatto xarakterimizni belgilaydi. Genetik moyillik shaxsiy tajriba, tashqi muhit va atrof-muhitning ta'siridan ko'ra kam rol o'ynamaydi. Ma'lumot miyamizga ko'rish, his etish, eshitish yoki ta'm sezish kabi his etish a'zolari orqali kiradi. So'ng uyerda dunyoning o'ziga xos, individual qiyofasi paydo bo'ladi. Vaqtning har bir lazasida inson miyasida cheksiz miqdordagi ongli va ongsiz jarayonlar sodir bo'ladi. Natijada miyaning o'zi ham o'zgaradi.

Mikroskopiya va diagnostik tasvirlashtirishning boshqa usullaridagi eng muhim yutuqlar bizning miyamiz qanday ishlashini tobora ko'proq ko'rsatib bermoqda. Va shunga qaramasdan, bu g'ayrioddiy murakkab organ olimlar orasida ko'plab savollarni tug'dirishda davom ettirmoqda. Miya tadqiqotlari natijalari nafaqat tibbiyot uchun muhim, balki ular ta'lim, tarbiya va huquqshunoslik kabi ijtimoiy sohalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Inson miyasi tabiat tomonidan yaratilgan eng murakkab organdir. Uning unumdorligi eng kuchli superkompyuterlarnikidan ham yuqori. Miya turli darajalarda bog'lanishlar zanjirlari shaklida tuzilgan: bitta sinapsdagi jarayonlardan millionlab hujayralar orasidagi tarmoqlargacha. Inson miyasi o'z vazifalarini bajaradigan katta bosh miyasi, kichikmiya yoki miya poyasi kabi turli sohalardan iborat. Biroq, ko'plab ko'nikmalarning ishlashi uchun miyaning turli sohalari o'zaro munosabatda faoliyat qilishi kerak. Shuning uchun qo'shni nerv hujayralari, shuningdek, bir-biridan uzoqda joylashgan qismlardagi hujayralar o'zaro bog'langan. Orqa miya (lot. medulla spinalis) nerv to'qimasidan tuzilgan uzun, nozik, naysimon tuzilma bo'lib, miya ustunidagi uzunchoq miyadan umurtqa pog'onasining bel sohasigacha davom etadi. U miya suyuqligini saqlovchi umurtqa pog'onasining markaziy kanalini qamrab oladi. Miya va orqa miya birgalikda markaziy nerv sistemasi (MNS)ni tashkil

qiladi. Odamlarda, orqa miya ensa suyagida boshlanadi, katta teshikdan o'tib bo'yin umurtqalari boshlanishida orqa miya kanaliga kiradi. Orqa miya pastga qarab birinchi va ikkinchi bel umurtqalari oraliqigacha kengayib boradi va shu yerda tugaydi. O'rab turuvchi suyakli umurtqa pog'onasi nisbatan qisqa orqa miyani himoya qilib turadi. U erkaklarda tahminan 45 sm va ayollarda tahminan 43 sm uzunlikda. Orqa miyaning diametri bo'yin va bel sohalaridagi 13 mm dan, ko'krak sohasidagi 6,4 mm gacha o'zgarib turadi.

Orqa miya nerv signallarini harakatlantiruvchi po'stloqdan tanaga va sezuvchi neyronlarning afferent tolalaridan sezuvchi po'stloqqa o'tkazish vazifasini bajaradi. U shuningdek ko'plab reflexlar uchun koordinatsiyalovchi markaz va refleklarni mustaqil boshqara oluvchi reflex yoylari saqlaydi.[1] U yana markaziy pattern generatorlari nomi bilan ma'lum bo'lgan nerv halqalarini hosil qiluvchi spinal interneuronlar guruhlarining joylashgan joyi hamdir. Bu halqalar yurish kabi ritmik harakatlar boshqariluvchi uchun javobgar.[2]. Orqa miya miya va periferik nerv sistemasini bog'lab turuvchi asosiy yo'l.[3][4] Uni himoya qilib turuvchi umurtqa pog'onasidan anchagina qisqa bo'lgan odam orqa miyasi miya ustunida hosil bo'ladi, katta teshik orqali o'tadi va filum terminale nomi bilan ma'lum fibroz kengaymada tugashidan oldin, ikkinchi bel umurtqasi yaqinida conus medullaris orqali davom etadi.

U erkaklarda tahminan 45 sm va ayollarda tahminan 43 sm uzunlikka ega, ovalsimon shaklda va bo'yin va bel sohalarida kengaygan. Bo'yin kengaymasi, C5 dan T1 gacha cho'zilgan bo'lib, qo'llar va tanadan sezgi impulslari oladigan va harakat impulslari yuboriladigan sohadir. Bel kengaymasi, L1 va S3 orasida joylashgan va qo'ldan tashqari sezgi impulslarini qabul qiladigan va oyoqlarga harakat impulslarini yuboradigan sohadir.

Orqa miya uzunchoq miya kaudal qismining davomi bo'lib, kalla suyagi asosidan tananing birinchi bel umurtqasigacha boradi. U kattalarda umurtqa pog'onasining to'liq uzunligi bo'ylab davom etmaydi. U bir juftidan sezuvchi ildiz va bir juftidan harakatlantiruvchi ildizga ega 31 segmentdan iborat. Nerv ildizlari keyin bilateral simmetrik juft orqa miya nervlariga birlashadi. Periferik nerv sistemasi shu ildizlar, nervlar va gangliya (tugun)lardan iborat.

Orqa ildizlar afferent tutamlari bo'lib, teri, muskullar va miya bilan bog'liq ichki organlardan sezgi impulslarini qabul qiladi. Ildizlar mos neyron hujayra tanalaridan tashkil topgan orqa ildiz gangliyalarida tugaydi. Oldingi ildizlar efferent tolalardan iborat va harakatlantiruvchi neyronlarning orqa miya oldingi kulrang shoxlaridan topiladigan hujayra tanalaridan chiqadi.

Orqa miya (va miya) kanalni o'rab turuvchi miya pardalari (lot. meninges) deb ataluvchi uch qavat to'qima yoki membranalar tomonidan himoya qilinadi. Qattiq parda eng tashqi qavat va qattiq himoya qoplami hosil qiladi. Qattiq parda va

atrofdagi umurtqa suyaklari orasidagi bo'shliq epidural bo'shliq deb ataladi. Epidural bo'shliq yog' to'qimasi bilan to'lgan va u o'zida qon tomirlar tizimini saqlaydi. To'rsimon parda, o'rta himoya qavati, ochiq, o'rgimchak to'ri kabi ko'rinishi tufayli shunday nomlangan. To'rsimon va ostida yotuvchi yumshoq parda orasidagi bo'shliq subaraxnoid bo'shliq deb ataladi. Subaraxnoid bo'shliqda miya suyuqligi bo'ladi, uni lyumbal punksiya muolajasi orqali tekshirish mumkin. Nafis yumshoq parda, eng ichki himoya qatlamidir va orqa miya yuzasi bilan zich bog'langan. Orqa miya qattiq pardaga birikuvchi tishsimon boylamlar orqali stabilizatsiya qilinadi va bu boylamlar yumshoq pardadan lateral, orqa va oldingi ildizlari orasidan chiqadi. Dural qopcha ikkinchi dumg'aza umurtqasi sohasida tugaydi.

Ko'ndalang kesimda, orqa miyaning periferik qismi sezuvchi va harakatlantiruvchi aksonlardan iborat neyronal oq modda traktlarini saqlaydi. Bu periferik sohadan ichkarida kulrang modda joylashgan va unga kapalak shaklini beruvchi uchta kulrang ustunlar bo'ylab joylashgan nerv hujayralari tanalaridan iborat. Bu markaziy soha to'rtinchi qorinchaning davomi bo'lgan markaziy kanalni o'rab turadi va unda miya suyuqligi bo'ladi.

Orqa miya ko'ndalang kesimda ellips shaklida, dorsolateral qisilgan. Ikkita mashhur o'yiqlar yoki egatlar uning uzunligi bo'ylab ketgan. orqa o'rta egat (lot. sulcus medianus posterior) orqa tomodagi va oldingi o'rta egat (lot. sulcus medianus anterior) oldingi tomondagi egatlardir. Odam orqa miyasi segmentlarga bo'lingan bo'lib, u yerda orqa miya nervlari juftlari (aralash; sezuvchi va harakatlantiruvchi) hosil bo'ladi. Oltitadan sakkiztagacha harakatlantiruvchi nerv ildizchalari o'ng va chap tomondan ventrolateral egatlardan chiqib, juda tartibli joylashgan. Nerv ildizchalari birlashib nerv ildizlarini hosil qiladi. Shunga o'xshash, o'ng va chap dorsolateral egatlardan chiquvchi sezuvchi nerv ildizchalari sezuvchi nerv ildizlarini hosil qiladi. Oldingi (ventral) (harakatlantiruvchi) va orqa (dorsal) (sezuvchi) ildizlari birlashib orqa miyaning har tomonida bittadan orqa miya nervlarini (aralash; sezuvchi va harakatlantiruvchi) hosil qiladi. Orqa miya nervlari, C1 va C2 dan tashqari, umurtqalararo teshik ichida hosil bo'ladi. Bu ildizchalar markaziy va periferik nerv sistemalarini ajratib turuvchi demarkatsiyani hosil qiladi. Orqa miya rivojlanish davomida nerv naychasining bir qismidan hosil bo'ladi. Orqa miya nerv naychasidan ajralishining to'rt bosqichi mavjud: nerv plastinkasi, nerv chuqurchasi, nerv naychasi va orqa miya. Neyral differentsiatsiya naychaning orqa miya qismida kechadi.[7] Nerv naychasi rivojlanishni boshlar ekan, notoxord Sonic hedgehog yoki SHHH deb ataluvchi faktorni sekret qilishni boshlaydi. Natijada, pol plastinkasi ham SHH sekretsiyasini boshlaydi va bu bazal plastinkaning harakatlantiruvchi neyronlarga rivojlanishiga sabab bo'ladi. Nerv naychasi yetilishi davomida, uning lateral devorlari qalinlashadi va chegaralovchi egat deb ataluvchi bo'ylama egatni

hosil qiladi. Bu oldingi va orqa tomonlarda uzunligini kengaytiradi.[8] Shu orada, ustki ektoderma suyak morfogenetik oqsili (SMO)ni sekretsia qiladi. Bu tom plastinkadan SMO sekretsias boshlanishiga sabab bo'ladi, u bo'lsa qanotsimon plastinkaning sezuvchi neyronlarga rivojlanishiga sabab bo'adi. SMO va SHH kabi morfogenlarning qarama-qarshi gradiyentlari dorsal ventral o'q bo'ylab bo'linayotgan hujayralarning turli domenlarini hosil qiladi.[9] Orqa ildiz gangliy neyronlari neyral toj progenitorlaridan differentsiatsiya bo'ladi. Orqa va oldingi ustun hujayralari proliferatsiya bo'lar ekan, nerv naychasi bo'shlig'I torayadi va orqa miyaning kichik markaziy kanalini hosil qiladi.[10] Qanotsimon plastinka va bazal plastinka chegaralovchi egat orqali ajralgan. Qo'shimchasiga, pol plastinka netrinlarni ham ajratadi. Netrinlar qanotsimon plastinkadagi og'riq va harorat sezuvchi neyronlarning oldingi oq kommissura bo'ylab kesishtiruvchi xemoatraktantlar sifatida ta'sir qiladi, bu yerdan ular keyin thalamusga qarab ko'tariladi. Kaudal neyroporalarning yopilishi va xoroid chigal to'qimasini saqlovchi miya qorinchalari shakllanishidan keyin kaudal orqa miyaning markaziy kanali miya suyuqligi bilan to'ladi.

Viktor Hamburger va Rita Levi-Montalcinining jo'ja embrionlari ustidagi ilk topilmalari ancha keyingi izlanishlarda o'z tasdig'ini topdi, bu neyronal hujayralarning programmashtirilgan hujayra o'limi yordamida olib tashlanishi nerv sistemasining to'g'ri rivojlanishida ahamiyatga ega.[11]

Umuman olganda, spontan embryonal faollik neyron va muskul rivojlanishida rol o'ynaydi, lekin spinal neyronlar o'rtasida bog'lanishlarning ichki hosil bo'lishida ishtirok etmaydi.

Orqa miya uzunligi bo'yicha davom etuvchi, miyadan chiqadigan uch arteriya va umurtqa pog'onasi yon tomonlaridan kiruvchi ko'plab arteriyalar yordamida qon bilan ta'minlanadi. Uch bo'ylama arteriyalar: oldingi spinal arteriya va o'ng va chap orqa spinal arteriyalar.[12] Ular subaraxnoid bo'shliqda joylashadi va orqa miya tarmoqlar beradi. Ular oldingi va orqa segmental medullar arteriyalar orqali anastomozlar hosil qiladi, ular orqa miya bo'ylab turli nuqtalardan kiradi.[12] Bu arteriyalar orqali oquvchi qon, orqa serebral sirkulyatsiyadan chiqadi, aslida, orqa miyaning bo'yin segmentlaridan pastni ta'minlash uchun yetarli emas.

Orqa miyaning bo'yin sohasidan pastni asosiy arterial qon bilan ta'minlash radial joylashgan orqa va oldingi radikulyar arteriyalar orqali amalga oshiriladi, ular oldingi va orqa nerv ildizlari bilan birga orqa miyaga kiradi, lekin uchta bo'ylama arteriyalarning birontasi bilan to'g'ridan-to'g'ri birikmaydi.[12] Bu qovurg'alararo va bel radikulyar arteriyalar aortadan chiqadi, asosiy anastomozlarni hosil qiladi va orqa miyani qon bilan ta'minlaydi. Odamlarda oldingi radikulyar arteriyalarning eng yirigi Adamkiewicz arteriyasi yoki oldingi radikulyaris magna deb ataladi va odatda L1 va L2 orasidan chiqadi, ammo T9 dan L5gacha bo'lgan istalgan joydan chiqishi mumkin.[13] Ushbu kritik radikulyar arteriyalarda qon oqimi buzilishi, xususan

aortada keskin qon oqimi buzilishi bilan kechuvchi xirurgik amaliyotlarda, masalan aorta anevrizmasini to'g'irlash natijasida, orqa miya infarkti va paraplegiyaga sabab bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlonov O., ToshmanovN. «Zoologiya» darslari. Umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya fani o'qituvchilari uchun o'quv-metodik qo'llanma. - Toshkent: Tafakkur, 2012. - 140 b.'—B.

2. Sulliyeva Suluv Khurramovna, G'aniyeva Guliruxsor Islamovna, Tojiyeva Feruza Anvarovna//Effective ways of teaching biology in connection with physical science (in the example of class VII)// Eur. Chem. Bull. 2023, 12(Issue 8),4040-4045

3. G'aniyeva G.I. //Maktablarda biologiyani o'qitishning zamonaviy shakllaridan foydalanishning samarali yo'llari // Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi – 10/3-2023

4. G'aniyeva G.I., Tojiyeva F. A. //Spektral nurlarning tirik organizmlarga ta'siri // “O'quvchi-talaba kreativ faoliyatini rivojlantirish kontekstida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan fanlararo sinxron-asinxron foydalanish” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Denov, 2023 yil 29-30 sentyabr

QADRIYATLARNI OILA MUNOSABATLARIGA TA'SIR ETISH IMKONIYATLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Muhammadiyeva Zarnigor
OXU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadriyatlarni oila munosabatlariga qanchalik ta'sir qilishini hamda ularning jamiyat hayotidagi o'rnini ko'rsatilib o'tilgan. Shuningdek, qadriyatlarni oilani mustahkamlash yo'lidagi harakatlari ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Oila, qadriyat, tahlil, urf-odat, jamiyat, diniy nikoh, an'anaviy nikoh.

Annotation: This article shows the influence of values on relations with families and the role of the court in the life of society. Help, diseases that harm the family are highlighted.

Key words: Family, value, analysis, tradition, society, religious marriage, traditional marriage.

Bizga ma'lumki, nikoh xalqning tarixiy rivojlanishining mahsuli, uning yashash sharoiti, muhiti, birgalikda ishlashi va xamkorlik qilishi natijasida nikoh bilan bog'liq milliy marosimlar, urf - odatlar, an'analar vujudga kelishidir. Demak, milliy qadriyatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmagan, asl holatda xalqning tarixiy rivojlanishini, uning yashash sharoiti, muhiti, birgalikda ishlashi va xamkorlik qilishi natijasida paydo bo'lib, nikoh bilan bog'liq milliy marosimlar, urf-odat, an'analarda o'z aksini topgan. Urf-odatlar o'zgargan degani milliy qadriyatlar yo'qolib ketdi degani emas. XXI asrning 20 yillarida urf - odatlar o'zgargani bilan asosiy milliy qadriyatlar (oila, insonparvarlik, erkinlik, ta'lim) o'z kuchini yo'qotmagan. "O'zbeklarda nikohli oila qurish ham farz sifatida, ham milliy qadriyat sifatida qadrlanadi" Ahloqiy, tibbiy, sha'riy asoslanib berilgan mavzu hozirgi kunda ijtimoiy-psixologik asoslarga ham tayanishi lozim. Quyida nikoh shakllarining zamonaviy ko'rinishlari xususida fikr yuritamiz.

Z.A.Rasulova klassifikatsiyasiga ko'ra quyidagi nikoh-oila shakllari ajratib olingan:

1. An'anaviy nikoh - diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan, davlat tomonidan yuridik tasdiqlangan (FHDY Odan o'tish), jamiyat tomonidan tan olingan nikoh. Bu barchaga ma'lum bo'lgan, ko'pchilik tomonidan amal qilinadigan nikoh shaklidir.

2. Diniy nikoh - faqatgina din tomonidan tan olingan bo'lib, diniy rasm rusumlarga binoan tuzilgan nikoh. Sha'riy nikohdir.

3. Qonuniy yoki yuridik rasmiylashtirilgan nikoh. Adliya vazirligi tomonidan yuridik tasdiqlangan nikoh shakli.

4. Fuqarolik nikohi - bu yuqorida qo'rsatilganidek, na din tomonidan, na davlat tomonidan tasdiqlangan nikoh.

Bugungi kunda an'anaviy nikoh - bu diniy nikoh o'qitilgan, davlat tomonidan yuridik tasdiqlangan, jamiyat tomonidan tan olingan nikoh bo'lib, u o'zbeklarda eng asosiy nikoh shakllaridan biri bo'lib qoldi. Milliy qadriyatlarni urf-odatlarda insonlarning xulq-atvorida aks etilishi turmush tarzi bilan bog'liq ekanligi isbotlanib, oila shakliga ko'ra milliy qadriyatlarning namoyon bo'lishi ko'rsatilgan.

Hech bir xalq o'zligini anglamasdan, milliy madaniyati, milliy qadriyatlarini asrab-avaylab saqlamasdan turib, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qaray olmaydi. O'zbek oilalarining asosiy vazifalaridan biri milliy qadriyatlarni saqlab, kelajak avlodlarga yetkazishdan iborat edi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, qatag'onchilik siyosati va tuzumi davrida bu qadriyatlarni ishlatish u yoqda tursin, ularni hatto o'zbekcha lug'at boyligidan surib chiqarishga harakat qilingan edi. Bunga dalil sifatida 1959-yili Moskvada "Xorijiy va milliy lug'atlar davlat nashriyoti" tomonidan chop etilgan 40 mingdan ortiq so'zdan iborat "O'zbekcha-ruscha lug'at"ga ham, 1988-yildagi O'zSE Bosh tahririyati chop etgan 50 ming so'zlik "O'zbekcha-ruscha lug'at"ga hamma jabhalarda "qadriyat", "milliy tiklanish", "milliy ong", "milliy g'urur" kabi tushunchalarning kiritilmaganligini aytib o'tish mumkin.

"Qadriyat" atamasi o'z ma'nosida mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng keng qo'llanila boshlandi. Sobiq ittifoq davrida bu atama muomalada deyarli uchramas edi, uni o'zbekcha lug'at manbalaridan chiqarib tashlashga harakat qilingan edi.

Shuningdek, ushbu terminlar 1981-yilda Moskvadagi "Russkiy yazik" nashriyoti tomonidan chop etilgan va 60 ming so'zni qamrab olgan ikki jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham uchramaydi. Boshqa ruscha-o'zbekcha lug'atlarda ham "qadriyat" so'zi qo'llanilmagan. Jumladan, 1976-yilda "Fan" nashriyotida chop etilgan "Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati"da "sennost" so'zining to'rtta ma'nosi lug'at maqolasi tarzida berilgani holda ularning birortasida "qadriyat" ma'nosi o'z ifodasini topmagan. Istiqloq sharofati bilan milliy qadriyatlarni o'rganishga, tadqiq etishga, ular to'g'risida mushohada yuritish va xolis fikr bildirishga sharoit yaratildi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zbekona milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni kelajak avlodga yetkazish xususida fikr bildirar ekan, "qadriyat" so'zining ma'nosini ochib beradi: "Biz tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalarni qadriyat deb bilamiz".

Mustaqillik tufayli 1998-yilda "Mustaqillik ilmiy-ommabop lug'ati" chop etilib, bu tushunchalarning mohiyatini ochib berishga muvaffaq bo'lindi. "Qadriyat" arabcha "qadr" so'zidan olingan bo'lib, bugungi kunda bu tushuncha borliq va jamiyatdagi

biror-bir narsa va hodisaning kishilar o'rtasidagi, o'zaro ijtimoiy munosabatlardagi tutgan muhim ahamiyatini ifoda etishi uchun qo'llanilmoqda.

So'nggi yillarda respublikamizning yetakchi psixolog olimlari Z.T.Nishonova, B.M.Umarov, N.A.Sog'inov va boshqalar hammuallifligida nashr etilgan "Psixologik atamalar ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati"da qadriyatlarga " - odam uchun ma'lum bir hodisalarning ahamiyatliligidir. Odam hayotining bosh maqsadi ham, uni tashkil qilish tamoyillari (vijdonlilik, qadr-qimmat, shaxsiyat va h.k.) ham uning uchun qadriyat bo'lishi mumkin. Qadriyatlar murakkab hayotiy muammolarni yechish variantlari diapazonini belgilab beradi" – deb izoh beriladi

"Qadriyat" insonga, jamiyatga nisbatan qo'llanilgandagina muayyan ma'noga ega bo'lishi, aniq mazmun kasb etishi mumkin. Zero, "qadriyat" ehtiyoj va manfaatlarni qondiruvchi jamiki moddiy hamda ma'naviy ne'matlar yig'indisidir. Albatta, hech bir narsa yoki hodisa inson va uning ehtiyojlaridan alohida talqin etilganda biron-bir qadr-qimmatga ega bo'lmaydi.

Qadriyatni jamiyat hayotida mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, diniy, milliy, ma'naviy mazmundagi qadriyatlarga ajratish mumkin. Ta'kidlash lozimki, qadriyatlarning jamiyat, davlat va shaxs hayotida tutgan o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, fanda, xususan falsafa fani doirasida qadriyatlar nazariyasi - aksiologiya shakllangan.

"Qadriyat" atamasi bugungi kunda o'zining haqiqiy ma'nosiga ega bo'lish bilan bir qatorda ijtimoiy hayotda mohiyat jihatdan to'g'ri qo'llanishga erishilmoqda.

"Huquqiy qadriyatlar"- bu insonlar, jamiyat va davlat o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda fuqarolar tomonidan e'zozlanadigan, qadrlanadigan, ularning manfaatlariga xizmat qiladigan huquqiy normalar, g'oyalar, qarashlar, institutlar, prinsiplar va hodisalar yig'indisidir. Qadriyatlar inson uchun qadrlil moddiy va ma'naviy ne'matlar majmui deya talqin etiladigan bo'lsa, huquqiy qadriyatlarni biz ma'naviy ne'matlar tarkibida aks ettirishimiz mantiqan to'g'ri bo'ladi. Shu bilan birga huquqiy qadriyatlar bilan bir qatorda "milliy huquqiy qadriyatlar" ham mavjuddir.

Milliy huquqiy qadriyatlar – muayyan mamlakat miqyosida amal qiladigan shu makondagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan, mamlakatdagi millat va elatlar uchun qadrlil bo'lgan va fuqarolar tomonidan e'zozlanadigan, milliy xususiyat va fazilatlarini ifodalovchi huquqiy normalar va hodisalaridir. Ko'pchilik kishilar qadrlaydigan narsalar, hodisalar, masalan, qimmatbaho buyumlarni qadriyat deyishadi. Aslida esa shularning ijtimoiy ahamiyati qadriyatlarning haqiqiy bahosini aniqlaydi. Biror narsa, voqea yoki hodisaning qadri uning moddiy-iqtisodiy bahosidan katta farq qilishi mumkin. Masalan, ming yil oldingi buyumni ishlatish mumkin emas. Uning iqtisodiy qiymati kam, ammo, meros sifatidagi qadri ancha yuqori bo'lishi mumkin. Demak, qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlariga va maqsadlariga xizmat qiladigan, shu tufayli

ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalari majmuini tushunish lozim. Mazkur ta'rifdan ko'rinib turibdiki, qadriyatlar: birinchidan, voqelikda mavjud bo'lgan tabiat va jamiyat ne'matlari; ikkinchidan, ularni qadriyat turkumiga kiritish yoki kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, orzu-umidlari bilan belgilanadi; uchinchidan, tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarning qadriyatlar turkumiga kiritilishining asosiy sababi kishilar ularni qadrlaydi, avaylab-asraydi, chunki, bu qadriyat ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi.

Men xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, oilani mustahkamlashga qadriyatlar muhim sanaladi. Oila mustahkam bo'lsa jamiyat mustahkam bo'ladi. Jamiyatni rivojlanishi oilalarga bog'liq. Bu esa o'z navbatida qadriyatla bilan bog'liq, nikoh va oila munosabatlari o'z navbatida qadriyatlarning saqlashga e'tibor beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent.-2008
2. Antonov A.I. Oila mikrosotsiologiyasi: tuzilish va jarayonlarni o'rganish metodologiyasi. -: "Nota Bene", 1988.
3. Отамуратов, С. Миллий ривожланиш фалсафаси. Т.: Академия. 005.
4. Отамуратов, С. Ўзбекистонда маънавий-руҳий тикланиш. Т.: Янги аср авлоди. 2003
5. Google.ru
6. Ziyouz.net

ORQA MIYA VA UNING TUZILISHI. ORQA MIYA SEGMENTLARI

Xolmuminova Sabina Axmed qizi

Abdurasulova Durdona Qahramon qizi

Toshkent davlat stomatologiya instituti 1-kurs talabalari

Abdusamatova Iroda Ilhamovna

Anatomiya kafedrası ilmiy rahbari

Annotatsiya: ushbu maqolada orqa miyaning tuzilishi, orqa miyaning ko'ndalang va bo'ylama kesimi, kulrang moddasi va oq moddasi, kulrang modda oq moddaning ichida kapalak shaklda joylashgani, orqa miyadan chiquvchi 31 juft segmentlar, segmentlarning orqa miya umurtqa segmentlari bilan har doim mos kelmasligi va orqa miyaning bo'yin kengaymasi va bel kengaymasi haqida to'xtalgan.

Kalit so'zlar: segment, interneyron, neyrogliya, harakatlantiruvchi neyron, bo'yin kengaymasi, bel kengaymasi, orqa ildiz, afferent tutam, periferik nerv sistemasi, filum terminale, conus medullaris, oq modda, kulrang modda.

Kirish: Orqa miya (lot. medulla spinalis) nerv to'qimasidan tuzilgan uzun, nozik, naysimon tuzilma bo'lib, miya ustunidagi uzunchoq miyadan umurtqa pog'onasining bel sohasigacha davom etadi. U miya suyuqligini saqlovchi umurtqa pog'onasining markaziy kanalini qamrab oladi. Bosh miya va orqa miya birgalikda markaziy nerv sistemasi (MNS)ni tashkil qiladi. Odamlarda, orqa miya ensa suyagida boshlanadi, katta teshikdan o'tib bo'yin umurtqalari boshlanishida orqa miya kanaliga kiradi. Orqa miya pastga qarab birinchi va ikkinchi bel umurtqalari oralig'igacha kengayib boradi va shu yerda tugaydi. O'rab turuvchi suyakli umurtqa pog'onasi nisbatan qisqa orqa miyani himoya qilib turadi. Orqa miya nerv signallarini harakatlantiruvchi po'stloqdan tanaga va sezuvchi neyronlarning afferent tolalaridan sezuvchi po'stloqqa o'tkazish vazifasini bajaradi. U shuningdek ko'plab reflexlar uchun koordinatsiyalovchi markaz va reflekslarni mustaqil boshqara oluvchi reflex yoylari saqlaydi. U yana markaziy pattern generatorlari nomi bilan ma'lum bo'lgan nerv halqalarini hosil qiluvchi spinal interneyronlar guruhlarining joylashgan joyi hamdir. Bu halqalar yurish kabi ritmik harakatlar boshqariluvchi uchun javobgar.

Orqa miya bosh miya va periferik nerv sistemasini bog'lab turuvchi asosiy yo'l. Uni himoya qilib turuvchi umurtqa pog'onasidan anchagina qisqa bo'lgan odam orqa miyasi miya ustunida hosil bo'ladi, katta teshik orqali o'tadi va filum terminale nomi bilan ma'lum fibroz kengaymada tugashidan oldin, ikkinchi bel umurtqasi yaqinida conus medullaris orqali davom etadi.

Orqa miya uzunchoq miya kaudal qismining davomi bo'lib, kalla suyagi asosidan tananing birinchi bel umurtqasigacha boradi. U kattalarda umurtqa pog'onasining

to'liq uzunligi bo'ylab davom etmaydi. U bir juftan sezuvchi ildiz va bir juftan harakatlantiruvchi ildizga ega 31 segmentdan iborat. Nerv ildizlari keyin bilateral simmetrik juft orqa miya nervlariga birlashadi. Periferik nerv sistemasi shu ildizlar, nervlar va gangliya (tugun)lardan iborat.

Orqa ildizlar afferent tutamlari bo'lib, teri, muskullar va miya bilan bog'liq ichki organlardan sezgi impulslarini qabul qiladi. Ildizlar mos neyron hujayra tanalaridan tashkil topgan orqa ildiz gangliyalarida tugaydi. Oldingi ildizlar efferent tolalardan iborat va harakatlantiruvchi neyronlarning orqa miya oldingi kulrang shoxlaridan topiladigan hujayra tanalaridan chiqadi.

Ko'ndalang kesimda, orqa miyaning periferik qismi sezuvchi va harakatlantiruvchi aksonlardan iborat neyronal oq modda traktlarini saqlaydi. Bu periferik sohadan ichkarida kulrang modda joylashgan va unga kapalak shaklini beruvchi uchta kulrang ustunlar bo'ylab joylashgan nerv hujayralari tanalaridan iborat. Bu markaziy soha to'rtinchi qorinchaning davomi bo'lgan markaziy kanalni o'rab turadi va unda miya suyuqligi bo'ladi. Orqa miya ko'ndalang kesimda ellips shaklida, dorsolateral qisilgan. Ikkita mashhur o'yiqlar yoki egatlar uning uzunligi bo'ylab ketgan. orqa o'rta egat (lot. sulcus medianus posterior) orqa tomodagi va oldingi o'rta egat (lot. sulcus medianus anterior) oldingi tomondagi egatlardir.

Odam orqa miyasi segmentlarga bo'lingan bo'lib, u yerda orqa miya nervlari juftlari (aralash; sezuvchi va harakatlantiruvchi) hosil bo'ladi. Oltitadan sakkiztagacha harakatlantiruvchi nerv ildizchalari o'ng va chap tomondan ventrolateral egatlardan chiqib, juda tartibli joylashgan. Nerv ildizchalari birlashib nerv ildizlarini hosil qiladi. Shunga o'xshash, o'ng va chap dorsolateral egatlardan chiquvchi sezuvchi nerv ildizchalari sezuvchi nerv ildizlarini hosil qiladi. Oldingi (ventral) (harakatlantiruvchi) va orqa (dorsal) (sezuvchi) ildizlari birlashib orqa miyaning har tomonida bittadan orqa miya nervlarini (aralash; sezuvchi va harakatlantiruvchi) hosil qiladi. Orqa miya nervlari, C1 va C2 dan tashqari, umurtqalararo teshik ichida hosil bo'ladi. Bu ildizchalar markaziy va periferik nerv sistemalarini ajratib turuvchi demarkatsiyani hosil qiladi.

Kulrang modda, (uch kulrang modda sohalari kabi) orqa miya markazida, kapalak shaklida va interneuronlar, harakatlantiruvchi neyronlar, neyrogliya hujayralari tanalari va miyelinlanmagan aksonlardan iborat. Oldingi va orqa kulrang ustun kulrang modda proyeksiyalari hisoblanadi va orqa miya shoxlari sifatida ma'shur. Kulrang ustunlar va kulrang kommissura birgalikda "kulrang H"ni hosil qiladi.

Oq modda kulrang moddadan tashqari tomonda joylashgan va deyarli to'liq harakatlantiruvchi va sezuvchi miyelinlangan aksonlardan iborat. Oq modda "ustunlari" orqa miya bo'ylab pastga yoki yuqoriga informatsiya tashiydi.

Orqa miya aslida conus medullaris deb ataluvchi sohada tugaydi, lekin yumshoq parda filum terminale deb ataluvchi kengayma sifatida davom etadi, natijada orqa miya dum (lot. coccyx)gacha boradi. Cauda equina ("ot dumi") conus medullarisdan pastga, umurtqa pog'onasi bo'ylab dumgacha tushuvchi nervlar to'plami. Cauda equina hosil bo'lishiga sabab orqa miya tahminan to'rt yoshda o'sishdan to'xtaydi, umurtqa pog'onasi bo'lsa voyaga yetgungacha uzayishda davom etadi. Bu dumg'aza spinal nervlarini yuqorigi bel sohasida paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Markaziy nerv sitemasi (MNS)da nerv hujayra tanalari yadrolar deb ataluvchi funksional klasterlar holatida bo'ladi. MNSdagi aksonlar traktlarga guruhlanadi.

Odam orqa miyasida 31 ta segment mavjud:

- 8 bo'yin segmentlari 8 juft bo'yin nervlarini hosil qiladi (C1 spinal nervlar katta teshik va C1 umurtqa orasidan chiqadi; C2 nervlar C1 umurtqa orqa ravog'i va C2 ning laminasi orasidan chiqadi; C3–C8 spinal nervlar umurtqalararo teshikdan, tegishli umurtqaning yuqorisidan chiqadi, C8 juftidan tashqari, u C7 va T1 umurtqalar orasidan chiqadi)
- 12 ko'krak segmentlari 12 juft ko'krak nervlarini hosil qiladi
- 5 bel segmentlari 5 juft bel nervlarini hosil qiladi
- 5 dumg'aza segmentlari 5 juft dumg'aza nervlarini hosil qiladi
- 1 dum segmenti

Homilada umurtqa segmentlari orqa miya segmentlari bilan mos keladi. Ammo, umurtqa pog'onasi orqa miyaga nisbatan uzunroq o'sgani sababli, voyaga yetganlarda orqa miya segmentlari umurtqa segmentlariga to'g'ri kelmaydi, xususan pastki orqa miyada. Masalan, bel va dumg'aza orqa miya segmentlari T9 va L2 umurtqalari sohasida joylashgan va orqa miya tahminan L1/L2 umurtqa sohasida conus medullaris deb ataluvchi tuzilmani hosil qilib tugaydi.

Garchi orqa miya hujayra tanalari tahminan L1/L2 umurtqa sohasida tugasada, har bir segmentning orqa miya nervlari mos umurtqa sohasidan chiqadi. Pastki orqa miya uchun bu shuni anglatadiki, ular o'z ildizlaridan birmuncha pastroqda umurtqa pog'onasidan chiqadi. Bu nervlar ildizlaridan chiqish nuqtalarigacha borar ekan, pastki segmentlar ot dumi deb ataluvchi tutamni hosil qiladi.

Orqa miyada ikkita kengayma mavjud:

- Bo'yin kengaymasi – qo'lni innervatsiya qiluvchi yelka chigali nervlariga to'g'ri keladi. U tahminan C4dan T1gacha bo'lgan orqa miya segmentlarini o'z ichiga oladi. Kengaymaning umurtqa pog'onasidagi o'rnini ham deyarli bir xil (C4dan T1gacha).
- Bel kengaymasi – oyoqlarni innervatsiya qiluvchi bel-dumg'aza chigaliga to'g'ri keladi. U L2dan S3gach orqa miya segmentlaridan iborat va T9dan T12gacha umurtqa sohalarida joylashadi.

Хулоса: Qisqacha qilib aytganda, orqa miya umurtqa kanali Ichida joylashib , bosh miya bilan birgalikda markaziy nerv sistemasini tashkil qiladi.Undan 31juft ildiz chiqadi.Ular umurtqalararo teshikning ichki tomonida o'zaro qo'shilib, 31juft orqa miya nervining poyasini hosil qiladi.Orqa miyaning ikki juft ildizlari o'rtasidagi qismi segment deb ataladi. Orqa miyada 31 ta:8 ta bo'yin,12 ta ko'krak,5 ta bel, 5 ta dum'aza va 1 ta dum segmentlari tafovut qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ahmedov A., Sodiqova Z. Normal anatomiya va fiziologiyasi. T., 2000.
- 2.Xudoyberdiyev R.E., Axmedov. "Odam anatomiyasi" T.: "Ibn Sino" 1993 y.
3. Ahmedov.A. "Odam Anatomiyasi" T.: "Iqtisod moliya" 2007 y.
4. R.Baxodirov "Odam anatomiyasi" T.: "O'zbekiston", 2006 y.
5. I.K.Axmedov "Atlas odam anatomiyasi" T.: "Uzb. Milliy ensiklopediyasi"1998y.

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ МАЪМУРИЙ ХУДУДДАГИ КРИМИНОГЕН ВАЗИЯТНИ ЎРГАНИШ ВА ТАХЛИЛ ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИ

Бердибеков Диёрбек Давронбек Ўғли
Ички Ишлар Вазирлиги Академияси Курсанти

Аннотация: Ушбу мақолада профилактика инспекторининг ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, уларга қарши кураш ҳамда барҳам бериш жараёнида профилактика инспектори томонидан амалга ошириладиган ишлар самарали юритиш, шу орқали профилактика инспектори томонидан ўзига бириктирилган ҳудудда содир этилаётган ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш борасида самарали алгоритм ишлаб чиқиш, ҳуқуқбузарликларга қарши курашда этибор берилиши лозим бўлган жиҳатлар тўғрисида маълумотлар, айти жараёнда юзага келаётган муаммо, камчиликлар, уларга барҳам бериш юзасидан таклифлар ёритилган.

Калит Сўзлар: ҳуқуқбузарлик, профилактика, криминоген вазият, ғайриижтимоий ҳуққ атвор, мамурий ҳудуд, хориж тажриба,

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИНСПЕКТОРА ПО ПРОФИЛАКТИКЕ ПО ИЗУЧЕНИЮ И АНАЛИЗУ КРИМИНОГЕННОЙ СИТУАЦИИ НА АДМИНИСТРАТИВНОЙ ТЕРРИТОРИИ

Аннотация: В данной статье необходимо обратить внимание на работу профилактического инспектора в процессе предупреждения, борьбы и устранения нарушений, эффективно проводить работу, выполняемую профилактическим инспектором, тем самым разработать эффективный алгоритм предупреждения нарушений, совершаемых профилактическим инспектором. инспектором в закрепленной за ним области и по борьбе с нарушениями. Выделены сведения об аспектах, проблемах, возникающих в этом же процессе, недостатках, предложениях по их устранению.

Ключевые слова: правонарушение, профилактика, электронное правительство, информация, данные, научные и перспективные технические средства, алгоритм, зарубежный опыт,

Профилактика инспекторининг маъмурий ҳудуддаги криминоген вазиятни ўрганиш ва таҳлил қилиш фаолиятининг аҳамияти Ўзбекистонда давлат халқ

иродасинин ифода этиб, унинг манфаатларига хизмат қилади. Ўзбекистон Республикасида давлат ҳокимияти халқ манфаатларини кўзлаб ва Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ҳамда унинг асосида қабул қилинган қонунлар ваколат берган органлар томонидангина амалга оширилади. Ўзбекистон Республикаси ўз ҳудудида ҳам, унинг ташқарисида ҳам ўз фуқароларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатишни кафолатлайди.

Давлатнинг ушбу вазифаларни бажаришда профилактика инспекторларининг фаолияти муҳим аҳамиятга эга, хусусан, жамоат тарибини сақлаш ва хавфсизликни таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш, жиноятчиликка қарши кураш, айниқса унинг устувор йўналиши қилиб белгиланган ҳуқуқбузарликлар профилактикаси энг катта ҳажмдаги ва кўп қиррали фаолиятни амалга оширувчи тизим ҳисобланади.

Бугунги кунда профилактика инспектори зиммасига юклатилган барча функцияларни самарали бажариш ҳар томонлама ҳудуддаги криминоген вазиятни ўрганишни, таҳлил қилиб боришни талаб қилади.

Демократик жамиятни бошқа шаклдаги, шунингдек, тоталитар, яъни террорга асосланган жамиятдан устунлиги жиноятчиликка қарши курашдаги ва уни олдини олишдаги фаолиятини ташкил этишда яққол намоён бўлади.

Демократик жамиятда жиноятларнинг олдини олиш фаолияти жинийҳуқуқий қатағон орқали эмас, балки жиноятларнинг сабаб ва шароитларини аниқлаш, уларни бартараф этиш чора-тадбирларини қўллаш, уни кучсизлантириш усуллари орқали амалга оширилади, яъни ҳуқуқбузарликлар профилактикаси чуқур илмий асосланган ҳолда таҳлил қилишнинг, жамиятда жиноятчиликни озиклантириб турувчи ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларидаги ходиса, воқеа ва жараёнларни билишни талаб қилади. Хусусан, криминоген вазиятни чуқур ўрганиш, уни таҳлил қилиш ва келгусидаги профилактика ишларни улардан келиб чиққан ҳолда режалаштириш мақсадга мувофиқдир.

Профилактика инспекторининг соҳавий хизмат ходимлари, давлат органлир ва жамоат бирлашмалари билан ҳамкорлиги криминоген вазиятни ўрганиш ва чуқур таҳлил қилиш келгусидаги фаолиятни режалаштиришда муҳим аҳамият касб этади.

Криминоген вазитга таъсир қилувчи психологик омиллар, уларни профилактика инспектори фаолиятида ҳисобга олиниши муҳим ҳисобланади.

Профилактика инспекторига масофадан туриб мурожаат юбориш ва уни кўриб чиқиш жараёнини кўзатиб бориш, аҳоли билан ўзаро тезкор мулоқотни йўлга қўйиш, профилактика инспекторлари ва сектор раҳбарлари фаолиятига баҳо бериш имконини берувчи “Smart маҳалла” ахборот дастури ишлаб чиқилди, жиноятлар ва маъмурий ҳуқуқбузарликлар статистикасини юритиш,

жиноятчилик ҳолатини, шу жумладан ҳудудлар ва ҳуқуқбузарликлар турлари кесимида статистик таҳлилни амалга ошириш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, уларни аниқлаш ва фош этишда фойдаланиш учун тезкор-маълумотлар ҳисоблари, ички ишлар органларининг архив-маълумотлари ва махсус фондларини юритиш, шунингдек, шахсларнинг қидирувини эълон қилиш жараёнини таъминлаш вазифалари белгилаб берилди.

Профилактика инспекторларининг малакаси ва профессионал маҳоратини ошириш ғоят муҳим вазифалардан биридир. Юксак профессионализм, хушмуомалалик, одамлар орасига кириб бориш, ёшлар қалбига йўл топа билиш, оила ва мактаб ўртасида мустаҳкам алоқа ўрнатиш ҳар бир профилактика инспекторининг асосий хусусиятлари бўлмоғи даркор. Ана шундагина ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, соғлом маънавий баркамол авлодни тарбиялашга кўмаклашиш, ёшларни турли салбий таъсирлардан асрашга қаратган тақдирдагина муваффақиятга эришиш мумкин.

Криминоген вазиятлар шахсни турли салбий-ижтимоий хаттиҳаракатларни содир этишга ундайди, ундаги муайян жиноий тажовўзнинг мотивини шакллантиради, унинг характери, мақсадини белгилайди ва жиноят содир этишда субъектив омилнинг муайян жиноий хатти-ҳаракатда намоён бўлишига

Жамиятда¹, унинг айрим ҳудудлари ва соҳаларида криминоген вазиятнинг мураккаблиги куйидаги Криминоген вазиятлар шахсни турли салбийижтимоий хатти-ҳаракатларни содир этишга ундайди, ундаги муайян жиноий тажовўзнинг мотивини шакллантиради, унинг характери, мақсадини белгилайди ва жиноят содир этишда субъектив омилнинг муайян жиноий хатти-ҳаракатда намоён бўлишига кўмаклашувчи шароит ролини бажаради. Яна шуни алоҳида таъкидлаш керакки, криминоген вазиятлар турли хил қарашларга эга бўлган шахсларга турлича таъсир қилади. Яъни, жамиятга зид қарашга эга бўлган шахсларга жиноий хатти-ҳаракатлар содир этишига ёрдамлашади, ҳар томонлама баркамол, ижобий хусусиятларга эга бўлган шахслар эса бундай вазиятларда умуминсоний ва ҳуқуқий нормаларга мувофиқ ҳаракат қиладилар:

биринчидан, маъмурий ҳудудларда ҳуқуқбузарликларнинг умумий, махсус, якка ва виктимологик профилактикасининг самарали ташкил этилмаслиги;

иккинчидан, айрим тоифадаги оилаларда носоғлом муҳитнинг мавжудлиги, оилада тарбиянинг сустлиги ва шахснинг спиртли ичимлик, гиёҳвандликка рўжу қўйиши;

учинчидан, илгари судланган ва ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил бўлган шахсларнинг кўпайиши;

¹ 1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сон Фармони

тўртинчидан, ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг содир этилишига имкон берувчи омилларнинг кўпайиши ва бошқалар.

Оилада маънавий-педагогик заифликнинг энг хавфли ва оғир кўринишларидан оила аъзоларидан бирининг бошқа бир оила аъзосини, айниқса оиладаги катталар ва кичикларни жиноий фаолиятга, ичкиликбозликка, талончиликка, фоҳишабозликка ва ошқа ғайриижтимоий машғуллот билан шуғулланишга тўғридан-тўғри жалб қилиш. Бундай ҳолатлар ҳаётда камдан-кам учрасада, лекин жуда ҳам хавфли ҳисобланади. Кейинги вақтларда айрим ота-оналар томонидан оиладаги моддий қийинчиликларни енгиш мақсадида фарзандларини савдо-сотик билан боғлиқ бўлган қонунга хилоф ҳат². Бундай одисалар ташқаридан кўп хавфли кўринмасада, шахснинг салбий шаклланишига таъсир қилувчи криминоген омиллардан бири ҳисобланади, яъни инсонда, айниқса вояга етмаганларда қонунни менсимаслик, уни четлаб ўтиш мумкин ёки уни бўзганини ҳеч ким билмаса бўлди деган руҳият шаклланади. Бугун енгил, унча хавфли бўлмаган, қонунга хилоф ҳаракатни содир қилган шахс, эртага ундан ҳавфлироғини ҳам содир қилиши мумкин.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сон Фармони
2. И.Исмаилов ва бошқалар ИИО ларининг жиноятчиликнинг олдини олиш фаолиятини ташкил этиш. Дарслик Т.2011.
3. М.Зиёдуллаев маҳалла ҳуқуқ тартибот масканларининг жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқариш.Т.2021.

² М.Зиёдуллаев маҳалла ҳуқуқ тартибот масканларининг жамоат тартибини сақлаш ва хавфсизлигини таъминлаш фаолиятини бошқариш.Т.2021.

UDK 591.524.12

DAFNIYANI UY SHAROITIDA KO'PAYTIRISH***Toshov Hayot Muhammadovich****Buxoro davlat universiteti Zoologiya umum biologiya
kafedra mudiri, BFFD (PhD). Email; toshovhayotjon@gmail.com****Ro'zimurodova Navbahor Qaxramon qizi****Buxoro davlat universiteti talabasi
Email; nabahorruzimurodova@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada uy sharoitida dafniya yetishtirish maqsadida ikki xil muhitidan olingan suvda dafniya tuxumlaridan tirik dafniyalar yetishtirish bo'yicha olingan tajribaviy tadqiqot natijalari berilgan.

Kalit so'zlar: Dafniya, banka, chang, pipetka, shikastlanish, g'ubor, xamirturush, petri idishi, oqava suv, sug'orma suv, yem.

REPRODUCTION OF DAPHNIA AT HOME**Tashov Khayot****Head of the Department of Zoology and General Biology (PhD)
of Bukhara State University.****Ruzimuradova Navbakhor
Student of Bukhara State University.**

Abstract: The article presents the results of an experimental study on the cultivation of live daphnia from daphnia eggs in water taken from two different environments for the purpose of breeding daphnia at home.

Key words: Daphnia, jar, dust, pipette, injury, pollen, yeast, petri dish, tap water, irrigation water, provender.

РАЗМНОЖЕНИЕ ДАФНИИ В ДОМАШНИХ УСЛОВИЯХ**Ташов Хаёт Мухаммадович****Заведующий кафедрой зоологии и общей биологии (PhD)
Бухарского государственного университета.****Рузимурадова Навбахор Кахрамон кизи
Студентка Бухарского государственного университета**

Абстрактный: В статье представлены результаты экспериментального исследования по выращиванию живых дафний из яиц дафний в воде, взятой из двух разных сред, с целью разведения дафний в домашних условиях.

Ключевые слова: дафния, банка, пыль, пипетка, травма, пыльца, дрожжи, чашка петри, водопроводная вода, поливная вода, корм.

Кирish: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 13.01.2022 yildagi PQ-83-son qarorida baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish, baliq mahsulotlari turlarini ko‘paytirish, eksport salohiyatini oshirish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish hamda baliqchilik xo‘jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida:

Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimlarining yordamchilari xonadon egalari bilan hamkorlikda kooperatsiya asosida xonadonlarda baliq yetishtirish bo‘yicha tashabbuskor baliqchilik xo‘jaliklarining ro‘yxatini shakllantirsin hamda “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi bilan birgalikda loyihalarni amalga oshirishda amaliy yordam ko‘rsatib boorish hamda «Baliqchilik xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv havzalaridan foydalanish tartibini takomillashtirish hamda baliq ovlash va suv bo‘yi turizmi maskanlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident qarori (PQ–281-son, 18.08.2023-y.) qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, 2023-yil 1-oktyabrdan quyidagilar tadbirkorlarga «E-auksion» elektron savdo platformasida elektron onlayn auksion orqali ijaraga beriladi:

tabiiy va sun‘iy suv havzalari (suv omborlari) hamda daryo atrofidagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari – suv bo‘yida plyaj zonalarini tashkil etish, sport-ishqibozlik turidagi baliq ovlash, baliq ovi, qayiqda suzish va suv sayohati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish, baliq mahsulotlari, shu jumladan baliq taomlari savdosi, umumiy ovqatlanish va boshqa turizm xizmatlarini tashkil etish hamda ushbu maqsadlarda yengil konstruksiyali qurilmalarni (o‘tov lagerlari majmuasi, konteynerlarni) joylashtirish uchun.

Qarorga ko‘ra, 2024-yilda Respublikada:


- 900 ming tonna baliq yetishtirish;
- 35 240 gektar sun‘iy suv havzalarini intensivlashtirib, 513 600 tonna baliq yetishtirish;
- 9 000 xonadonda intensiv usulda baliq yetishtirishni yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan.

2024-yil 1-yanvardan «Har bir oila – tadbirkor» dasturi doirasida aholi va tadbirkorlarga baliqchilik loyihalarini amalga oshirish uchun 50 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratiladi.

Tahlil va natijalar: Yuqoridagi qaror va farmonlardan bilish mumkinki yurtimizda baliq mahsulotlariga bo‘lgan talab kundan kun oshib bormoqda maxsus xo‘jaliklarda parvarish qilinayotgan baliqlarni sifatli va arzon yem mahsulotlar bilan

taminlash uchun dafniya yetishtirishni samarali usullarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot ishlarimiz ma'lum darajada baliq yetishtirish uchun oziqa tayyorlash texnologiyasini rivojiga xizmat qiladi.

Yechish usuli: Uy sharoitida dafniyani ko'paytirish uchun men 2 xil usuldan qo'lanildi. Bunda bankada sug'orma suv va oqava suvi solinib dafniyani parvarishlab ko'paytirish tajribalar o'tqazildi (1-a. rasm).



1-a. rasm. Bankada sug'orma oqava suvi




1-b. rasm. suvni harorati ko'rish

Tajribalar quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:


1. Bankalardagi suvni harorati xona haroratiga yetguncha malum vaqt o'tqazilib suvni harorati termometr bilan o'lchandi (1-b. rasm).
2. Taxminan 50 gm miqdordagi qurutilgan dafniyani bir ikki buklangan qog'ozning o'rtasiga to'kamiz (2-a. rasm). Ohistalik bilan uyumni boshqa bir joyga sekin to'kamiz birinchi qog'ozda qolgan changga o'xshagan miqdor aynan dafniyaning tuxumlaridir. Shu tuxumlarni ikkila bankadagi suvga asta sekin to'kamiz (2-b. rasm).
3. Dafniyaning yemishi uchun oz miqdorda suv o'tlarini bankaga tashlab qoysak bo'ladi. Ozuqa maqsadida 1 chimdim xamirturush oz miqdordagi suvga aralashtirib eritib olamiz va suvga ohistalik bilan quyamiz (3-rasm). Ohistalik bilan quyishimizga sabab suv muhitidagi dafniya tuxumlari suv to'lqinidan shikastlanishini oldini olishdir. Shu maqsaddan bankadagi suvlarni iloji boricha to'ldirib qo'yishimiz zarur.




2-a. rasm. Qurutilgan dafniyani to'kish jarayoni



2-a. rasm. Dafniya tuxumlarini bankalarga solish jarayoni



3-rasm. Dafniyani oziqlanishi uchun xamirturushni suvda eritib olish jarayoni



4. Bankalarga xamirturush eritilgan suv oxistalik bilan solinadi. So'ngra bankalarni og'zi avaldan chevarlik ninasi bilan bir necha dona teshib tayyorlab qo'yilgan qog'ozlar bilan berkitiladi. Qog'ozlar bilan berkitilishiga sabab bankalarni og'zidan turli xil chang g'uborlar banka ichiga tushishini oldini olishdir, qog'ozlardan nina bilan teshik ochishdan maqsad esa havo bilan banka ichini taminlab turishdir (4-rasm).





4-rasm. Xamirturish eritilgan suv quyilgandan so'ng bankalarni saqlash jarayoni

5. Bankalarni qorong'u xonada 5 kun mobaynida saqlab banka ichini kuzatib bordim, bunda 4- kuni mayda dafniyalar bankada xarakatlana boshladi 5- kuni esa dafniya miqdori 4- kundagidan 2-3 baravargacha ko'paydi (5-rasm).



5-rasm. Bankadagi dafniyalar

Dafniyalarni yakka tartibda kuzatish maqsadida maxsus pipetkalar orqali dafniyalarni bankadan olib maxsus petri idishiga soldim (6-rasm).



6 -rasm. Petri idishidaga Ajratib olingan dafniyalar

Xulosa: Ushbu maqolada dafniyani ko‘paytirish bo‘yicha ilgari o‘tkazilgan tajribalar o‘rganilib tahlil etildi. Ikki xil usulda uy sharoitida dafniya yetishtirish maqsadida laboratoriya tajribalari o‘tkazildi. Bunda sug‘orma va oqava suvlar maqbul dep topildi. O‘tkazilgan laboratoriya tajribalari natijalariga ko‘ra dafniyani oqova suvda yetishtirishda chuchuk suvda oqava suvda yetishtirishdan ko‘ra yaxshi samara berib dafniya balalari ko‘payish tezligi 20 foizga yuqori bo‘ldi. O‘tkazilgan tajribalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki dafniyani uy sharoitida yetishtirish akvaryum baliqlarini arzon ozuqa bilan ta‘minlashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Baliqchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 13.01.2022 yildagi PQ-83-son qarori
2. H.M. Toshov, F.I. Asadova, and M.A. Namozova. Quantitative analysis of soil living organisms and important aspects of vermicompost cultivation. Bukhara State University, No. 11 Muhammad Iqbol, Bukhara, 200100, Uzbekistan.
3. A.K.Xusanov. Umurtqasizlar zoologiyasi fanidan amaliy mashg‘ulotlar. Andijon - 2021 - 119 b.
4. O. Mavlonov, sh. Xurramov, x. Eshova. Umurtqasizlar zoologiyasi – Toshkent 2006. 266 b.
5. S.Dadayeva, O.mavlonov. Zoologiya–Toshkent «Iqtisod-moliya» 2008,65 b.
6. Monjit Paul, Mukti Chanda, Joydeep Das, Priyanka Maity, Sudip Mondal, Asim Kumar Giri. Daphnia magna (Straus, 1820)– an alternative live fish food for Pterophyllum scalare and its commercialization. – Tijer - international research journal. July 2023 Volume 10, Issue 7.

Internet saytlari

7. www.google.uz
8. <https://rf-gk.ru/uz/dafniya-vodyanaya-bloha-kto-takaya-dafniya-dafniya-vodyanaya-bloha/>
9. <https://uz.unistica.com/akvarium-baliqlari-uchun-jonli-taom/>

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ҲУҚУҚБУЗАРЛИК СОДИР ЭТИШГА МОЙИЛ БЎЛГАН ШАХСЛАР БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Бахтиёров Анвар Дилишод ўғли

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясит курсанти

anvarbaxtiyorov6465@gmail.com

Аннотация: Мақолада профилактика инспекторининг ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил шахслар билан ишлаш фаолияти асослари ҳамда тушунчалари ёритилган. Шунингдек, ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил шахс тушунчаси ва бу борада муаллиф томонидан ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойил шахсларни барвақт профилактикасини чора-тадбирларини амалга оширишда аниқ ва ҳуқуқбузарликлар содир этишга мойиллар таснифи ҳамда уларнинг бир-бирдан фарқли жиҳатлари ёритиб берилган.

Annotation: The article describes the principles and concepts of the prevention inspector's work with persons prone to committing offenses. Also, the concept of a person prone to committing offenses and the author's classification of persons prone to committing offenses and their classification in the implementation of measures for the early prevention of persons prone to offenses by the author in this regard different aspects are highlighted.

Аннотация: Туристические услуги включают в себя широкий спектр предложений, призванных улучшить впечатления людей от путешествий и удовлетворить их различные потребности и предпочтения. Эти услуги играют важную роль в формировании общего путешествия путешественника, обеспечивая необходимую поддержку, удобство и обогащая впечатления, которые способствуют незабываемым и приятным путешествиям. Туристические услуги, от транспорта и проживания до туров, развлечений и помощи в планировании путешествий, составляют основу туристической индустрии, предоставляя путешественникам доступ к важным ресурсам и возможностям для изучения направлений и создания незабываемых воспоминаний. Предоставляется информация об экономических услугах в сфере туризма.

Ключевые слова: туризм, экономические услуги, маркетинг, транспорт, размещение, деньги.

Abstract: Travel services include a wide range of offerings designed to enhance the travel experience of individuals and meet their various needs and preferences. These services play an important role in shaping the overall traveler journey, providing essential support, convenience and enriching experiences that contribute to memorable and enjoyable journeys. From transportation and accommodations to tours, entertainment, and travel planning assistance, tourism services form the backbone of the travel industry, providing travelers with access to critical resources and

opportunities to explore destinations and create lasting memories. Information about economic services in tourism is provided.

Key words: tourism, economic services, marketing, transport, accommodation, money.

KIRISH.

Sayohatchilar o'z sarguzashtlarini boshlar ekan, ular notanish hududlarda sayohat qilish, mahalliy madaniyatlarni kashf qilish va atrofdagi dunyo haqidagi tushunchalarini boyitadigan immersiv tajribalar bilan shug'ullanish uchun turizm xizmatlariga tayanadi. Amaliy qo'llab-quvvatlash, madaniy tushunchalar va dam olish imkoniyatlarini taklif qilish orqali turizm xizmatlari turli xil sayohat qiziqishlari va motivatsiyalariga javob beradi, odamlarga sayohatlarini moslashtirish va uydan uzoqda bo'lgan vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatini beradi. Dam olish, sarguzasht, madaniy suvga cho'mish yoki kashfiyot izlamoqchimisiz, turizm xizmatlari uzluksiz sayohat tajribasini osonlashtirish va sayohatchilar va ular tashrif buyuradigan joylar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash uchun zarur vositalar va resurslarni taqdim etadi. Qulaylik, qulaylik va haqiqiylikka e'tibor qaratgan holda, ushbu xizmatlar har bir sayohat tajribasi noyob, mazmunli va sayohatga chiqqanlar uchun ta'sirli bo'lishini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Sayohat yangi madaniyatlarni o'rganishdan tortib ekzotik taomlarni tatib ko'rishgacha bo'lgan ko'plab tajribalarni taklif etadi. Shunday bo'lsa-da, sarguzashtga kirishish hayajonli bir paytda, sayohatingizni asoslaydigan iqtisodiy xizmatlarni tushunish va ulardan foydalanish juda muhimdir. Iqtisodiy xizmatlar transport va turar joydan tortib ovqatlanish, faoliyat va moliyaviy operatsiyalargacha bo'lgan barcha narsalarni qamrab olgan sayohat tajribangizni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sayohat haqida gap ketganda, transport sizning sayohatingizning asosidir. Aviakompaniyalar, poyezdlar, avtobuslar, taksilar va avtoulavlarni ijaraga berish sizni maqsadingizga bog'laydigan muhim iqtisodiy xizmatlardir. Transport xizmatlarining narxi, qulayligi va qulayligi sayohat marshrutingiz va byudjetingizga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Siz go'zal manzaralar bo'ylab bema'lol poezdda sayohat qilishni yoki keyingi manzilingizga tez parvozni tanlaysizmi, transport xizmatlarini oqilona tanlash sizning umumiy sayohat tajribangizni oshirishi mumkin. Bir kunlik tadqiqotdan so'ng, dam olish uchun eng zo'r joyni topish juda muhimdir. Mehmonxonalar, yotoqxonalar, dam olish maskanlari va dam olish maskanlari sayohatingiz davomida turar joyni ta'minlaydigan asosiy iqtisodiy xizmatlardir. Mavjud variantlar to'plami har bir sayohatchining afzalliklari va byudjeti uchun tanlovlarni taklif qiladi. Sizning ehtiyojlaringizga javob beradigan turar joyni tanlash, xoh u shinam butik mehmonxona yoki arzon yotoqxon bo'ladimi, uydan uzoqda qulay va zavqli dam olishni ta'minlaydi. Oziq-ovqat - bu turli madaniyatlarni bog'laydigan universal til.

Restoranlar, kafelar, oziq-ovqat bozorlari va ko'cha sotuvchilari mahalliy lazzatlar va oshpazlik an'analarining ta'mini taklif qiluvchi iqtisodiy xizmatlardir. Turli xil oshxonalar va ovqatlanish tajribalarini tanlab olish sayohatlaringizga lazzat bag'ishlaydi. Mahalliy delikateslarni taqdim etuvchi ko'cha taomlari do'konlaridan tortib, gurme ijodlarini namoyish etuvchi mazali restoranlargacha, oziq-ovqat va ichimliklar xizmatlarini o'rganishning o'zi yoqimli sayohatdir.[3]

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Mahalliy madaniyat va diqqatga sazovor joylarga sho'ng'ish sayohat va faoliyat xizmatlari orqali mumkin bo'ladi. Turoperatorlar, yo'l-yo'riqli ekskursiyalar va ko'ngilochar maskanlar bu yerning tarixi, san'ati va tabiat mo'jizalari haqida ma'lumot beradi. Ekskursiya va faoliyat xizmatlari bilan shug'ullanish sizga unutilmas tajribalar yaratish va kashf qilinmagan yashirin marvaridlarni kashf qilish imkonini beradi. Sayohat paytida moliyangizni boshqarish bankomatlar, valyuta ayirboshlash shoxobchalari va mobil to'lov yechimlari kabi muhim iqtisodiy xizmatlardan foydalanishni talab qiladi. Valyuta ayirboshlash stavkalari, tranzaksiya to'lovlari va to'lov imkoniyatlarini tushunish muammosiz moliyaviy operatsiyalarni ta'minlaydi. Mavjud moliyaviy xizmatlarga e'tibor qaratsangiz, sayohat byudjetingizni samarali boshqarishingiz va keraksiz qiyinchiliklardan qochishingiz mumkin. Sayohat paytida siz turli xil iqtisodiy xizmatlarga duch kelishingiz mumkin. Ushbu xizmatlar qulay va yoqimli sayohat tajribasini ta'minlash uchun zarurdir. Bularga aviakompaniyalar, poezdlar, avtobuslar, taksilar va avtomobil ijarasi kiradi.[4]

Sayohat davomida sizni bir joydan ikkinchi joyga olib borishda transport xizmatlari juda muhimdir. Transport xizmatlarining narxi va sifati sizning umumiy sayohat xarajatlaringiz va qulayligingizga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mehmonxonalar, yotoqxonalar, dam olish maskanlari va dam olish maskanlari turar joy xizmatlarini taklif qiladi. Turar joyingizning narxi, qulayliklari va joylashuvi sizning byudjetingizga va turar joyingizdan umumiy qoniqishingizga ta'sir qilishi mumkin. Restoranlar, kafelar, oziq-ovqat bozorlari va ko'cha sotuvchilari oziq-ovqat va ichimliklar xizmatlarini ko'rsatadi. Ovqatlanish opsiyalari narx va sifat jihatidan farq qilishi mumkin va mahalliy taomlarni sinab ko'rish ko'pincha sayohat tajribasining ajralmas qismi hisoblanadi. Turoperatorlar, ekskursiyalar va ko'ngilochar maskanlar tur va faoliyat xizmatlarini taklif qiladi. Ushbu xizmatlar sayohatingizning madaniyati, tarixi va tabiiy diqqatga sazovor joylari haqida ma'lumot berish orqali sayohatingizni yaxshilashi mumkin. Yodgorlik do'konlari, bozorlar, savdo markazlari va ixtisoslashtirilgan do'konlar xarid qilish imkoniyatlarini taklif etadi. Sayohatingiz davomida tovarlar va xizmatlarni xarid qilish mahalliy iqtisodiyotga hissa qo'shadi va sayohatlaringizdan uyga esdalik sovg'alarini olib kelish imkonini beradi. Bankomatlar, valyuta ayirboshlash shoxobchalari, banklar va mobil to'lov xizmatlari sayohat paytida moliyaviy operatsiyalarni osonlashtiradi. Valyuta kurslari, to'lovlar va to'lov

imkoniyatlarini tushunish chet elda moliyangizni boshqarish uchun zarurdir. Sayohat sug'urtasi provayderlari favqulodda tibbiy holatlar, sayohatni bekor qilish, yo'qolgan yuk va boshqa kutilmagan holatlar uchun sug'urta qoplamalarini taklif qiladi. Sayohat sug'urtasi sizning sayohatingiz davomida xotirjamlik va moliyaviy himoyani ta'minlaydi. Mehmonxona markazlari, sayyohlik agentliklari, onlayn sayohat platformalari va mobil ilovalar diqqatga sazovor joylar, turar joylar, transport va tadbirlar haqida ma'lumot beradi. Ishonchli turizm ma'lumotlariga kirish sayohatingizni samarali rejalashtirish va boshqarishga yordam beradi. Ushbu iqtisodiy xizmatlarni tushunish va undan samarali foydalanish sayohat tajribangizning umumiy sifatini oshirishi mumkin. Sayohatingiz davomida esda qolarli va muammosiz sayohatni ta'minlash uchun iqtisodiy xizmatlar bilan shug'ullanayotganda tadqiq qilish, variantlarni taqqoslash va asosli qarorlar qabul qilish juda muhimdir.[5]

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sizning turar joyingizdagi iqtisodiy xizmatlar moliyaviy operatsiyalaringizga va sayohat paytida xarajatlaringizga hissa qo'shadigan turli xil takliflarni o'z ichiga oladi. Ushbu xizmatlar byudjetingizni boshqarish, zarur resurslarga kirish va sayohatingiz davomida iqtisodiy tajribangizni optimallashtirish uchun zarurdir. Valyuta ayirboshlash va bank xizmatlaridan tortib xarid qilish imkoniyatlari, byudjetga mos turar joy va arzon transport imkoniyatlarigacha iqtisodiy xizmatlar sayohat tajribangizning umumiy moliyaviy tomonini yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Turgan vaqtingiz davomida iqtisodiy xizmatlar maqsadingizning moliyaviy manzarasida harakatlanishingizga yordam beradi, bu sizga tranzaksiyalarni bajarish, xaridlarni amalga oshirish va xarajatlaringizni samarali boshqarish imkonini beradi. Bankomatlar, valyuta ayirboshlash shoxobchalari va mobil to'lov opsiyalari kabi xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlagan holda, ushbu xizmatlar sizning byudjetingiz doirasida qolib, ehtiyojlaringiz va afzalliklaringizni qondirish uchun zarur moliyaviy vositalarga ega bo'lishingizni ta'minlaydi. Bundan tashqari, iqtisodiy xizmatlar mahalliy narxlar, xarajatlarni tejash bo'yicha maslahatlar va sayohat davomida sarf-xarajatlaringiz va resurslarni taqsimlash bo'yicha asosli qarorlar qabul qilishda yordam beradigan qo'shimcha qiymat tajribasi uchun imkoniyatlarni taqdim etadi. Siz hamyonbop ovqatlanish imkoniyatlari, byudjetga mos keladigan tadbirlar yoki pulga munosib turar joy qidirapsizmi, bu xizmatlar sayohat byudjetingizni optimallashtirishga va sayohatingizning iqtisodiy foydasini maksimal darajada oshirishga yordam beradi. Umuman olganda, turar joyingizdagi iqtisodiy xizmatlar sizning moliyaviy farovonligingizni qo'llab-quvvatlash, xarid qobiliyatingizni oshirish va muammosiz va tejamkor sayohat tajribasini osonlashtirish uchun mo'ljallangan. Ushbu xizmatlardan samarali foydalanish orqali siz o'zingizning resurslaringizdan maksimal darajada foydalanishingiz, o'zingizning afzalliklaringiz asosida

xarajatlaringizni ustuvorlashtirishingiz va moliyaviy izingiz sayohat maqsadlaringiz va ustuvorliklaringizga mos kelishini ta'minlashingiz mumkin.[1]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Тухлиев И.С., Хайтбоев Р., Турсунова Г.Р. Основы туризма. Учебная программа сложная. – Самарканд, СамИСИ, 2013. – 372 с.[1]
2. Гудратов Г.Х., Пардаев М.К., Отабоев Р. Туристический потенциал Узбекистана и основные направления государственной политики в его развитии. // Развитие сферы услуг и туризма: проблемы и пути их решения. - Т.: Экономика и финансы, 2008. - С. 61-70.[2]
3. Хайтбоев Р., Саттаров А. Технология разработки туристических маршрутов. Самарканд, 2011.[3]
4. Матякубов У.Р. «О направлениях и перспективах повышения эффективности туризма с учетом экологической ситуации. план кандидатской диссертации. – Самарканд, 2011. – 12 с. [4]
5. Халикулов А.Н. «Возможности повышения качества и эффективности обслуживания в гостиницах». Автореферат. Абстрактный. – Самарканд, 2010. – 25 с. [5]

TARIXIY ROMAN
ИСТОРИЧЕСКИЙ РОМАН
HISTORICAL ROMAN

*Xayitova Madina Bahodir qizi,
Farg‘ona davlat universiteti magistratura bo‘limi
2-kurs adabiyotshunoslik yo‘nalishi magistranti,
madinaxayitova@gmail.com*

Annotatsiya: mazkur maqolada tarixiy romanlarga xos xususiyatlar haqida qisqacha fikr yuritilgan. Mazkur fikrlar so‘ngi yillarda nashr etilgan ilmiy maqolalarni qiyosiy o‘rgangan holda bayon etilgan. Xususan, Gulbahor Ashurovaning “Tarixiy shaxs tasvirida tarixiy fakt va talqin muammosi” nomli maqolasi tahliliga alohida e’tibor qaratilgan.

Аннотация: В этой статье кратко рассматриваются особенности исторических романов. Эти мнения изложены в сравнительном исследовании научных статей, опубликованных в последние годы. В частности, особое внимание уделено анализу статьи Гульбахар Ашуровой “Проблема исторического факта и интерпретации в образе исторической личности”.

Annotation: this article briefly discusses the features inherent in historical novels. These opinions are expressed with a comparative study of scientific articles published in recent years. Particular attention is paid to the analysis of Gulbahor Ashurova's article “The problem of historical fact and interpretation in the image of a historical person.”

Kalit so‘zlar: roman, tarixiy roman, badiiy to‘qima, real voqelik, badiiylik, ijodiy niyat.

Keywords: novel, historical novel, artistic texture, real reality, artistry, creative intention.

Ключевые слова: роман, исторический роман, художественная ткань, реальная реальность, артистизм, творческий замысел.

Adabiyotshunoslikda tarixiy shaxslar, voqea-hodislarni badiiy usulda tasvirlash anchayin keng tarqalgan. Bu jarayonda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning qorishiq holda berilishi asarning keng omma tomonidan qabul qilinishligini ta‘minlaydi. Muallif agar tarixiy shaxs yo voqea-hodisani shunchaki bayon etganda u hujjatli asar sifatida kitobxonni ta’sirlantirmasligi mumkin. “Tarixiy shaxs tasviridagi o‘ziga xoslikning asosiysi shundaki, unda mavzu aniq va uning chegara qamrovi ham taxminan belgilidir. Shunga qaramay, bu “aniqlik” va “chegaralarning belgili” ekanligi shu qadar kattaki, uning bor hududini tasavvur qilishning o‘zi oson emas [4.

115]. Shu sababli ham mazkur turdagi asarlarni yaratish ijodkordan nafaqat tarixiylikni saqlab qolish, balki bu taxrziylikni badiiylik asosida berishni talab etadi. “Tarixiy roman janrini tavsiflashda ijodiy tafakkur va hujjatlilikning uyg‘unligi; tarixiy hayot va joriy davrning aloqasi, shuningdek, o‘tmishning noaniqliklarini bartaraf etish va vaqtning butunligiga erishish (M.Baxtin); tarixiy voqealarni tasvirlashda muallif interpretatsiyasi (I.Shcheblykin); muallifning tasvirlangan voqealardan yoki mahalliy koloritdan uzoqlashishiga qo‘shimcha ravishda, tarixiy ziddiyatning majburiy mavjudligi (G.Lenoble)ni qaydetish lozim” [1. 213]. Sharq adabiyotid tarixiy asarlar islom dini kirib kelishi bilan rivojlanishni boshladi. Dastlabki tarixiy asarlar Muhammad alayhissalom hamda boshqa payg‘ambarlar va sahoblar haqida yartilgan. Keyinchalik bu turdagi asarlar umumiy nom bilan qissa deb atalib Sharq adabiyotidagi eng mashhur asarlar hajman katta va keng qamrovli bo‘lsa ham “qissa” deb yuritilgan. Navoiy, Xoja, Gulxaniy, Munis, Ogahiy kabi ijodkorlar tarixiy nasrchilikni davom ettirgan bo‘lsa, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani o‘zbek adabiyotida tarixiy roman janriga asos soldi. Yozuvchi Oybek „Qutlug‘ qon“ tarixiy romanini va ilk tarixiy biografik roman “Navoiy”ni yozdi. O.Yoqubov “Ulug‘bek xazinasini”, P.Qodirov “Yulduzli tunlar”, Muhammad Ali “Sarbadorlar” romanlari bilan tarixiy roman janri yanada rivojlandi [1. 214]. Tarixiy romannavislik –badiiy adabiyotning boshqa janrlariga qaraganda bir muncha murakkab va yozuvchidan katta mas‘uliyatni talab etadi. Chunki tarixiy romannavis oldida tarixiy davr voqeligiga oid tarixiy manbalarni sinchkovlik bilan o‘rganishni talab etadi. Ikkinchi murakkab masala esa buyuk tarixiy shaxslar faoliyati haqida tarixnavislar va o‘z davri kishilari tomonidan turfa xil munosabat bildirilishidir. Ijodkor oldida esa bu manbalarni saralab, tarixiy davr voqeligiga zid bo‘lmagan holda o‘zining tarixiy mavzudagi asariga olib kira bilishdek mashaqqatli vazifani maromiga yetkazib, talqin etish masalasi turadi [2. 125]. Shu sababda ham kam ijodkorlar tarixiy romanga murojaat etadilar. Ijodkor tarixiy voqelik bilan yaxshi tanish bo‘lsa-da, kitobxonga qanday usulda voqelkni bayon etish masalasiga jiddiy yondashadi. Bunda badiiy to‘qimaga ham to‘xtalib o‘tadi. Asarda tasvirlangan tarixiy shaxslarning ichki dunyosini kitobxonga yetkazib berish, mazkur obrazni anglash uchun to‘qima obrazlarga ham murijaat qilinadi. Natijada tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimaning uyg‘un holda kelishi asar badiiyiligini oshirish barobarida ta’sirchanlikni ham ta’minlaydi. Lekin berilgan to‘qima obrazlar asar mazmuni va g‘oyasi ta’sir o‘tkazmagan holda tarixiy shaxs yo voqelikni aniqroq anglash uchun xizmat qiladi. “Roman yozish – yozuvchidan judayam ko‘p mahoratni talab etadi. Tarixiy roman yozish esa ikki hissa mashaqqatdir. Doim tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima o‘rtasidagi oltin ko‘priknizlashda yozuvchi “tarixiy manbalarni o‘rganadi, faktlar, voqealar, ularning ishtirokchilari haqida ma’lumotlarni yig‘adi” [3. 53]. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti kontekstida barcha adabiy janrlarda muayyan evrilish jarayonlari

ko'zga tashlanmoqda. Xusu-san, bunday o'zgarish tarixga munosabat va tarixiy shaxslarga este-tik munosabat tarzida yaqqol namoyon bo'layotganligi bilan bog'liq. Istiqlol ko'plab tarixiy shaxslar hayotiga oid mavzu va muammolarni ancha dadil va kengroq miqyoslarda mushohada qilish imkonini berdi. Buyuk mutafakkirlar (Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Forobiy, Alisher Navoiy), jahoniy e'tiroflarga sazo-vor bo'lgan davlat arboblari va sarkardalar (Jaloliddin Manguber-di, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur...) ko'plab qalam ahli (Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy va boshqa) yozuvchi, shoirlarimizning diqqat markaziga ko'chdi [4. 113]. "Badiiy obrazni yaratish jarayoni dastlab materiallarning qat'iy saralanishi demakdir: san'atkor tasvirlanayotgan obrazning eng xarakterli jihatlarini oladi, barcha tasodifiy narsalardan voz kechadi, u yoki bu qirralarini to'liq yorqinlashtirganiga qadar yiriklashtirish yoki o'tkirlashtirish hisobiga rivojlantirib bora-di" [4. 116]. Tarixiy reallikning badiiy adabiyotga ko'chishi haqida filologiya fanlari nomzodi, dotsent Gulbahor Ashurova "Tarixiy shaxs tasvirida tarixiy fakt va talqin muammosi" nomli maqolasining xulosalar qismida mavzuning ahamiyatini va bu boradagi qilinadigan ishlarni o'ziga xos usulda bayon etadi. Bizningcha ham mazkur fikrlarga asoslangan holda tarixiy asarlarni tahlil va tadqiq etish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimova D. O'zbek adabiyotida tarixiy nasr. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalarva ilmiy tadqiqotlar jurnali. 19-son. 2023.
2. Shpmurodov S. Tarixiy romannavislikda tarixiylik va badiiylik masalasi. Innovative achievements in scines. 2023.
3. Mamadaliyeva M., Yusupova N. Oybekning mukammal asarlarida "Navoiy" romani. Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation. 2024.
4. Asurova A. Tarixiy shaxs tasvirida tarixiy fakt va talqin muammosi. Uzbekistan: Language and Culture. 2022.

KORXONADA HODIMLAR NAZORATINI AVTOMATLASHTIRISH

Xakimova Saboxat

Andijon mashinasozlik instituti

Ib va Kt fakulteti TJICHAB yo`nalishi

k 16 20 guruh talabasi 4-kurs

Annotatsiya. Maqolada sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishni rivojlantirish masalalari yoritilgan, ushbu sohada mavjud muammolar tahlil qilingan, raqamlashtirish jarayonlariga to‘sqinlik qilayotgan omillar o‘rganilgan va ishlab chiqarishni raqamlashtirish yo‘nalishlari bayon etilgan. Zamonaviy raqamli ishlab chiqarish tizimlarining xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. ishlab chiqarish jarayoni, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiya, avtomatlashtirish, dasturiy ta‘minot, sun‘iy intellekt, aqlli korxonalar, blokcheyn.

Ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish muammosi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vositasi sifatida ilgari va hozirda ham xalq xo‘jaligida dolzarb mavzu hisoblanadi [1]. Hozirgi ishlab chiqarishni boshqarishni avtomatlashtirish bosqichida bevosita mutaxassislarining ish o‘rinlarida o‘rnatilgan shaxsiy EHM bazasida rejali-boshqaruv funksiyalarini avtomatlashtirish istiqbolli yo‘nalishdir [2]. Bunday tizimlar avtomatlashtirilgan ish o‘rinlari (AIO‘) nomi bilan tashkiliy boshqaruvda keng tarqaldi. Bu dasturlash bo‘yicha maxsus bilimga ega bo‘lmagan insonlar uchun foydali hisoblanadi [3]. Tashkilot kadrlar bo‘limining avtomatlashtirilgan ish o‘rni (AIO‘) – bu kadrlar bo‘limi mutaxassisining professional vazifalarini to‘laqonli bajarishni avtomatlashtiruvchi hisoblash texnikasi va instrumental vositalar bilan qurollangan ish o‘rnidir. Instrumental vositalarga quyidagilar kiradi: texnik, axborot, matematik, dasturiy, texnologik, lingvistik, xuquqiy va ergonomik ta‘minotlar [4]. Texnik ta‘minot – bu kadrlar bo‘limining avtomatlashtirilgan ish o‘rni uchun kerak bo‘lgan texnik vositalar kompleksidir [5]. Bundan tashqari kadrlar bo‘limining AIO‘ texnik hisoblash texnikasi vositalaridan tashqari orgtexnika bilan ham ta‘minlanadi [6]. Iste‘molchilarning AIO‘ texnik bazasi tinmay va rivojlanadi va takomillashtiriladi [7]. Ammo AIO‘ samaradorligi birinchi navbatda dasturiy ta‘minotning sifatligi bilan aniqlanadi [8]. Kadrlar bo‘limi AIO‘ ning dasturiy ta‘minoti quyidagi komponentlardan o‘z ichiga oladi: – operatsion tizim; – dasturlash tillari va tizimlari; – amaliy dasturiy ta‘minot (ADT): umumtizimiy (bazaviy) ADT va professional maqsadli muammoli-yo‘naltirilgan ADT [9]. Loyihalash natijasida so‘ralayotgan axborotlarni saqlash, hisobini olish, qidirish va aks ettirish jarayonlarini bir muncha yuqori sifatda tashkil etish imkonini beradi [10]. Ushbu baza o‘z ichiga xodimlar bo‘yicha ma‘lumotlar, mukofotlanishlar, xayfsanlar, ta‘tillar, shuningdek, bo‘shatilganlar haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi [11]. Loyihalashni boshlash tashkilotni, ya‘ni obyektini o‘rganish bosqichidan boshlanadi. Maqolada mana shu obyektini o‘rganish bosqichiga asosiy urg‘uni beramiz. Obyektini o‘rganishni o‘tkazish tartibi quyidagichadir: – rahbarlar va javobgar shaxslar bilan ishchi seminarlar o‘tkazish; – topshiriqni bajarishga tayyorlanish uchun tashkiliy ishlarni olib borish; – kerakli materiallarni to‘plash; – yig‘ilgan ma‘lumotlarni

loyihachilarga uzatish. Obyektни o‘rganish bosqichida ikkita tashkil etuvchini alohida ajratib ko‘rsatish zarur: Axborot tizimini (AT) tatbiq etish strategiyasini aniqlash va tashkilot faoliyatini chuqur o‘rganish [12]. Obyektни o‘rganish bosqichining birinchi va asosiy masalasi – bu loyihalash obyektidagi aniq ish hajmini, uning maqsadi va aniqlangan funksiyalari asosida yechiladigan masalalarni baholashdir [13]. Bu masalalar amalga oshirish yoki AT buyurtmachi tomonidan ixtiyoriy yoki konsalting tashkilotlarini jalb qilgan xolda yechilishi mumkin [14]. O‘zaro aloqadan maqsad – buyurtmachi talablari haqida to‘liq va aniq ma‘lumot olish. Odatda, kerakli ma‘lumotlar intervyu, rahbarlar, ekspertlar va iste‘molchilar bilan suxbat yoki seminarlar orqali olinadi [15]. Bu o‘rganish bosqichining yakunida tizimni yaratishdagi extimoliy texnik yondashuv va uni amalga oshirishdagi sarf-xarajat miqdori (apparat ta‘minoti, dasturiy ta‘minot va yangi dasturiy ta‘minot uchun xarajatlar) aniqlanadi [16]. Obyektни o‘rganish jarayonida hujjatlar formalari albomini yaratish va har bir hujjatning juda zarur xarakteristikalarini o‘rnatiladi, ya‘ni: – hujjatlantirish tizimi – unga hujjatlar kiradi (konstruktorlik, texnik, hisobotstatistik, birlamchi-hisob); – hujjat formasi – qo‘lda to‘ldirish uchun bu blank, mashina uchun esa ekran formasi; – hujjatning rekvizitli tarkibi yoki mashinali tashuvchida axborotlar massivini yozish strukturasi; – hujjatdagi axborot hajmi xarakteristikasi – hujjat nusxalari soni, belgilangan vaqt oralig‘ida hujjatdagi qatorlar soni; – hujjat almashuvi sxemasi – protseduralar tarkibi va ularning bajarilish ketma-ketligi. Tashkilot faoliyatini tahlil qilish natijasida boshqaruv funksiyalarini ta‘minlash masalalari, tashkilot tashkiliy strukturasi, shtatlar va tashkilotni boshqarish bo‘yicha ishlar ko‘lami, shuningdek yuqori boshqaruv organlaridagi bo‘ysunish xarakteri aniqlanadi. O‘zbekiston sanoatini rivojlantirib borish raqamlashtirilgan texnologik platformalarni yaratish, tashqi va ichki bozorlar uchun yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar yetkazib beruvchi yuksak texnologiyali korxonalarni tashkil etishni taqazo etadi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-oktabrdagi pf-6079- sonli Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonida ham iqtisodiyotning real sektorida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi: | korxonalar ta‘minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta‘minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish; | zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini, ishlab chiqarishdagi to‘xtalishlarni kamaytirish, moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish; | innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish; | ishchi joylarni bosqichma-bosqich avtomatlashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini robotlashtirish, shuningdek, sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish; | savdo hajmini oshirish va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida buyurtmachilar (mijozlar) bilan o‘zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish; | boshqaruv ma‘lumotlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimini, jumladan, real vaqt rejimida biznes-tahlil tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish; | 2025 yilda korxonalar resurslarini boshqarish tizimini (ERP) joriy qilgan yirik xo‘jalik yurituvchi

sub'ektlarning ulushini 90 foizga yetkazish; Iqtisodiyotni yangi texnologik bosqichga o'tishi bilan mamlakat ishlab chiqarish tuzilmalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkiliy-iqtisodiy ta'minoti, boshqaruv usullari zamonaviy yodashuvlarni shakllantirishga extiyoj paydo bo'lmoqda. Iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish sharoitida sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va robotlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or usul va uslublarini joriy etish, uning raqamli intellektuallashtirish darajasini oshirish jarayonlari jadal rivojlanmoqda. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvlar qisqa vaqt ichida to'liq axborot almashinuvi, ishchilar va xodimlar sonini qisqartirish, ularning kompetentligini oshirish, moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari va robotlashtirish komplekslarini joriy etishga tayanadi. Buning uchun innovatsion, yuqori texnologik mahsulot chiqaruvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga e'tibor qaratilishi lozim. Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ishlab chiqarishni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish to'g'risidagi qaror butun korxonaga faoliyatiga ta'sir qiladi va bunda bilan yuzaga kelish mumkin bo'lgan xavflarni hisobga olish kerak. Faqat istiqbolli texnologiyalarni, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini puxta rejalashtirish va har tomonlama o'rganish bilangina istalgan samarani olish mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish sharoitida korxonaga boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Raqamli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moslashuvchan tashkiliy tuzilmalarni yaratish mumkin. Raqamlashtirish davrida sanoat korxonasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish tashkilot rahbariga ham menejment, ham ishlab chiqarish texnologiyalari, ham IT texnologiyalari sohasida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga bo'lgan talablarni qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V. A. Plotnikov, Proceedings of St. Petersburg State University of Economics, 4 (112), 16-24 (2018).
2. Brynjolfsson E and Kahin, B, eds. (2002). Understanding the Digital Economy. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA
3. Бойко, И.П. Экономика предприятия в цифровую эпоху / И.П. Бойко, М.А.Евневич, А.В. Кольшкин // Российское предпринимательство. Том 18, – 2017. – №7. – С.1127-1130.
4. Кобулов В.К. (1998) Алгоритмизация в социально-экономических системах. Tashkent: Fan, 320 s. (Kobulov V.K. (1998) Algorithmization in socio-economic systems. - Tashkent: Fan, 320 p.)

KORXONADA HODIMLAR NAZORATINI AVTOMATLASHTIRISH

Xakimova Saboxat

Andijon mashinasozlik instituti

Ib va Kt fakulteti TJICHAB yo`nalishi

k 16 20-guruh talabasi 4-kurs

Anotatsiya: Ushbu maqolani yozishdan maqsad boshqaruv personalining lokal avtomatlashtirilgan ish o`rnini (AIO`) loyihalashda amaliy ko`nikmalarni egallash hisoblanadi. Odatda kadrlar bo`limi shaxsiy tartib ishchilari ro`yxati, kadrlar harakati, kadrlarni o`qitish va qayta o`qitish ishlarini olib boradi. Shuningdek, bo`limning vazifalariga lavozim instruksiyalarini tuzish, hisobotlarni shakllantirish va anketalarni qayta ishlash ham kiradi. Shu bilan birga, bo`lim mehnat intizomi, xizmatchilarni xizmat pog`onalarida ko`tarilishini nazorat qiladi.

Kalit so`zlar. Boshqaruv pesonali, Avtomatlashtirilgan jarayon, EHM bazasi, loyihalashni tashkil etish.

Ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish muammosi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish vositasi sifatida ilgaritdan va hozirda ham xalq xo`jaligida dolzarb mavzu hisoblanadi [1]. Hozirgi ishlab chiqarishni boshqarishni avtomatlashtirish bosqichida bevosita mutaxassislarning ish o`rinlarida o`rnatilgan shaxsiy EHM bazasida rejali-boshqaruv funksiyalarini avtomatlashtirish istiqbolli yo`nalishdir [2]. Bunday tizimlar avtomatlashtirilgan ish o`rinlari (AIO`) nomi bilan tashkiliy boshqaruvda keng tarqaldi. Bu dasturlash bo`yicha maxsus bilimga ega bo`lmagan insonlar uchun foydali hisoblanadi [3]. Tashkilot kadrlar bo`limining avtomatlashtirilgan ish o`rni (AIO`) – bu kadrlar bo`limi mutaxassisining professional vazifalarini to`laqonli bajarishni avtomatlashtiruvchi hisoblash texnikasi va instrumental vositalar bilan qurollangan ish o`rnidir. Instrumental vositalarga quyidagilar kiradi: texnik, axborot, matematik, dasturiy, texnologik, lingvistik, xuquqiy va ergonomik ta`minotlar [4]. Texnik ta`minot – bu kadrlar bo`limining avtomatlashtirilgan ish o`rni uchun kerak bo`lgan texnik vositalar kompleksidir [5]. Bundan tashqari kadrlar bo`limining AIO` texnik hisoblash texnikasi vositalaridan tashqari orgtexnika bilan ham ta`minlanadi [6]. Iste`molchilarning AIO` texnik bazasi tinmay va rivojlanadi va takomillashtiriladi [7]. Ammo AIO` samaradorligi birinchi navbatda dasturiy ta`minotning sifatililigi bilan aniqlanadi [8]. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda bizning hayotimizning bir qismi, turli sohalarda amaliyot yuritishda keng tarqalgan holda qo`llanilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonida raqamlashtirish yuzasidan bir qancha olimlar o`z fikrlarini bildirishgan. “Raqamli iqtisodiyot” atamasi birinchi marta 1994 yilda Kanadalik iqtisodchi Don Tapskottning tomonidan

ishlatilgan. Muallif o'z ishida raqamlashtirishning iqtisodiyotga ta'siri haqida gapirgan. U tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va biznes yuritishning mutlaqo yangi biznes modellarining paydo bo'lishini raqamlashtirishning asosiy afzalliklardan biri deb hisoblagan. V.A.Plotnikovning tadqiqotlarida raqamlashtirish bu "axborotlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy bosqichi bo'lib, axborotni yaratish, qayta ishlash, uzatish, saqlash va vizualizatsiya qilish uchun raqamli texnologiyalardan keng ko'lamda foydalanish bilan tavsiflanuvchi yangi qurilma va dasturiy taominotning birlashmasi bilan tavsiflanadi" deb ta'rif bergan. Bundan tashqari u korxonalar raqamli texnologiyalardan foydalanganda erishadigan bir qancha afzalliklarni sanab o'tgan: - ishlab chiqarishning moslashuvchanligi uning tez qayta konfiguratsiyasi, ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining dinamik o'zgarishi hisobiga ortadi, bu esa raqobatdosh ustunlikni yaratadi va potentsial foyda o'sishiga olib keladi; - mahsulotlarni ishlab chiqishdan tortib to utilizatsiya qilishgacha bo'lgan hayot tsiklining bosqichlarini axborot integratsiyasini ta'minlaydi, bu bizga nafaqat ishlab chiqarishni optimallashtirish, balki sifat, ekologik xavfsizlik, biznesning yangi imkoniyatlarini yaratish va hokazolarni samarali va har tomonlama hal qilish imkonini beradi⁷. Brynjolfsson va Kahinlar (2002) tomonidan iqtisodiyotni raqamlashtirish masalalari ilk marotaba 1990 yillarning o'rtalarida muhokama mavzusi sifatida targ'ib qilinib, ilk ta'riflar keltirilib, mazkur ta'riflarda korxonalar va iste'molchilarni virtual dunyoda uchrashtiruvchi vosita sifatida e'tirof etildi⁸. Raqamlashtirishning rivojlanishi bilan korxonaning biznes modellari doimiy ravishda o'zgarib turadi. Shuning uchun ko'pgina mualliflar raqamlashtirish ta'rifini turlicha izohlaydilar. Masalan, Aleksandr Kutsman raqamli iqtisodiyotni «moddiy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda resurslarni aniqlash, saqlash, qayta ishlash uchun raqamli texnologiyalardan faol foydalanish asosida axborot va bilimlarning ustuvor roli bilan tavsiflangan zamonaviy iqtisodiyot turi sifatida tavsiflanadi»⁹. Aksanov R. K. raqamli iqtisodiyot elektron mahsulotlar va elektron tijorat xizmatlarini ishlab chiqarishga asoslanganligini ta'kidlaydi. Elektron tijorat ostida Aksanov R.K. kapitalning elektron harakati, elektron mahsulotlar, shuningdek, elektron axborot almashinuvi jarayonini nazarda tutadi⁹. Milliy iqtisodiyotni turli tarmoqlarida yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, ularda raqamlashtirish tizimlarini joriy etish usullari, yangi axborot tizimlari asosida raqamli modellashtirish tamoyillari, korporativ boshqarish jarayonida avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish samaradorliklarini baholash, ular nazoratini amalga oshirish, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish shart-sharoitlari kabi masalalar Qobulovning (1998) ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan¹⁰. E.Muminova tadqiqotlarida mamlakat sanoatini rivojlantirishda blokchain texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi, korxonalar kooperatsiyasida elektron savdo hamda elektron shartnomalarning ahamiyati to'g'risida izlanishlar olib borilgan. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro

iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Ma'lumki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot qo'shimcha qiymat yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida raqamli axborotlar ta'siri asosida kuzatilayotgan jarayonlar sanoat korxonalarini strategic rivojlanishida asosiy hal qiluvchi kuchga ega bo'lmoqda [1]. Iqtisodiyotni yangi texnologik bosqichga o'tishi bilan mamlakat ishlab chiqarish tuzilmalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkiliy-iqtisodiy ta'minoti, boshqaruv usullari zamonaviy yondashuvlarni shakllantirishga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish sharoitida sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va robotlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or usul va uslublarni joriy etish, uning raqamli intellektuallashuv darajasini oshirish jarayonlari jadal rivojlanmoqda. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuvlar qisqa vaqt ichida to'liq axborot almashinuvi, ishchilar va xodimlar sonini qisqartirish, ularning kompetentligini oshirish, moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari va robotlashtirish komplekslarini joriy etishga tayanadi. Buning uchun innovatsion, yuqori texnologik mahsulot chiqaruvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga e'tibor qaratilishi lozim. Zamonaviy sharoitlarda ishlab chiqarishni tashkil etishga mahsulot hayot siklini boshqarishni raqamlashtirish asosida zaruriy kompetentlikka ega bo'lgan yuqori malakali xodimlar (ishchilar) ning innovatsion mehnat vositalari va buyumlari bilan ma'lum bir muhitda hamda vaqtda samarali uyg'unlashtirish jarayoni sifatida qaraladi. Fikrimizcha, ishlab chiqarishni raqamlashtirishga korxonalarda eskirgan texnologiyalardan foydalanib kelayotganligi (64%) ma'lum bir tajriba, bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassislarni yetishmasligi (61%) mavjud va yangi texnologiyalar o'rtasida integratsion aloqalarni sustligi (62%) kabi omillar to'sqinlik qilmoqda. Ishlab chiqarishni raqamli transformatsiyasi sohasidagi tadqiqotlarning natijalariga ko'ra (ko'rsatishiga) raqamli texnologiyalar va boshqaruv usullaridan foydalanayotgan korxonalar o'z raqobatchilariga nisbatan 26% ga ko'proq foyda ko'rishar ekan. Raqamli texnologiyalarga yetarli darajada mablag' sarflagan xolda boshqaruvga kam e'tibor qaratayotgan korxonalarining moliyaviy natijalari 11% ga past, faqat boshqaruv jarayonini modernizatsiyalash hisobiga esa faqat 9% ga qo'shimcha daromad olish mumkin. Lekin bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni keng ko'lamda joriy etish jarayoni qoniqarli darajada emas. Bunga quyidagi holatlar to'sqinlik qilmoqda: - yangi iqtisodiy tartibni tartibga soluvchi qonunchilik bazasining yo'qligi yoki uning hozirgi bosqichda sodir bo'layotgan texnologik o'zgarishlarga mos kelmasligi; - yangi texnologiyalar, iqtisodiy munosabatlar ob'ektlari va sub'ektlari paydo bo'lishi, kapital shakliga aylangan ma'lumotlar hajmining tez o'sishi - malakali

kadrlar tayyorlashning yetarli darajada emasligi, inson kapitalining yetishmasligi; - katta hajmdagi ma'lumotlar katta miqdordagi axborot oqimlarini va ma'lumotlarni uzatish, qayta ishlash va saqlashda axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq xavflarni keltirib chiqaradi; - korxonada moliyaviy resurslarining yetishmasligi va sanoat sohasini raqamlashtirishga yo'naltirilgan loyixalar qiymatining yuqori ekanligi; - ayrim sanoat tarmoqlarining konservativ xarakteri. Raqamli texnologiyalarning keng ko'lamda qo'llanilishi korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratishini bilgan holda, ushbu jarayonlarga kam e'tibor qaratilmoqda. Korxonada biznes jarayonlari va yangi texnologiyalarni boshqarishga samarali yondashuvni ishlab chiqish oson ish emas. Sanoat korxonasi rivojlanishini ta'minlash uchun boshqaruvning innovatsion nazariyalari va metodologiyalarini qo'llash talab etiladi. Korxonada sodir bo'layotgan jarayonlar rahbariyat, jarayon egalari va biznes jarayonlarini amalga oshirishni ta'minlovchi xodimlardan doimiy e'tiborni talab qiladi. Jarayonlarni takomillashtirish va optimallashtirish jarayonida jarayon yondashuvini amalga oshirish natijasida erishilgan samaradorlik va taraqqiyot darajasini saqlab qolish zarur. Raqamli iqtisodiyotning zamonaviy usuli korxonalarni boshqarishning yangi avlodi kontsepsiyalarini ishlab chiqish bilan tavsiflanadi. Ushbu konsepsiyalar sanoat robotlari, boshqaruvsiz transport, raqamli boshqaruv dasturlari asosida ishlaydigan jihozlarni qo'llash, 3D printerlarni qo'llash, katta hajmdagi ma'lumotlarni bulutli texnologiyalarda saqlash, sun'iy intellekt, sanoat buyumlari interneti (Internet of Things, IoT), blokcheyn innovatsiyasi, imitatsion va matematik modellashtirish va prognozlashtirish, kiber xavfsizlik kabi jarayonlar bilan xarakterlanadi. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy qilishni takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlarini (algoritmini) taklif qilinadi: Yo'l xaritasini shakllantirishda moddiy-texnik salohiyat darajasini va uni modernizatsiya qilish zaruratini, shuningdek, korxonaning kadrlar salohiyati darajasini va tashkilot xodimlarining malakasi va motivatsiyasi darajasini oshirish zarurligini hisobga olish kerak. Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ishlab chiqarishni tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish to'g'risidagi qaror butun korxonada faoliyatiga ta'sir qiladi va bunda bilan yuzaga kelish mumkin bo'lgan xavflarni hisobga olish kerak. Faqat istiqbolli texnologiyalarni, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini puxta rejalashtirish va har tomonlama o'rganish bilangina istalgan samarani olish mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish sharoitida korxonada boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Raqamli axborot texnologiyalaridan foydalangan holda moslashuvchan tashkiliy tuzilmalarni yaratish mumkin. Raqamlashtirish davrida sanoat korxonasi faoliyatini tashkil etish va boshqarish tashkilot rahbariga ham menejment, ham ishlab chiqarish texnologiyalari, ham IT texnologiyalari sohasida kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga bo'lgan talablarni qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov S. S, Abdullayev Yo., Menejment, Toshkent-2002[1].
2. M.Sharifxo'jayev, Y.Abdullayev. Menejment. Darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2001[2]
3. D.S. Qosimova. Menejment nazariyasi. Darslik. - Toshkent, «Tafakkurbo'stoni». 2011.[3]
4. M.B.Bekmuradov., X.X.Shodiyev. "Menejment nazariyasi va amaliyoti". Magistrlar uchun o'quv qo'llanma. Toshkent - 2021 y. "Zamon poligraf" OK nashriyoti.[4]

ТО‘QIMACHILIK SANOATIDA MATOLARNI BO‘YOQLASHDA BO‘YOQ SARFINI ROSTLASHNI AVTOMATLASHITIRSH

Andijon Mashinasozlik instituti
Dadaxo‘jayeva Muslima Xurmatillo qizi
Muslimaxodjayeva510@gamil.com
+998881412122
Ilmiy rahbar: Sultonov Ildarbek

Annotatsiya: Ushbu maqola to‘qimachilik sanoatida, avtomatlashtirishga oid bo‘lib, quyidagilar misollar orqali izohlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 fevraldagi —To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-4186-sonli Qarori qabul qilingani ushbu sohani yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Respublika to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yuqori va barqaror o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o‘zlashtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish, modernizatsiya qilishning strategik muhim ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarini amalga oshirish hisobiga yuqori texnologiyali yangi ish o‘rinlarini yaratish, korxonalarini texnik va texnologik yangilash, ilg‘or «klaster modeli»ni joriy etishga qaratilgan tarkibiy qayta tashkil etishni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, mexanizm, iqtisodiyot, paxta, kanob, paxta tolasini, mahsulot sifati.

Shu bilan birga, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlanishining har tomonlama tahlili, raqobatning kuchayishi sharoitida jahon bozorining o‘zgaruvchan kon‘yunkturasi sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, yanada barqaror va jadal rivojlanishi mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz mustaqillik yillarida aholi ehtiyojini sifatli mollarga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida respublikamizga juda ko‘plab chet el texnologiyalari kirib kela boshladi. Shu bilan bir qatorda qo‘shma korxonalar soni yildan-yilga ortib ketishi kuzatilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy e‘tibor sifatga qaratish joizdir. O‘zbekiston Respublikasining asosiy boyliklaridan biri bu paxta tolasidir. Paxta tolasidan juda ko‘plab turli tuman gazlamalar, texnik maqsadlarda ishlatiladigan mahsulotlar ishlab chiqariladi. Keyingi paytlarda hukumatimiz oldida aholini o‘zimizda ishlab chiqarilayotgan sifatli tayyor mahsulotlar bilan ta‘minlash masalasi ko‘ndalang turibdi. Uning uchun respublikamizda zamonaviy texnologiyalarni kiritish, qo‘shma korxonalar sonini ko‘paytirish talab

etadi. Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida mavjud bo'lgan barcha turdagi sanoat korxonalarining rivojlanishi iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga olib keladi. Ya'ni, bozorlarimizni yuqori sifatli, takomillashgan texnologiya va mahsulotlar bilan to'ldirish, iqtisodimizning gullab yashnashining yagona shartidir. Respublikamiz oldida turgan asosiy masalalardan biri-ichki bozorlarimizni sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish va jahon bozorlarida raqobat qila oladigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Mamlakatimizdagi barcha turdagi sanoat korxonalarida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, hamda jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish uchun birinchi navbatda korxonalarda mavjud bo'lgan eski asbob-uskunalarning o'rniga 4 zamonaviy bo'lgan xorijiy davlatlarning asbob-uskunalari bilan jihozlash, ishlab chiqarishda idishlarga joylashtirish, saqlash va transportda tashish davrida, hamda ulardan samarali foydalanishda qo'yilgan talablarga rioya qilish, mahsulot sifatini barqarorligini ta'minlash lozim bo'ladi. Shu bilan birgalikda davlatlar orasida iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalarni rivojlantirish va tiklash, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan standartlarni uyg'unlashtirishdir. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning eksport salohiyatini oshirib borish natijasida uning ishlab chiqarish darajasining yaxshilanishiga olib keladi. Mahsulot sifatidan davlatning texnik takomillashgani va rivojlanganligiga baho bersa bo'ladi. Respublikada iqtisodni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri, mahsulot sifatini sistemativ ravishda oshirib borishdir. Mahsulot sifatini oshirish, assortimentlarini kengaytirish va iste'molchilar talabini qondirish hozirgi bozor iqtisodiyotining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mahsulot sifat darajasini ta'minlash uchun standartlar va texnik shartlarning me'yoriy talablariga bog'liq holda sistemativ nazorat ishlarini olib borish lozimdir.

Har bir yo'nalish, har bir sanoat korxonalari ishlab chiqarishdagi yangilanishning aniq yo'lga ega bo'lishi lozim. Mahsulot sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarish, mahsulotni dunyo bozorlariga chiqarishni ta'minlaydi. Istalgan mahsulot sifatini, ya'ni shu qatori to'qimachilik materiallarini baholash uchun materiallarning ratsional qayta ishlanishi va qo'llanilish imkoniyatlarini aniqlashda muhim xossalarga me'yoriy talablarni asoslashdir. Mahsulot sifatini baholash natijalari nafaqat jami xossalari darajasiga va etarli o'lchashdagi aniqligiga, balki bu xossalarga bo'lgan talab darajasiga bog'liq. Yuqori sifatli mahsulotni yaratish, ta'minlash va rejalashtirish zamonaviy baholash uslublari va sifat ko'rsatkichlarining standartlari bo'yicha bilimni talab etadi. Ushbu darslikning asosiy maqsadi, kerakli ma'lumotlarni berish va amaliyotda uslublarning qo'llanilishini ko'rsatishdir. «Materiyalshunoslik» o'quv qo'llanmasi namunaviy dasturi asosida yozilgan bo'lib, oily ta'lim muassasalari uchu talabalari va shu soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan bolib, unda rning olinishi, tuzilishi va xossalari, tikuvchilik materiallarining sifatini baholash uslublari, tikuvchilik materiallarining tuzilishi va sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda ishlatiladigan

asbob-uskunalar, tikuvchilik materiallarining assortimenti hamda boshqa kiyimlik materiallar bilan tanishadilar. Ishlab chiqarilayotgan kiyimlarning asosiy bir funksiyalari ichidan bir qanchasi insonlarning salomatligini saqlash uchun bo'lib, ularning ishga qobiliyatligi va ishlab chiqarish samaradorligini yuqori bo'lishiga olib keladi, ya'ni inson tanasidagi haroratning birxilligini ushlab turish maqsadida inson organizmining tashqi muhit bilan issiqlik almashuvini ta'minlashdan iboratdir. Insonlar hayotchanlik faoliyatida ko'pgina sharoitlarga moslashadi, ya'ni haroratning sovishi yoki isib ketishi natijasida potensial xavfsizliklarga uchrab turadi. Shu sababli, insonlar tanasidagi issiqlik haroratini bir xilda ushlab turish uchun kiyimlardan va uylardan foydalaniladi. Kiyimlar o'zlarining himoya samarasini yaxshilash uchun ularni ishlab chiqarish paytida gigienik talablarga, ya'ni materiallarga qo'yiladigan talablar va ularning konstruksiyasiga, insonlarning mehnat faoliyatlarini susaytirmaslik va sog'ligini saqlash xossalariga javob berishi kerak bo'ladi. Kiyimlarga qo'yiladigan gigienik talablar inson organizmining tashqi muhit bilan issiqlik va gaz almashuvini, tana va teri haroratining normal darajasini, terining namligi va nafas olishini ta'minlashga qaratilgan. Bu talablar kiyim uchun suv o'tkazuvchanlik, issiqlikni saqlash xususiyati, havo o'tkazuvchanlik, bug' o'tkazuvchanlik, gigroskopiklik, harorat qarshiligi kabi optimal ko'rsatkichlariga ega bo'lgan materiallarni ishlatishda inson talablarini qondirilishini ta'minlash zarur. Kiyim materiallari va kiyimning o'ziga qo'yiladigan gigienik talablar inson hayot faoliyati sharoitlariga va tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liq holda differensiyalanadi. Hozirgi kunda kiyimni loyihalash va ishlab chiqarishda iqlim sharoitlarni inobatga olinadi.

Kiyimlarni ishlab chiqarish paytida ularning gigienik talablarga javob berishi, inson organizmidagi issiqlikni birxillikda bo'lishini ta'minlashi va turli ishlab chiqarish omillaridan himoya qilinishi lozim bo'ladi. Lekin, bu ancha murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki, tashqi muhitning har qanday, ayniqsa issiq sharoitlarida inson organizmidan terini chiqishi, tashqi muhitdan ifloslanishi mumkin. Material xossalarining noquyulay samarasi, insonlarning tashqi muhit bilan namlik almashuvchanligi yomonlashadi, masalan, kiyimlarning ratsional konstruksiyasi, kiyim osti muhitida shamolatishni ta'minlash uchun etarli darajada konstruksiyaga ega bo'lmasligi (organizmdagi haroratni bir xilda ushlab turishi), maxsus tizimning (qizdiruvchi yoki sovutuvchi) qo'llanilishi hisoblanadi. Kiyimlarni yaratishda yuqorida aytilganlardan kelib chiqqan holda, ularning gigienik talablarga javob berishi fan, texnika va ishlab chiqarish (tibbiyot, kimyo, issiqlik fizikasi, matematik modellashtirish, materialshunoslik, tikuv buyumlarini konstruksiyasi va texnologiyasi, tikuvchilik sanoatini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish) da qo'llanilishi natijasida kelib chiqadi.

Texnikaviy talablar - tikuvchilik materiallarining sifatiga va kiyimlar tayyorlashga qo'yiladigan talablar. Tikuvchilik materiallari va tayyor tikuvchilik buyumlari Davlat standartiga mos kelishi shart. Estetik talablar esa moda bilan bog'liq. Iqtisodiy talablar kiyimning narxi bilan belgilanadi. To'qimachilik sanoatida ishlatiladigan va ishlab chiqariladigan, materiallarning kimyoviy tarkibi, tuzilishi, olinishi va ishlatilishi bo'yicha uchta bo'limga bo'linadi. To'qimachilik tolalari va iplari tasnifining tuzilishi ikki prinsipiga asoslangan: tabiiy materiallar uchun ularning kelib chiqishi, kimyoviy materiallar uchun-ularni tashkil etuvchi kimyoviy moddalarning tarkibi. Dastlabki tola va iplar tabiiy va kimyoviy sinflarga, shuningdek, bu tola, iplar organik va noorganik kichik sinfga bo'linadi. Tabiiy tolalarga tabiatdagi organik va noorganik moddalardan olinuvchi to'qimachilik tolalari kiradi. Tola deb, uzunligi ko'ndalang kesimi o'lchamidan katta bo'lgan, ma'lum darajada egiluvchan, cho'zilish va pishiqlik xossasiga hamda ingichkalikka ega bo'lgan jism tushuniladi. Tolalar to'qimachilik tarmog'ining xom ashyosi bo'lgani uchun, ko'p hollarda to'qimachilik tolalari deb yuritiladi. Aytilganlarni inobatga olib, tolaga quyidagicha ta'rif beriladi: to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga yaroqli, chegaralangan uzunlikdagi, yumshoq, ingichka va ma'lum qayishqoqlik, pishiqlik, cho'ziluvanlik xususiyatlariga ega bo'lgan jismga aytiladi. Tolalar tashqi tuzilishiga ko'ra elementar va kompleks tolalarga bo'linadi: uzunligi bo'yicha bo'linmaydigan yakka tolalar elementar tolalar 8 deb ataladi. Uzunligi bo'yicha bir qancha elementar tolalarning birikmasiga kompleks tola deyiladi. Tolalar kelib chiqishiga qarab tabiiy va kimyoviy tolalarga bo'linadi: tabiatdagi o'simliklardan (paxta, zig'ir, kanop va hokazolar), jonivorlardan (jun, ipak) va ma'danlardan (tosh paxta) olinadigan tolalar tabiiy tolalar deyiladi. Tabiatdagi mavjud bo'lgan moddalarni yoki yuqori molekulyar birikmalarni sintez qilish asosida olingan tolalar kimyoviy tolalar deyiladi.

Kimyoviy tolalar ham o'z navbatida ikki turga bo'linadi: sun'iy tolalar va sintetik tolalar: tabiatdagi mavjud bo'lgan moddalarni kimyoviy usul bilan qayta ishlash asosida olinadigan tolalar sun'iy tolalar deyiladi. Yuqori molekulyar birikmalarni kimyoviy usul, bilan sintez qilish asosida olinadigan tolalar sintetik tolalar deyiladi. To'qimachilik sanoatida ishlatiladigan tolalarni mukammal o'zlashtirish uchun, uning tasniflanishi nihoyatda katta ahamiyatga ega. 1-grafikdan ko'rinib turibdiki, tolalar ikki sinfga bo'linadi - tabiiy va kimyoviy tolalar. Har ikki sinf ham ikkitadan kichik sinflarga bo'linadi - organik va anorganik sinflarga. Tabiiy tolalarning organik kichik sinfiga kiruvchi tolalar ikkita guruhga -o'simliklardan va jonivorlardan olinuvchi tolalarga, anorganik kichik sinfiga kiruvchisi fakatgina bitta guruhga bo'linadi. O'simliklardan olinuvchi tolalar uchta guruhchaga bo'linadi-urug'idan, poyasidan va bargidan olinuvchi. Jonivorlardan olinuvchi tolalar ikkita guruhchaga bo'linadi - teri ustidagi jun qatlamidan olinuvchi va tola ajratuvchi bezlardan ishlab chiqariluvchi. Tabiiy tolalarning urug'idan olinuvchi guruhchasiga paxta tolasini, poyasidan olinuvchi

guruhchasiga - kanop, zig'ir, kunjut va penka tolalari, bargidan olinuvchi guruhchasiga - sizal, manilla, geneken tolalari kiradi. Teri ustidagi jun qatlami guruhchasiga kiruvchi tolalarga tuya, echki, qo'y junlari, tola ishlab chiqaruvchi guruhchasiga kiruvchi tolalarga ipak qurti ipagi kiradi.

Toqimachilik sanoatida matolarni b'yoqlashda b'yoq sarfini roslashni avtomatlashitirish, avtomatlashtirilgan b'yoqlash tizimlarining foydalantuvchilarga xavfsiz, samarali va tezlik bilan ishlashini ta'minlashni maqsad qiladi. Avtomatlashtirilgan b'yoqlash tizimlari b'yoq sarfini optimallashtirishda bir nechta vositalardan foydalanadi. Masalan, ma'lumotlarni to'plash, analiz qilish va maqbul natijalarni chiqarish uchun yuqori darajada avtomatlashtirilgan algoritmalardan foydalanish mumkin. Bu tizimlar matolarni b'yoqlash jarayonini monitorlash, b'yoqlashga zarar yetkazishdan oldin operativ qaror qabul qilish, taqsimlash va b'yoqlashni rejalashtirishga yordam beradi. Bunday tizimlar statistik ma'lumotlarni ham rejalashtirishda qo'llanadi, bu esa b'yoqlash samarasini oshirishga yordam beradi. Avtomatlashtirilgan b'yoqlash tizimlari epoxa bo'ylab b'yoqlash sohida katta sog'liq vaqt va moliya sarflarini kamaytirib kelmoqda. Ushbu texnologiyalar b'yoqlash sanoati rivojigacha, innovatsiyalar va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda ahamiyatli o'rin tutadi. Matolarni b'yoqlashda b'yoq sarfini roslashni avtomatlashitirish imkoniyatlarining rivojlanishi sanoat tashkilotlariga samarali va tez ish olib bormoqda va joriy sanoat axborot texnologiyalari va avtomatlashtirishni qo'llash hamda yangi texnologiyalar bilan tanishish muhimdir.

АДАБИЙОТЛАР РО'УХАТИ:

1. Кирюхин С.М., Шустов Ю.С. Текстильное материаловедение. Москва «КолосС», 2011.
2. Шустов Ю.С. и др. Текстильное материаловедение лабораторный практикум. Учебное пособие., Москва, ИНФРА-М, 2016.
3. Ochilov T.A., Matmusayev U.M., Qulmyetov M.Q.. To'qimachilik matyeriallarini sinash. Toshkyent: «O'zbyekiston», 2004.
4. Ochilov T.A., Qulmyetov M., Hamroyeva S.A., Usmonova SH.A., Toyirova T.A., Muxtarov J.R., To'raqulov B.T. To'qimachilik matyerialshunosligi. Toshkyent: —Adabiyot uchqunlaril, 2018.
5. Abbasova N.G va boshqalar. «Yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi». I-qism. Darslik-T.: Aloqachi, 2005. -283 bet.
6. Бузов Б.А., Алыменкова Н.Д. Материаловедение в производстве изделий легкой промышленности (швеное производство). М.: АСАДЕМА2004.
7. Кукин Г.Н., Соловьев А.Н. «Текстильное материаловедение» М., 1987, 1989 (I, II части).
8. Кобляков А.Н. и др. «Лабораторный практикум по текстильному

материаловедению» М., 1986.

9. Matmusaev U.M. va boshqalar. «To'qimachilik materialshunosligi» Iqism. «O'zbekiston», 2005y.

10. Соловьев А.Н., Кирюхин С.М. Оценка качества и стандартизация текстильных материалов. М.: Легкая индустрия, 1984, 238 с.

11. Грачев М.В. и др. Качество продукции стандартизация в текстильной промышленности. М., 1985.

12. РД Уз 51-062-97 НСС Уз. Порядок подготовки и проведения сертификации. Общие требования.

13. O'z DST 16.10:2007. «Mahsulotni sertifikatlashtirish idoralariga quyiladigan talablar». O'zstandart agentligi, T.-2007.

14. O'z DST ISO 9001:2002. Системы качества. Модель для обеспечения качества при проектировании, разработке, производстве, монтаже и обслуживании.

15. O'z DST ISO 9002:2002. Системы качества. Модель для обеспечения качества при производстве, монтаже и обслуживании.

16. O'z DST ISO 9003:2002. Системы качества. Модель для обеспечения качества при окончательном контроле и испытаниях.

17. O'z DST 16.10:2007. «Mahsulotni sertifikatlashtirish idoralariga quyiladigan talablar». O'zstandart agentligi, T.-2007.

ТО‘QIMACHILIK SANOATIDA MATOLAR TAHLILI BILAN TANISHISH

Andijon Mashinasozlik instituti
Dadaxo‘jayeva Muslima Xurmatillo qizi
Muslimaxodjayeva510@gamil.com
+998881412122

Annotatsiya: Ushbu maqola tikuvchilik materiallarining ishlab chiqishi bo‘g‘inini yoritib, tikuvchilik materiallari suyuqlik, gaz yoki bug‘ holatida bo‘lgan har xil moddalarni shimish qobiliyatiga ega. Bu holda materiallarning massasi, o‘lchovlari, mustahkamligi, bikrligi va boshqa xususiyatlari o‘zgaradi. Tikuvchilik materiallaridan olingan buyumlarni ishlab chiqarish va ishlatish paytlarida ular doim suv yoki bug‘ ta‘sirida bo‘ladilar. Materiallarning suv yoki bug‘ni shimish qobiliyatini tavsiflovchi bir necha xususiyatlari bor. Bularga materiallarning namligi gigroskopikligi, suv shimdiruvchanligi (kapillyarligi), suvni yutishi va hokazolar kiradi.

Kalit so‘zlar: material, moddalar, suv yutish, ROTARY CROCKMETER, . Elektrlanuvchanlik, koeffisient, Tovlanuvchanlik.

Issiqni saqlash xususiyatlari Materiallarga issiqlik energiyasi ta‘sir etganda ularda bir qator xususiyatlar yuz beradi: issiqni o‘tkazish qobiliyati, issiqni yutish qobiliyati, issiqlik ta‘sirida o‘z xususiyatlarini o‘zgartirish yoki saqlash qobiliyati. Issiqni o‘tkazuvchanlik λ (m K BT ·) - bu qattiq jismlar qo‘zg‘almas suyuqliklar va gazlarning turli haroratdagi qismlar orasidagi issiqni o‘tkazish jarayoni. Uni baholash uchun issiqni o‘tkazuvchanlik koeffisienti ishlatiladi. Bu koeffisient bir soat ichida qalinligi bir metr hamda o‘ng va teskari tomonlarining harorat farqi bir gradusga teng bo‘lgan materialning bir kvadrat metrli yuzasidan o‘tgan issiqlik miqdorini ko‘rsatadi: Materiallarning issiqni saqlash xususiyati R (m² ·K/Vt), issiqni o‘tkazishga qarshiligi bilan ifodalaniladi: $\lambda \delta R =$, (20) bu yerda: δ -namunaning qalinligi,m; λ -issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffisienti, m² ·K/Vt. Materiallarning qalinligi qancha katta bo‘lsa, issiqni saqlash xususiyati ham shuncha yaxshi bo‘ladi. Shu sababli issiqni saqlaydigan kiyimlar ko‘p qavatli qilib tikiladi. Agar materiallarning zichligi kam bo‘lsa, havo o‘tkazuvchanligi oshadi, issiqni saqlash xususiyatlari esa yomonlashadi. 3 1 2 4 110 Materiallarning issiqni yutish xususiyatini solishtirma issiqlik sig‘imi tavsiflaydi. Solishtirma issiqlik sig‘imi S (кг К Дж ·) massasi 1 kg ga teng bo‘lgan Materialning haroratini bir darajaga oshirish uchun sarflangan issiqlik miqdorini ko‘rsatadi: [()] m T T₀ Q C k – = (21) bu yerda: Q - issiqlik miqdori, Dj; m - namunaning massasi, kg; T₀ - namunaning dastlabki harorati, 0 S; T_k - namunaning oxirgi harorati, 0 S. Materiallarning o‘z haroratini bir tekis qila olish, harorat katta bo‘lgan qismlaridan

harorati past bo'lgan qismlarga uzatish qobiliyati haroratni kuzatib qo'yish koeffitsenti a (cm^2) bilan ifodalaniladi: $\rho \lambda C a =$, (22) bu yerda: λ - issiqni o'tkazuvchanlik koeffitsenti, $\text{Wt/m}\cdot\text{K}$; S -solishtirma issiqlik sig'imi, $\text{kg K Дж} \cdot$; ρ -materialning solishtirma massasi, kg m^3 . Optik xossalari Tikuvchilik materiallarining optik xossalari ularning yorug'lik oqimini miqdor va sifat jihatidan o'zgartirish qobiliyatiga bog'liq. Kiyim modelini tanlash, buyumning g'ijimlanuvchanligi, hajmi, o'lchovi va mutanosibligining ko'z bilan idrok etilishi materiallarning optik xususiyatlariga bog'liq. Materialga tushgan yorug'lik oqimining (R) bir qismi qaytariladi ($R\rho$), ikkinchi qismi yutiladi ($R\alpha$), uchinchi qismi materialdan o'tadi ($R\tau$). Bu holat quyidagi koeffitsentlar yordamida ifodalaniladi: 1. Yorug'lik oqimini qaytarish koeffitsenti: $P P\rho$
 $\rho =$ (23) 2. Yorug'lik oqimini yutish koeffitsenti: $P P\alpha \alpha =$ (24) 3. Yorug'lik oqimini o'tkazish koeffitsenti: $P P\tau \tau =$ (25) Asosiy optik xususiyatlar jumlasiga materiallarning rangi, tovlanuvchanligi, oppoqligi, tiniqligi kiradi. Rang - Materiallar yorug'lik oqimini to'liq ravishda yoki tanlab yutishi mumkin. To'liq yutishda yorug'lik oqimining turli xil uzunlikdagi to'lqinlari 111 yutiladi.

Tanlab yutishda faqat ma'lum uzunlikdagi to'lqinlar yutiladi. Agar materiallar yorug'lik oqimini to'liq yutsa yoki qaytarsa axromatik ranglar hosil bo'ladi. Axromatik ranglarga oq, qora va turli xil tusalardagi kulrang kiradi. Agar material yorug'lik oqimini to'liq yutsa qora rang, to'liq qaytarsa-oq rang hosil bo'ladi. Agar yorug'lik oqimi qisman yutilsa-kulrang hosil bo'ladi. Axromatik ranglar yorug'lik oqimini qaytarish koeffitsenti orqali baholanadi. Agar material yorug'lik oqimidagi nurlarni tanlab yusa, xromatik ranglar hosil bo'ladi. Bu ranglarga axromatik ranglardan boshqa barcha ranglar kiradi. Xromatik ranglarning tabiiy darajasi qilib spektr ranglarini olish mumkin. Xromatik ranglar sovuq va issiq ranglarga shartli ravishda bo'linadi. Sariq, qizil, to'q sariq ranglar quyosh nuri, olov issig'i haqida tasavvur berganlari uchun issiq ranglarga kiradi. Ko'k, binafsharang, zangori, yashil ranglar ko'kat, suv, osmon ranglarini eslatganligi uchun sovuq ranglarga kiradi. Oq va issiq ranglar materiallar sirtining afzalligini, modelning tuzilishini oshkor qiladi, inson tanasi o'lchamini kattalashtiradi. To'q va sovuq ranglar esa aksincha, material sirti ko'rinishini va inson tanasi o'lchamini yashiradi. Och va issiq ranglardan tayyorlangan buyumlarning ustida hamma kamchiliklari va nuqsonlari ochiq ko'rinishda turadi. Yozgi kiyimlar uchun sovuq rangli materiallarni, qishki kiyimlar uchun esa issiq rangli materiallarni ishlatish kerak. Materiallarning bo'yoq mustahkamligi M231/PR1-3 Aatcc perspiration tester va M238E AATCC ROTARY CROCKMETER asboblari yordamida aniqlanadi.

Tovlanuvchanlik. Bu insonning ko'zgudek qaytarilgan va tarqatilgan nurlardan iborat bo'lgan yorug'lik oqimini tasavvur qilishi. Bu yorug'lik oqimida ko'zgudek qaytarilgan nurlar qismi qancha ko'p bo'lsa, materiallarning tovlanuvchanligi ham shuncha katta bo'ladi. Binobarin, materiallarning tovlanuvchanligi ularni hosil qiluvchi tolalar va iplarning tovlanuvchanligiga, 112 ularning tuzilishiga va

joylashishiga, hamda materiallarning sirt ko'rinishiga bog'liq. Materiallarning tovlanuvchanligi FB-2 markali fotoelektr tovlanuvchanlikni o'lchovchi asbobda aniqlanadi. Oppoqlik - materialning rangi va benuqson oq sirt rangi orasidagi umumiylik darajasini ko'rsatadi. Materiallarning oppoqligini elektron komparator EKS-1 yoki fotoelektr FB-2 asboblarda aniqlash mumkin. Tiniqlik - materiallar orqali yorug'lik oqimi o'tishini his qilish bilan bog'liq bo'lib, materialning tolaviy tarkibi va tuzilishiga bog'liq. Materialning zichligi va qalinligi oshishi bilan uning tiniqligi pasayadi. Elektrlanuvchanlik - bu materiallarning ma'lum sharoitlarda o'z sirtiga statik elektr zaryadlarini to'plash xususiyati.

Tayyorlash va foydalanish jarayonlarida trikotaj materiallari albatta boshqa jism sirtlariga tegadi va ishqalanadi. Natijada, ularning sirtida birdaniga ikkita jarayon o'tib boradi: zaryadlar uzluksiz to'planadi va tarqaladi. Bu ikkala jarayonlar orasidagi muvozanat buzilsa, Materiallarning elektrlanishi ayon bo'ladi. Materiallarning elektrlanuvchanligi zaryadning kattaligi va ishorasi (musbat yoki manfiy) bilan tavsiflanadi. Zaryadlarni to'plash jarayoni tarqalish jarayoni bilan birgalikda o'tgani tufayli materiallar elektrlanuvchanligining asosiy tavsifi bu ularning solishtirma elektr qarshiligidir. Materiallarning elektrlanuvchanligi ularni hosil qiluvchi tolalarning kimyoviy tuzilishi va gigroskopliligiga, atrofdagi havo namligiga, o'rilishiga bog'liq bo'ladi. Ko'pincha materiallarning elektrlanuvchanligi-bu salbiy xususiyat. U materiallar va buyumlarni tayyorlash jarayonini qiyinlashtiradi. Kiyib yurganda esa kiyim tez kir bo'ladi, badanga yopishadi va odam o'zini noqulay his qiladi. Inson terisiga tegib turganda materiallarning musbat zaryadli elektr maydoni odamning asab, yuraktomir turkumiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Manfiy zaryadlangan elektr maydoni esa foydali ta'sir ko'rsatadi, revmatizm kabi kasalliklarni davolashda yordam beradi. Materiallarning elektrlanuvchanligini kamaytirish uchun elektrlanishga qarshilik ko'rsatuvchi maxsus moddalar (antistatiklar) bilan ishlov beriladi yoki tolalar aralashmasini tayyorlaganda bir-birini neytrallaydigan tolalar tanlanadi.

Yuvilganda, ho'llanganda, ho'llab dazmollanganda, nisbiy namligi katta bo'lgan havoda saqlanganda materiallarning o'lchovlari o'zgaradi. Ana shunday o'lchovlarning o'zgarishi materiallarning kirishishi deb ataladi. Bu jarayonda ko'pincha materiallarning o'lchovlari kichrayadi. Bu holdagi kirishish musbat kirishish deb ataladi. Ayrim materiallarning o'lchovlari oshadi. Shunday kirishish manfiy kirishish deb ataladi. To'quvchilikda materiallarga namlab-isitib ishlov bergan paytda ham uning o'lchovlari kichrayadi (kirishtirib dazmollash jarayoni) yoki oshadi (cho'zib dazmollash jarayoni). Namlab isitib ishlov bergandagi kirishish majburiy-kirishish deb ataladi. Majburiy kirishtirish yordamida to'quvchilik buyumlariga ma'lum kerakli shakl beriladi. Majburiy kirishtirish yordamida to'quvchilik buyumlariga ma'lum kerakli shakl beriladi. Majburiy kirishtirishdan boshqa kirishishlar Materiallarning salbiy ko'rsatkichlaridir. Materiallarning kirishishi

natijasida ulardan tikilgan buyum va buyum qismlarining kichrayishi va shakli buzilishi mumkin. Agar buyumning asosiy materiali, astari va qatlami turlicha kirishsa, kiyimning tashqi ko'rinishi yomonlashadi, unda g'ijimlar va burmalar paydo bo'ladi. Kirishishiga ko'ra to'quvchilik materiallari uchta guruhga bo'linadi.

Materiallar kirishishini aniqlash usullarining asoslari quyidagicha. Ma'lum o'lchovda qirqilgan namunada nazorat qilinadigan ma'lum miqdordagi masofa belgilan-gandan keyin u ho'llanadi yoki yuviladi. quritilgandan keyin nazorat qilinadigan masofa o'lchanadi. Yuvish ikki marotaba amalga oshiriladi. Keyin, namuna sentrafugada 1 min davomida siqiladi va quritish kamerasiga solinadi. quritish kamerasidagi harorat 55 ± 100 S bo'ladi. Quritilgan namuna 20s davomida 90 ± 150 S haroratda siqiladisun'iy va sintetik iplardan olingan mato uchun; paxta va zig'ir iplaridan olingan material uchun esa harorat 180 ± 200 S. Siqilgan namuna 2 soat davomida GOST 8844-75 standarti bo'yicha belgilangan sharoitda ushlab turiladi va belgilar orasidagi masofa o'lchanib, namunaning kirishishi aniqlanadi. Kirishish uzunligi Ku va eni Ke va haqiqiy Kh bo'lishi mumkin. Kirishish namunaning boshlang'ich o'lchamlariga asosan foizlarda ifodalanadi. 1 1 2 100 y y y y L L L K – = . ; (26) 1 1 2 100 э э э э L L L K – = . ; (27) 1 1 2 100 S S S Ks – = . ; (28) 1 1 2 100 V V V Kx – = . (29)

Materialning suv o'tishiga qarshiligi- materiallarning o'zidan suv o'tishiga qarshilik ko'rsatish qobiliyati. Bu xususiyatni —penetrometr nomli asbobda aniqlash mumkin. Materialdan qirqilgan namuna 2 silindr 3 ustiga mahkamlanadi. Silindrga boshqa idish 1 dan suv kelib turadi va materialning pastki tomoniga ta'sir etadi. Suv bosimi asta-sekin osha boradi. Manometr 4 bosim miqdorini ko'rsatib turadi. Ma'lum bosimda suv materialdan o'tadi. Namunaning yuzasida uchta tomchi paydo bo'lgandagi bosim shu materialning suv o'tishiga qarshiligini ko'rsatadi.

Tolalar o'ramasini qavish usulida olinuvchi noto'qima matolar, o'zining tolali tarkibiga ko'ra ikki xil bo'lib, ulardan birinchisi bir xil turdagi tolalardir. Bir xil tolalardan ishlab chiqariladigan noto'qima matolar asosan tarkibi faqat paxtadan, viskozadan yoki jun kabi shunga o'xshash tolalarning o'zidangina ishlab chiqariladi. Agar tarkibi ikki yoki undan ortiq bo'lgan turdagi tolalardan olingan o'ramidan ishlab chiqarilgan noto'qima matolarga aytiladi. Bu holda tolalar aralashmasi paxta-viskoza-kapron; nitron-viskoza-jun; jun-viskoza-kapron; junlavsan-kapron va hokazo tariqasida bo'lishi mumkin. Tolalar o'ramasining to'qiladigan qismiga bo'ylamasiga to'qiluvchi trikotaj usulida to'qilib, sukno, triko, zanjir, atlas, sharme va ularning almashinishidan tashkil topgan o'rilishlar qo'llaniladi. Triko o'rilishida olingan noto'qima mato, o'zining fizik va mexanik xususiyatiga ko'ra ichki kiyimlar uchun qo'llaniluvchi trikotaj matolariga juda yaqindir. Tukli noto'qima matolar turiga kiruvchi «Malipol» asosan palto va shunga o'xshash ustki kiyimlar uchun ishlatiladi. Malipol noto'qima matosi xuddi sun'iy mo'ynaga o'xshaganligi uchun undan palto va

kurtkalar ishlab chiqarish mumkin. Buning uchun tuk hosil qiluvchi ip uchun turli yo'g'onlikdagi yaltiroq kimyoviy iplar qo'llanilishi mumkin. Ingichka kimyoviy ipning tuk hosil qilish uchun ishlatilishi, xuddi tabiiy mo'ynaning momiq qismini eslatadi. Yo'g'on kimyoviy iplar esa sun'iy mo'ynaning jun qismiga o'xshaydi. Bunday usulda olingan noto'qima mato tuklarining uzunligi 40 millimetrgacha bo'lishi mumkin. Tolalar o'ramasining qavish usuli bir necha qavat tolalar o'ramasini ustma-ust qo'yib 25 x 2 yoki 18,5 x 2 yo'g'onlikdagi iplar bilan triko o'rilish asosida qavish yo'li bilan ishlab chiqariladi. Tolali tarkibiga ko'ra vatinlar sof paxta va jun aralashganlarga bo'linadi. Sof paxtali vatinning sirt zichligi 250-325 g/m², eni 150 sm, qavigining zichligi bo'ylamasiga 12-14, eniga 5-6 halqalardan iborat. Bu sonlar odatdagidek 5 sm masofa uchun yuritiladi. Sof toladan ishlab chiqariluvchi vatinlarga past navli 93 paxta tolasi, to'qimachilik sanoati ishlab chiqarish korxonalarida hosil bo'lgan tolali chiqindilar qo'llaniladi. Yarim junli vatinga esa qayta tiklangan jun tolasi, jun tolasini qayta ishlovchi korxonalarining tolali chiqindilari, paxta va viskoza tolalari ishlatiladi. Bunday mato tarkibida jun 35-53 %ni tashkil qiladi. Noto'qima matolar ishlab chiqarish sanoatida tolalar o'ramasini qavish usulida olinuvchi vatin ham yaratilgan. Buning uchun paxta, viskoza va kapron tolalaridan o'rama tayyorlanib, unga yelimlovchi eritma singdiriladi. Bunday usulda olingan vatin o'zining tuzulishini yaxshiligi tufayli va tolalar o'ramasini qavib olingan vatinga nisbatan yaxshi saqlash qobiliyatiga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, yuqorida ko'rib o'tilganlardan quyidagi qisqacha xulosani chiqarish mumkin. Sanoatning turli sohalarida ip va ipsimon ashyolami o'rash, qayta o'rash va qaytarma o'rash jarayonlari qo'llaniladi va ularda tashish va keyingi beriladigan ishlov texnologik jarayonlari talablariga javob beradigan shakl va strukturalariga ega bo'lgan joylamalar hosil qilinadi. Buning uchun turli konstruksiyadagi mexanizmlar ishlatiladi va ular tuzilishi va ishlash xususiyatlariga ko'ra tasniflanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кирюхин С.М., Шустов Ю.С. Текстильное материаловедение. Москва «КолосС», 2011.
2. Шустов Ю.С. и др. Текстильное материаловедение лабораторный практикум. Учебное пособие., Москва, ИНФРА-М, 2016.
3. Ochilov T.A., Matmusayev U.M., Qulmyetov M.Q.. To'qimachilik materyallarini sinash. Toshkyent: «O'zbyekiston», 2004.
4. Ochilov T.A., Qulmyetov M., Hamroyeva S.A., Usmonova SH.A., Toyirova T.A., Muxtarov J.R., To'raqulov B.T. To'qimachilik materyalshunosligi. Toshkyent: —Adabiyot uchqunlaril, 2018.
5. Abbasova N.G va boshqalar. «Yengil sanoat mahsulotlari

- materialshunosligi». I-qism. Darslik-T.: Aloqachi, 2005. -283 bet.
- 6.Бузов Б.А., Алыменкова Н.Д. Материаловедение в производстве изделий легкой промышленности (швеное производство). М.: АСАДЕМА2004.
- 7.Кукин Г.Н., Соловьев А.Н. «Текстильное материаловедение» М., 1987, 1989 (I, II части).
- 8.Кобляков А.Н. и др. «Лабораторный практикум по текстильному материаловедению» М., 1986.
9. Matmusaev U.M. va boshqalar. «To'qimachilik materialshunosligi» Iqism. «O'zbekiston», 2005y.
- 10.Соловьев А.Н., Кирюхин С.М. Оценка качества и стандартизация текстильных материалов. М.: Легкая индустрия, 1984, 238 с.
- 11.Грачев М.В. и др. Качество продукции стандартизация в текстильной промышленности. М., 1985.
12. РД Уз 51-062-97 НСС Уз. Порядок подготовки и проведения сертификации. Общие требования.
13. O'z DST 16.10:2007. «Mahsulotni sertifikatlashtirish idoralariga quyiladigan talablar». O'zstandart agentligi, T.-2007.
- 14.O'z DST ISO 9001:2002. Системы качества. Мод

AVTOMATLASHTIRILGAN ISHCHI XODIMLARINING KORXONALARDAGI FAOLIYATI VA AVTOMATLASHTIRISH JARAYONLARI

Andijon mashinasozlik instituti
Hakimova Saboxat Dilmurodjon qizi
hakimovsobirbek@gmail.com
+998978359998
Ilmiy rahbar: Mamadaliyeva Nargiza

Annotatsiya: Ushbu maqola hodimlarni avtomatlashtirish faoliyatini aniq yoritib, avtomatlashtirish jarayonlarini ko'rsatib beruvchi ma'lumotlar bilan yozilgan. Fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi ommaviy ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va mahsulot sifati yaxshilanishining hal qiluvchi shartidir. Yangi zamonaviy texnika va texnologiyani, ishlab chiqarishni boshqarishning samarali tizimlarini ishlab chiqish ko'rsatib o'tilgan vazifani hal etadi. Shu bilan birga, amaliyotning ko'rsatishicha, turli xil masalalarni hal etishda yangi texnika imkoniyatlari va samaradorligining o'sishi bilan bir vaqtda uni loyihalash va tayyorlashga sarflanadigan moddiy va vaqt xarajatlari ortadi. Ishlab chiqishlarning vaqt bo'yicha cho'zilib ketishi ularning tez eskirishiga olib keladi.

Kalit so'zlar: Fan-texnika, MAICH, EHM, jihozlar, tizimi(ALT), TJABT, Kompressor; nasos; klapan; separator; sig'imlar tizimi; issiqlik almashtirgich; aralashtirish rezervuari.

MAICH ni yaratish va joriy qilishning asosiy konsepsiyalari. Birinchi muammo, hozirgi vaqtda joriy vazifalarning umuman uddasidan chiqib kelayotgan mashinalarning ancha katta miqdori ishlab turishi bilan bog'liq. Biroq qurilmalarning, mashinalarning, texnologik apparatlarning ko'p qismi MAICH da foydalanish uchun yaroqsiz, chunki ularda amaldagi jarayonlarni silliq o'zgartirish imkoniyatlari nazarda tutilmagan. Bu qurilmani almashtirishga to'g'ri keladi. Demak, ancha yo'qotishlar paydo bo'ladi. MAICH ni amalga oshiruvchi yangi qurilmani ishlab chiqishda barcha ishlab chiqarish vazifalari o'zaro bog'lanishda hisobga olinadigan tizimli yondashuv zarur. Bu yondashuvga asoslanib, asosiy vazifalar sifatida MAICH ni yaratishning quyidagi masalalarini ifodalash mumkin: sistemotexnik tahlil va ishlab chiqarishni umumiy tayyorlash, uning vazifalari to'plamini shakllantirish; qurilma, mashinalar, ishlab chiqarish imkoniyatlari keng bo'lgan apparatlar, jihozlarni va ishlab chiqarish xonalarini joylashtirishni rejalash; robotlashtirish, ortish-tushirish va transport tizimini ishlab chiqish; mikro va mini EHM bazasida va tegishli dasturli ta'minot asosida boshqarish tizimlarini ishlab chiqish; ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash

masalalarini hal qilish uchun avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarini ishlab chiqish; avtomatik diagnostika, funksiyalarni tiklash va MAICH ga xizmat qilish tizimlarini ishlab chiqish. Texnik tahlil tizimlari bosqichida, dast avval, avtomatlashtirilayotgan ishlab chiqarishning, ayniqsa, chiqarilayotgan mahsulotning xarakteri, uning komponent tarkibiga ko'ra o'zgarish dinamikasi va darajasi tahlil qilinadi. Odamlarning jismoniy mehnat bilan bandligi haqidagi, qurilmalardan foydalanishning mavjud va istalgan koeffltsiyentlar va ishning smenaliligi haqidagi savollarga javob berilishi kerak. Texnologik jarayon amalga oshiriladigan barcha qism va bo'linmalar, xomashyo, yarimfabrikatlar saqlanadigan xonalar, tayyor mahsulot omborlari o'rganilishi kerak. Muntazam tekshirish natijasida MAICH ning yaratilishi maqsadga muvofiq ekanligi baholanadi va ixcham avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishlarni yaratishda va joriy qilishda hal qilinishi kerak bo'ladigan masalalar ifodalanadi. Qurilma, mashina apparatlarni ishlab chiqish talab qilinadi.

Kimyo va oziq-ovqat sanoati texnologik jarayonlarini avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini va an'anaviy avtomatlashtirish tizimlarini ishlab chiqish va joriy qilish ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon berdi. Biroq bunday tizimlarning imkoniyatlari cheklangan. Avtomatlashtirishning an'anaviy tizimlarini qo'llash mayda seriyali ishlab chiqarishda, chiqarilayotgan buyumlarning nomenklaturasi ko'p bo'lganda, ayniqsa, murakkablashadi. Ko'p jismonan og'ir ortish-tushirish ishlari, transport va shu kabi kimyo va oziq-ovqat sanoatlarida salmog'i juda katta bo'lgan boshqa amallar amalda avtomatlashtirilmagan. Shu bilan birga sexlar va korxonalarining yangi yoki sezilarli darajada yangilangan mahsulotni ishlab chiqarishga o'tkazish masalasini hal qilish borgan sari dolzarb bo'lib bormoqda. Sanoat korxonalarini avtomatlashtirishda bu „tor joylar“ sohasiga ilmiy-texnik yangiliklarni joriy etish sur'atlarini keskin pasaytiradi. Bunday holatdan qutulish — hisoblash texnikasini va, ayniqsa, mikro va mini EHM larni, atrof muhitga va ishlab chiqarish obyektlariga moslanish elementlari bo'lgan avtomatik manipulyatorlar va sanoat robotlarining keng joriy etilishini, ko'p seriyali, ko'p nomenklaturali, tez-tez qayta tuziladigan ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan dastur bilan boshqariluvchi avtomatik ishlab chiqarish tizimlarini va moslashuvchi (teztez o'zgartiriladigan) ishlab chiqarish tizimlari yoki moslashuvchi avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishlar (MAICH) ni yaratishni muvaffaqiyatli rivojlantirishga imkon beradi. MAICHda kompleks avtomatlashtirish va ishlab chiqarishning uzluksizligi va uyg'unligi, mahsulotni ishlab chiqarishning yuqori sur'atlari bilan qo'shib olib boriladi. MAICHning asosini sonli dastur bilan boshqariluvchi mashinalar va apparatlar, sanoat robotlari va manipulyatorlar, mikro va mini EHM asosidagi boshqaruvchi qurilmalar tashkil etadi. MAICH boshqarishning yuqori darajada moslashuvida qayta sozlanishi bilan xarakterlanadi. Bu optimal rejalashtirishni ishlab chiqish texnologik tayyorgarlik ko'rishni, aniq vaziyatni hisobga

olib dispatcherlik qurilmalarini kompleks boshqarishni kiritish imkonini beradi. MAICH tarkibiga (21.15-rasm) lokal avtom atlashtirish tizimlari (LAS), texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari (TJABT), robotlashtirilgan komplekslar (RK), avtomatlashtirilgan ortishtushirish va transport tizimlari (AOT va TS), xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarning avtomatlashtirilgan ombori (TMAO), avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi (ALT), ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning avtomatlashtirilgan kompleksi (ICHTTAK), xomashyo va chala mahsulotlar bilan ta'minlashning avtomatlashtirilganlik kompleksi (X va CHMTAK), asbob bilan ta'minlashning avtomatlashtirilgan kompleksi (AT AK), tashkiliy-iqtisodiy, rejalash va dispatcherlik boshqaruvi markazi (TIR va DBM) kiritilishi mumkin. Ishga tushirish. Ishlardan maqsad — amaldagi tizimni sanoatda qo'llashga kiritish. Tashkiliy jihatdan tizimni joriy qilish ishlari tasdiqlangan reja-grafik bo'yicha bajariladi. Dastlab tizimining zarur xodimlari shtati ajratib olinishi va o'qitilishi, TJABTni komplektlash o'tkazilishi va BTO qurilish va montaj qilish ishlarini o'tkazishga tayyorlanishi kerak. Keyin montaj-qurilish va ishga tushirish-sozlash ishlari, sinov ishga tushirish, qabul qilish sinovlari, kamchiliklarni bartaraf qilish va nihoyat, sanoatda ishlatish uchun qabul qilish ishlari amalga oshiriladi. Texnik loyiha. Ishdan maqsad — tizim bo'yicha asosiy texnik yechimlarni (qarorlarni) ishlab chiqish va uning smeta qiymatini aniqlashdir. Bu bosqichda dastlab tizimni funksional-algoritmik sintez qilish bo'yicha ishlar olib boriladi, unga pirovard funksional strukturani (tuzilmani) ishlab chiqish; texnika bilan operativ texnologik xodimlar orasida vazifalarni taqsimlash; masalalarni qo'yish va algoritmlarni ishlab chiqish; inson — mashina tizimi sifatidagi TJABTning ishlashi algoritmini ishlab chiqish; tizimining tashkiliy tuzilmasini va uning TVK tuzilmasini ishlab chiqish kiradi. Keyin TJABT ta'minotining hamma turlari bo'yicha qarorlar oydinlashtiriladi. Ishlar natijasi texnik loyiha hisoblanib, unga loyihaning funksional qismi hujjatlari; keyingi bosqichda tizimga butunicha ekspluatatsion hujjatlarni chiqarish uchun zarur va yetarli loyihaviy qarorlar (yechimlar); qurilish loyihasining „Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish“ bo'limi tarkibiga kiruvchi loyihaviy smeta hujjatlari; yangi texnik vositalarni ishlab chiqishga texnik talablari boigan buyurtmalar loyihasi; avtomatlashtirish vositalari kompleksini (majmuasini) yetkazib berishga texnik topshiriq; HT vositalari kompleksini buyurtma qilish uchun zarur hujjatlar to'plami; maxsus matematik va informatsion ta'minotlarning hujjatlari (bu dasturlarni ishlab chiqishga doir texnik topshiriq ham hisoblanadi) kiradi. Ish hujjatlari. Ishdan maqsad — yaratilayotgan tizimga ish hujjatlarini chiqarish. Bu bosqichdagi ishlar TVKni olish, montaj qilish va sozlash uchun yetarli loyihaviy smeta hujjatlari komplektini; mashina eltuvchilarga asoslangan maxsus dasturiy ta'minot (DT) dasturlarini tayyorlash va ularni qo'llash uchun yetarli DT hujjatlari; tizimni sozlash va ishlatish

uchun zarur va yetarli bo'lgan tashkiliy ta'minot hujjatlari hamda TJABT ni avtomatlashtirish vositalari majmuasining hujjatlarini chiqarish bilan tugallanadi.

TJABTni yaratish prinsiplari. TJABTni yaratish va joriy qilish murakkab va mehnattalab jarayon. Bu boshqarishning ilg'or va murakkab uslublarini joriy qilish, TJABT ning ko'p komponentliligi, ayrim ta'minotlarni ishlab chiqishda yondashishning tizimliligi, qo'yilgan vazifalarning va texnik vositalar majmuasining murakkabligi bilan izohlanadi. Vazifani shu narsa ham murakkablashtiradiki, bunda mazkur turdagi tizim larni ishlab chiqishda yangi texnikani joriy qilishning odatdagi sxemasidan foydalanib bo'lmaydi: tajriba namunasini yaratish, uning ish xususiyatini, loyihani tekshirish natijalariga ko'ra tuzatish, oxirgi variantni yaratish. Avtomatlashtirilgan texnologik kompleks (ATK) ishga tushirilmaguncha boshqaruv tizimining ish xususiyatini umuman tekshirish mumkin emas. Bu TJABT ni ishlab chiqishda dastlabki qarorlarning javobgarligini orttiradi. TJABT va BTO ning birgalikda amal qiluvchi to'plami (majmuasi) avtomatlashtirilgan texnologik kompleks (ATK) deyiladi. BTOda vaqt o'tishi bilan muhim o'zgarishlar yuz bergani sababli katta murakkabliklar yuzaga keladi, bu esa boshqarishning joriy etilgan vazifalarini zamonaviylashtirishni taqozo etadi. TJABT ning o'zi ham takomillashtiriladi — kelajakda TJABT normal ishlashi uchun boshqarish vazifalari ortadi va o'zgaradi, ATK evolutsiyasi oldindan rejalashtirilishi kerak, bu qo'shimcha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Yuqorida sanab o'tilganlarning hammasi TJABT ni yaratishning umumiy prinsiplariga majburan rioya qilishni talab qiladi. Ularni qarab chiqamiz. Yangi vazifalar prinsipi shundan iboratki, bunda TJABT ni tadbiiq qilishda boshqaruv hisoblash kompleksi (BHK)ga azaldan an'anaga kirib qolgan boshqarish vazifalarini rad etish mumkin emas; ularni hisoblash texnikasining imkoniyatlarini hisobga olgan holda takomillashtirish kerak. Buning uchun mehnat, m oddiy va energetik resurslarni aniqlash maqsadida BTO ni mufassal tahlil qilish kerak. Tahlil natijalariga muvofiq, hisoblash texnikasi yordamida hal qilinishi mumkin bo'lgan vazifalar ro'yxati tuziladi. Bu masalalarning hal etilishi boshqaruvning to'liqligini, o'z vaqtida bo'lganligini va optimalligini ta'minlashi kerak. Tizimli yondashish prinsipi shundan iboratki, birinchidan, ATK ning ikkala tashkil etuvchilariga bir vaqtda (tizimli) yondashish; boshqarish tizimiga ikkinchi darajali deb, BTO ning ust qurimasi deb qarash mumkin emas. BTO ni yaratishda uni boshqarish imkoniyatlari va zaruratini hisobga olish kerak: uni hududlarga ajratish, qo'shimcha aralashtirgichlar, isitkichlar, nasoslar va hokazolar o'rnatish, ikkinchidan, TJABT ni yaratishda alohida ta'minotlarni ishlab chiqishga tizimli va rejali yondashish zarur.

Xulosa qilib aytgach, Avtomatlashtirilgan ishchi xodimlar korxonalarda muhim bir rol o'ynayadi. Ularning faoliyati va avtomatlashtirish jarayonlari quyidagicha xususiyatlarga ega: Effektivlik: Avtomatlashtirilgan ishchi xodimlar, avtomatik tarzda vazifalarni bajarish, ma'lumotlarni to'plash, analiz qilish va boshqa jarayonlarni amalga

oshirishda yuqori darajada effektivlikni ta'minlaydi. Bu ularga xodimlar qayerda bo'lishlari kerakligini aniqlash, resurslar bilan samarali ishlash va yo'qotishlarni minimalizatsiya qilish imkonini beradi. Xatolarni kamaytirish: Avtomatlashtirilgan ishchi xodimlar aniq o'zlashtirilgan jarayonlarni bajarish orqali musbat natijalarni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xoddan kelib chiqariladigan xatolarni minimallashtirish, tartibni saqlash va diskret holatlarni aniqlash imkonini beradi. So'rov va talablar ustidan ishlash: Avtomatlashtirilgan ishchi xodimlar, avtomatik tarzda so'rov va talablar bilan ishlash, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, natijalarni generatsiya qilish va javob berish imkoniyatiga ega. Bu, korxonada aloqalarni yaxshilashda va tezlik bilan javob berishda muhim rol o'ynaydi. Qat'iylik va sinxronizatsiya: Avtomatlashtirilgan ishchi xodimlar korxonalarda ishni tartibga solish va sinxronizatsiya qilishning muhim asosiy qismidir. Ularning avtomatik tarzda bajariladigan vazifalari, belgilangan kafolat va qat'iylik bilan amalga oshiriladi, bu esa hamkorlik va ishlab chiquvchi jadval orasidagi jarayonlarni biroqchiy davom ettirishga imkon beradi. Avtomatlashtirilgan ishchi xodimlar korxonada boshqaruvida tizimlilik, samaradorlik va ishchi qulayliklarini oshirishning yuqori darajasini ta'minlaydi. Ularning ish faoliyati avtomatik, aniqligi, xatolar va yo'qotishlarni minimalizatsiya qilish, natijalar bo'yicha yetakchi muhitlardan biriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod — 0 'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: „Sharq“, 1997. - 63 b.
2. Yusupbekov N.R., Muhamedov B.I., G 'ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. Texnika oliy o'quv yurtlari uchun darslik.
3. Yusupbekov N.R., Igamberdiyev X.Z., Malikov A. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish asoslari. — T.: ToshDTY, 2007. — 237 b.
4. A r t i k o v A. A., Musayev A. K. , Y u n u s o v I. I. Texnologik jarayonlarni boshqarish tizimi: 0 'quv qo'llanma. — T.: TKTI, 2002.
5. Лапшенков Г.И., Полоский Л.М. Автоматизация производственных процессов в химической промышленности. — М.: „Химия“, 1991. —180 с.
6. Автоматическое управление в химической промышленности: - Учебник для вузов, под ред. Е.Г. Дудникова — М.: „Химия“, 1987. — 358 с.
7. Емельянов А.И. и др. Проектирования автоматизированных систем управления технологическими процессами: — М.: „Машиностроение“, 1984. 155 с.
8. Шестихин О.Ф. и др. АСУ предприятиями нефтеперерабатывающей и нефтехимической промышленности: Учебное пособие. — JL: „Химия“, 1986.- 200 с.
9. О.Е.Вершинин. Применение макропроцессоров для автоматизации технологических процессов. — JL: „Энергоатомиздат“, 1966. — 208 с.
10. Фарзана Н.Г. и др. Технологические измерения и приборы. М.: „Высшая школа“, 1989. — 456 с.
11. Промышленные приборы и средства автоматизации: — Справочник, под ред. В.В. Церенкова. — JL: „Машиностроение“ 1987. — 847 с.
12. Кулаков М.В. Технологические измерения и приборы для химических производств. Учебник для вузов. 3-е изд. — М.: „Машиностроение“, 1983. — 424

KORXONA XODIMLARI NAZORATINI AVTOMATLASHTIRISH

Andijon Mashinasozlik instituti
Xakimova Saboxat Dilmurodjon qizi
hakimovsobirbek@gmail.com
+998978359998
Ilmiy rahbar: Mamadaliyeva Nargiza

Annotatsiya: Ushbu maqolani yozishdan maqsad boshqaruv personalining local avtomatlashtirilgan ish o'rnini AIO' loyihalashda amaliy ko'nikmalarni egallash hisoblanadi. Odatda kadrlar bo'limi shaxsiy tartib ishchilari ro'yhati, kadrlar harakati, kadrlarni o'qitish va qayta o'qitish ishlarini olib boradi. Shuningdek, bo'limning vazifalariga lavozim instruksiyalarini tuzish, hisobotlarini shakllantirish va anketalarni qayta ishlash ham kiradi. Shu bilan birga, bo'lim mehnat intizomi, xizmatchilarni xizmat pog'onalarida ko'tarilishini nazorat qiladi. Korxonada xodimlari nazoratini avtomatlashtirish bu yangi zamonaviy svilizatsiyalarga o'tish bosqichi. Bunda yangi avtomatlashtirish va texnikaviy xodimlar renessansi vujudga keladi.

Kalit so'zlar: Korxonada, instruksiyalar, ishchilar, kadrlar, svilizatsiyalar, nazorat tizimi, xavfsizlik, HRM, statistika, xodimlar tizimi, indentifikatsiya, vaqt, elektronik kartalar, xavfsizlik kameralari.

Korxonada xodimlarini nazoratini avtomatlashtirish uchun bir necha usullar mavjud:

1. Ish haqida axborot tizimlari: Xodimlar haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan axborot tizimlari, masalan, HRM (Human Resource Management) tizimlar yordamida xodimlar haqida ma'lumotlarni saqlash, ish haqida statistikalar va hisobotlarni olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

2. Huquqiy xavfsizlik kameralari: Harakatni ko'rib chiqish uchun korxonada joylashgan huquqiy xavfsizlik kameralari, xodimlarni nazorat qilish uchun foydalanilishi mumkin. Bu kameralar, korxonadagi harakatlarni davom ettirish, xodimlarning tanishtirilishi va kelishilganda munosabatlarning nazoratini qilish imkonini beradi.

3. Elektronik kartalar va kirish sistemlari: Korxonada ichida elektronik kartalar yoki biometrik identifikatsiya tizimlari, xodimlarning yangi joyga kirish va chiqishlarini nazorat qilish uchun foydalaniladi. Bu tizimlar xodimlarning ish vaqtini tekshirish va nazorat qilish imkonini beradi.

4. Amaliyot analysi dasturlari: Xodimlarning amaliyotlarini monitor qilish uchun, korxonada ish bajarish jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beradigan dasturlar

ishlatiladi. Bu dasturlar orqali pul o'tkazmalari, ish haqqi va narxlarni hisoblash, mahsulotlar va savdo statistikalarini boshqarish mumkin.

Ushbu usullar avtomatlashtirish jarayonini iqtisodiy va samarador qilishga yordam beradi va xodimlar nazoratida avtomatik va effektiv texnologiyalardan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, huquqiy muammolar, himoya va maxfiylik jang'armalari talablarini ham ko'rib chiqish lozim.

Xodimlar uchun nazorat tizimini yaratish: Xodimlarni nazorat qilish uchun avtomatlashtirilgan tizim yaratish, masalan, biometrik nazorat qilish, kamera va sensorlardan foydalanish yoki xodimlarga nazorat qilish uchun smart karta berish kabi usullardan foydalanish mumkin. Xodimlar faoliyatini monitor qilish: Xodimlar faoliyatini monitor qilish uchun avtomatlashtirilgan dasturlardan foydalanish, masalan, kompyuter monitoring tizimlari yoki telefon konversiyalarini eshitish uchun dasturlar yordamida faoliyatini nazorat qilish mumkin. Xodimlar xaridlarini vaqti bilan belgilash: Xodimlar xaridlarini vaqti bilan belgilash, masalan, nazorat qilish uchun xodimlar tomonidan ishlatiladigan smart kartalar yoki ID kartalari yordamida xodimlarning qayerda vaqti qachon o'tkazganini nazorat qilish. Ishtirokchilarga xabarnomalar yuborish: Korxonada xodimlar nazoratini avtomatlashtirish uchun ishtirokchilarga avtomatik xabarnomalar yuborish, masalan, xodimlarning kiritgan va chiqqan vaqtlarini bildirish, xodimlarning ish grafiklarini yuborish va h.k.

Bu usullar xodimlar nazoratini avtomatlashtirishda yordam berishi mumkin, ammo bu tizimlarni qo'llash va o'rnatishda xarajatlar, xodimlar va korxonaning maxfiyati, huquqiy va-etik masalalarini ehtiyot qilish shart.

Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish faqat ishlab chiqarish texnikasini takomillashtirish hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash bilangina emas, balki ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, birlik mahsulotga ketadigan moddiy va mehnat xarajatlarini pasaytirib, uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini orttirish bilan bog'liq. Iqtisodiy omillar avtomatlashtirish obyektini tanlab olishda asosiy omil hisoblanadi. Sanoatda avtomatlashtirishning iqtisodiy samaradorligini orttirish omillari juda ko'p. Hozirgi sharoitda avtomatlashtirishning iqtisodiy samaradorligiga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sonini kamaytirish hisobigagina erishishga ko'p hollarda imkon bo'lmaydi, chunki zamonaviy zavodlar, korxonalar, bo'linmalarga nisbatan kam miqdordagi odamlar bilan xizmat ko'rsatiladi. Shuning uchun iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillariga quyidagilarni kiritish mumkin: mahsulot sifatini oshirish, xomashyo va turli xil energiya sarfini, ishlab chiqarish chiqindilarini kamaytirish, ishlab chiqarish ritmini oshirish, mehnat unumdorligini va chiqarilayotgan mahsulot hajmini oshirish, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnat sharoitini ishlab chiqarishning kishilar hayoti va sog'ligi uchun xavfli bo'lgan hududlardagi zararli ishlarni yo'qotish hisobiga yaxshilash. Loyihalananayotgan va qurilayotgan yangi ishlab chiqarish korxonalarida avtomatlashtirish texnologiya bilan

uzviy ravishda bog‘lanishi kerak. Jadal texnik taraqqiyot tufayli „yosh“ ishlab chiqarish ma’lum davrdan so‘ng eskiradi va yangilashni talab qiladi, shu jumladan, amaldagi texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish tizimlarini yanada zamonaviy hamda takomillashganlari bilan almashtirishni talab qiladi.

